

LAYLO RAUPOVA

NUTQ MADANIYATI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK
VA DIZAYN INSTITUTI**

LAYLO RAUPOVA

NUTQ MADANIYATI

darslik

Toshkent
"INNOVATSIYA-ZIYO"
2019

UDK: 8
BBK: 80
R- 28

Raupova Laylo

**Nutq madaniyati /darslik/ Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019,
138 b.**

Mazkur darslik magistratura mutaxassisliklari uchun “Nutq madaniyati” fani bo'yicha Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturi (2015-yil) asosida yaratildi. Darslikni yaratishda sohaning yetakchi mutaxassislari Ernst Begmatov, Nizomiddin Mahmudov, Ravshanxo'ja Rasulov, Ulug'bek Saidov, Yormat Tojiyev, Rahmatilla Qo'ng'urov, Ergash Qilichev va boshqalarning nutq madaniyatiga doir darslik va qo'llanmalaridan unumli foydalanildi.

Darslik barcha magistratura mutaxassisliklari talabalari, mutaxassislar hamda qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir

Baxtiyor Mengliyev

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Saodat Muxamedova

filologiya fanlari doktori, professor

Muyassar Saparniyozova

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

*Darslik Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn
instituti Kengashida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan*

ISBN 978-9943-5868-7-1

**© Raupova L., 2019
© “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019**

XXI asrda ta’lim sohasi o‘zining yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Ushbu darslik «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslanib, ta’lim muassasalarini nutq madaniyatiga oid uslubiy adabiyotlar bilan boyitishga qaratilgan.

Nutq o‘stirishni o‘rgatish uchun tanlangan metod va manbalarni tahlil qilish va ulardagi mazmunni sodda, tushunarli va o‘zbek tilida yoritib berish jamiyatimizda ertangi kunning barkamol avlodini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur darslikdan ko‘zlangan asosiy maqsad shuki, nutq o‘stirish ko‘nikmalarini san’at sohasida tahsil olayotgan talabalarda shakllantirish, ularni bu fanga qiziqtirish orqali jamiyat hayotida o‘z o‘rinlarini topishida yordam ko‘rsatish, ularning tafakkurini yuksaltirish, faolligini va ijodkorlik ruhini shakllantirishdan iborat. Zero, nutq o‘stirishning mohiyati va shakllari orqali yoshlar dunyoqarashiga chuqur ta’sir ko‘rsatiladi, shuningdek, nutq o‘stirishni o‘rgatishda milliy ma’naviyatimizni rivojlantiradigan manbalarning, kitob mutolasining roli kuchaytiriladi.

Bugungi kunda o‘zbek tili chuqur va atroflicha tadqiq qilinib, uning adabiy me’yorlari mukammal holatga keldi. Bu o‘zbek tilshunosligi fanining o‘tgan asrdagi ulkan yutug‘idir. Adabiy til me’yorlari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib bordi. Ta’lim, nashriyot-matbaa, radio-televide niye, matbuot va ish yuritish sohalarida o‘zbek adabiy tilining me’yorlariga rioya qilish barqarorlashdi. Ayni paytda, adabiy til me’yorlariga rioya qilishning sifat bosqichi ketmoqda. Maktab bosqichidan oliv ta’limgacha nutq madaniyati kursi o‘tilishining takomillashayotganligi fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirdi.

O‘zligimizni anglashda qutlug‘ qadamlardan biri bo‘lgan va qabul qilinganiga chorak asrdan oshayotgan “Davlat tili haqida”gi Qonunning o‘tgan davrda bergen ulkan natijalari va samarasini tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazsak, ularni bemalol asrlarga tatifilik yutuqlar deb aytish mumkin. Darhaqiqat, bu Qonun millatimiz ko‘rki, ma’naviy-madaniy xazinasi bo‘lgan ona tilimizni haqorat botqog‘idan, “oila tili”

darajasidan jahon minbarida jaranglaydigan, unda bitilgan Davlat madhiyasi esa xalqaro rasmiy marosimlarida yangraydigan, internet veb-saytlarini bezaydigan til, uni rivojlangan davlatlarning mutaxassislari o‘z ixtiyorlari bilan qiziqib o‘rganadigan rang-barang boyliklar xazinasining kaliti darajasiga ko‘tardi.

Tilga davlat tili yoki rasmiy til maqomining berilishi uni yo‘qolish xavfidan xalos qiladi. Milliy tilning inqirozi esa milliy ma’naviyatning, milliy o‘zlikning barbod bo‘lishi demakdir. Tilning rasmiy maqomi millat yoki xalq uchun juda ulkan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, tarixiy, huquqiy ahamiyatga molik masala. Chunki, rasmiy til shu til sohiblarining milliy-ma’naviy yaxlitligini ta’minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Shu ma’noda milliy yaxlitlikka erishish, vatanparvarlik milliy tilga e’tibordan boshlanishi beziz emas. XIX asrda yashagan fransuz olimi M.Bellin hazrat Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug ‘atayn” kitobidagi “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz” degan hikmatli so‘zlaridan ta’sirlanib, 1861-yilda e’lon qilingan “Mir Alisher Navoiy biografiyasi va ijodi” kitobida shunday degan edi: “Alisher Navoiy o‘z milliy tilining afzalliklarini inkor etib bo‘lmaydigan dalillar bilan isbot qilganligi o‘z xalqi orasida vatanparvarlikni boshlab bergenligidan dalolatdir.”

Milliy istiqqlolimiz darakchisi va ibtidosi bo‘lgan davlat tili haqidagi Qonun respublikamiz siyosiy, ma’naviy va madaniy hayotining barcha jabhalarida ustuvor ahamiyatga ega, shu bilan birga, milliy til ta’limining tilshunosligimizning yangilanishi va butun jahonga tanilishidagi roli beqiyos.

Til ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lganligi sababli uning me’yorlarini belgilash davlatning til siyosati bilan ham bog‘liq. Yurtimiz bir asrdan ko‘proq mustamlaka bo‘ldi. Hukmron xalq va uning tiliga har jihatdan imtiyoz berilib, qaram xalqlarning ruhiyati va tiliga tajovuz qilindi. Faqat istiqlol tufayli til va tilshunosligimiz istibdod kishanlaridan xalos bo‘ldi. O‘zbek tilshunosligi tom ma’nodagi mustaqil fan sifatida o‘zbek tilining o‘zbekona tabiatini ochiq-oydin o‘rganib, uni milliy g‘oya va milliy mafkurani targ‘ib qilishning tarkibiy qismiga aylantirdi.

O‘tgan asrda o‘zbek adabiy tilini me’yorashtirishda tilimizning ontologik tabiatidan kelib chiqilmaganligi, sho‘ro saltanatida davlat siyosati va unga mos ravishda til siyosatining asosiy maqsadi xalqlarni ruslashtirish bo‘lganligidan olimlar hukmron tilning xususiyatlarini o‘z tillarida “ko‘rish”ga majbur bo‘lishgan edi. Sababi bunga zid intilishlar

har doim ham tadqiqotchiga yaxshilik keltiravermagan. Masalan, rus turkiyshunos olimi K.K.Yudaxin “qirg‘iz va rus tillari orasida o‘xshashlikdan ko‘ra farqlar ko‘proqdir” degan tezisi uchun “qirg‘iz mayda burjua millatchisi” tamg‘asini olganligi bunga kulgili bir dalil. Olimlar leksik olinmalar ikki tillilik sharoitida tillarni, shuningdek, xalqlarni yaqinlashtirish vositasi degan notabiyy talqinlar vujudga kelganligini ta’kidlashadi. Chunki qator ilmiy, siyosiy hujjatlarda “tilning o‘sish-o‘zgarishidagi hamma jarayon jamiyatdagi talab-ehtiyoj bilan bog‘liqdir” degan aqida noto‘g‘ri talqin etilar edi. Bu hodisa grammatikada ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki grammatikada milliy ruh yorqin aks etadi va u jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga mutlaqo befarq. V.fon Gumboldt ta’kidlaganidek, tillarning grammatik jihatdan farqi xalqlarning ruhiyatidagi farq bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli lug‘atga nisbatan grammatikada millatning ruhiy o‘ziga xosligi ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Adabiy tilni me’yorlashtirishdagi g‘ayriilmiy talqinlar bevosita adabiy tilda o‘z izlarini qoldira boshladi va bu chayir illat hanuz yashab kelmoqda. Masalan, hozirgi kunda matbuot, televideniye, badiiy va ilmiy asarlarda buni yaqqol ko‘rish mumkin. Aniqlovchi ko‘plik bildiruvchi so‘z bo‘lganda -lar egada ham, kesimda ham tejaladi. Hozirgi kun matbuotida ana shu qoidaga rioya qilinmasdan ega va kesimga -lar qo‘sib ishlatalmoqda: *Musobaqada 1,2,4,5,9,10,11,15,31-o‘rtta maktablardan 64 nafar sportchilar ishtirok etdilar. Ayni kunda ilm maskanida 3 nafar fan doktori, 19 nafar fan nomzodlari, 26 nafar oliy toifali o‘qituvchilar ishtirok qilishmoqda.*

O‘zbek tili formal ilmiy talqinida rus formal tilshunosligi va rus turkiyshunoslarning turkiy tillar haqidagi talqinlari ta’siri ustuvorlik qildi. Bu turkiyshunoslар rus tili qurilishida o‘z subyektiga (o‘z bajaruvchisiga) ega bo‘lgan sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi oborotlari, umuman, xos bo‘limganligi sababli o‘zbek tilida sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlari oborotlari o‘zining xususiy bajaruvchisiga ega bo‘lgan hollarni gap sifatida talqin etishdi.

Istiqlol natijasi o‘laroq, boshqa fanlarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham milliy til va milliy ruh munosabati, milliy tillarni talqin qilish metodologiyasi va metodlari, tillararo farqlanishlar hamda ularning millat ruhiyatida aks etishi, tilning ruhga, ruhning tilga ta’siri, o‘zbek tili va uning substansial tabiatini, til sathlarida bu o‘ziga xosliklarning namoyon bo‘lishi ilmiy muammolar sifatida ko‘tarilib,

ularning yechimiga doir qator tadqiqotlar vujudga keldi. Tadqiqotlarda ko'tarilgan har bir masalada muammoning turli qirralari yechimi o'z aksini topmoqda.

Rus tilshunosligiga ergashish, til qurilishi talqinida o'zbek tili qurilishini mumkin qadar ko'proq rus tili xususiyatlariga moslashtirib bayon etish qulligi va bo'yinturug'idan bu muborak Qonun sharofati bilan ozod bo'lgan o'zbek fani o'z ona tili tizimini tafakkuri va tabiatiga xos va mos talqin qilish yo'liga o'tdi. Nazariy tilshunoslikda yevropa tillariga asoslangan talqinlardan chekinilib, ona tiliga tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida munosabatda bo'ladigan, millat ruhining ichki imkoniyatlarini ochishga yo'naltirilgan o'zbek substansial tilshunosligi shakllandı, rivojlandı, ta'lim tizimiga joriy etildi. Ona tili ta'limi ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning, milliy qadriyatlar tarannumining, o'zlikni anglash va uni namoyon qilishning eng muhim vositalaridan biriga aylandi. Ilmiy-nazariy yo'nalishda tilshunosligimiz shu darajalarda yuksaldiki, fanimizda ishlab chiqilgan ilmiy tushuncha va tahlil usullari asosida g'arbiy tillar qurilishining yangicha talqinlari shakllanmoqda.

Fan va ta'limimizdagi bunday jahonshumul yutuqlar, ona tili ta'limi va tilshunosligimizning bunday baynalmilal e'tirofi mana shu Qonunning samaralaridan biridir. Aminmizki, qadami qutlug' bo'lgan bu Qonunning bunday pursamar ta'siri, samarasи yildan-yilga oshib boradi.

Til, nutq va madaniyat mushtarakligi masalalari bilan yanada uyg'unlashib ketadi.

Til va madaniyatning chambarchas bog'liqligi haqida ko'p gapiriladi. Haqiqatan ham bunday aloqadorlik juda kam. Buni kundalik hayotimizda faol iste'molda bo'lgan *mutq madaniyati, notiqqliq san'ati* kabi atamalardan, xalq orasida mashhur bo'lgan *oz so'zla, ko'p o'yla, o'ynab gapirsang ham o'ylab gapir, yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z bosh qozig'i, yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqadi, yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqadi* kabi son-sanoqsiz maqol va matallardan ham bilsa bo'ladi. Demak, bu muammo "ko'hna va hamisha navqiron" masalalardan.

Madaniyat o'ta keng qamrovli tushuncha. Ko'pchilikka hatto uning moddiy va ma'naviy turlari borligi ham yod bo'lib ketgan. Lekin tildagi madaniyat uning qaysi turiga kirishi masalasiga kelganda ikkilanib

qolamiz. U moddiy madaniyat tarkibiga kiradimi yoki ma'naviy madaniyat unsurimi?

Til, avvalo, kishilarning eng muhim aloqa vositasi. Bu nuqtayi nazardan u moddiy tabiatli. Zero, sezgi a'zosi (eshitish, ko'rish kabi) ga ta'sir qiluvchi hodisa moddiy sanaladi. Demak, kishilarning o'zaro aloqa vositasi sifatidagi tilga xos bo'lgan madaniyat moddiy xususiyatga ega. Lekin, ma'naviy madaniyat sifatida qadrlanuvchi boyligimiz – qadriyatlarimiz, bobolardan qolgan ulkan badiiy va ilmiy meros, san'at asarlari bizga til, ya'ni uning, asosan, yozma, ba'zan og'zaki ko'rinishlarida yetib kelgan. Xo'sh, ma'naviy madaniyat "tashuvchisi" sifatida u qanday baholanmog'i lozim? Biz bu madaniyatni o'qish, eshitish orqali bilamiz, o'zlashtiramiz. Bunda ham, e'tibor qilinsa, til ma'naviy madaniyatning "qobig'i" – moddiy ifodalovchisi sifatida yuzaga chiqadi. Shuningdek, kishilarning axloqiy tabiat, dunyoqarashi ham til orqali namoyon bo'ladi. Ko'rindiki, til millatning moddiy boyligi, undagi madaniyat moddiy madaniyatdir.

Albatta, til birliklari shakl va ma'no yaxlitligidan iborat. Ammo til madaniyati ana shu ma'noning ijtimoiy voqelanishi bilan belgilanadi. Buni yaqqol tasavvur qilish uchun til va nutqni farqlash lozim. Ma'lum bir millatning eng muhim o'zaro aloqa-aratashuv vositasi **til** deyiladi. Uning ming-ming yillar davomida shakllangan qonun-qoidalari shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilar uchun majburiy. Barchamizda uzoq zamonlar osha yig'ilgan boylik – til imkoniyatidan foydalanish ehtiyojimiz bor. Tilimiz fikr almashish ehtiyojlarimizni to'la qondira olish darajasida har jihatdan mukammallik kasb etgan. Ana shu mukammallik **til madaniyati** deyiladi. Til madaniyati millatning umumiyligi madaniyati hisoblanadi. Uning ma'lum bir kishi voqelantiradigan ko'rinishi **nutqdir**. Nutqning mukammallik darajasi **nutq madaniyati** deyiladi. Nutq madaniyatida shaxsning til madaniyatidan foydalanish darajasi namoyon bo'ladi. Kishining umumiyligi madaniy saviyasi, bilim darajasi, intellektual salohiyati, farosati kabi omillar uning til madaniyatini o'zlashtirib, nutq madaniyatiga aylantirishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun tilimiz qanchalik go'zal bo'lmasin, ba'zi kishilarning nutqini eshitganda beixtiyor qulog'ingni berkitging keladi. Ayrim kishilar gapirganda so'z topolmay qiynaladi. Bu uning til madaniyatidan foydalanishda zarur bo'lgan o'qimishlilikning yetishmasligidir. Kimlardir tovushlarni talaffuz qilishda qiynaladi. Bunda ularning

sog‘lig‘i til madaniyatini voqelantirishiga imkon bermaydi. Shunday kishilar borki, ular so‘zlaganda sel bo‘lib ketasan. Bunday kishilarni so‘z san’atkori deyishadi. So‘z san’atkorlari til madaniyatini mukammal darajada nutq madaniyatiga aylantira oladilar. Buning zaminida ularning mashaqqatli mehnati ham yotadi. Demak, madaniyatning boshqa turlarida bo‘lgani kabi til madaniyatini o‘zlashtirishda ham qobiliyat va mehnat muhim rol o‘ynaydi.

Tilning madaniy taraqqiyotida millatning madaniy taraqqiyoti yotadi. O‘zbek xalqi madaniyati bu darajada rivojlanmaganda tilimiz ham bunchalik ko‘rkli va rangin, serjilo bo‘lmash edi. Bobolarimiz dunyo sivilizatsiyasidan oziqlanib, moddiy va ma’naviy madaniyatimizni yuksak darajaga ko‘tardilar. Bu madaniyat namunalarini birma-bir sanab o‘tirmaymiz, albatta. Birgina misol keltiramiz. Rus sharqshunos olimi S.N.Ivanov “go‘zal fors mumtoz she’riyatining kichik singlisi bo‘lgan turkiy nazmiyot yuksalib, opasidan ham bo‘ychan bo‘ldi” degan go‘zal o‘xshatish qilgan. Demak, fors adabiyotidan oziqlangan o‘zbek adabiyoti undan ko‘plab so‘z va iboralarni ham o‘zlashtirdi. O‘zlashtirganda ham nafaqat yozilishini, balki talaffuzini ham aynan oldi. Shuning uchun hazrat Navoiy fors turkiycha so‘zlasa, fors ekanligi bilinib turadi, biroq forscha so‘zlagan turkiyini hech kim turkiy demaydi degan.

Til madaniyati jamiyatda mustahkam o‘rnashgan bo‘lib, hamma unga rioya qilishga majbur. O‘z nutqida yuqorida ta’kidlangan o‘zbek tili madaniyatini emas, balki sun’iy ravishda o‘zga til madaniyatini voqelantirishga intiluvchilar ham uchrab turadi. Uning nutqida qo‘llangan so‘z va iboralar til madaniyatiga muvofiq emas ekan, uning nutqi ham madaniylikdan begona, o‘zi esa har qancha chiranmasin, ayrimlar o‘ylaganchalik “jaa madaniyatli” kishi emas.

Umuman olganda, til madaniyatining xususiy ko‘rinishi bo‘lgan nutq madaniyatini yuksaltirish uchun nimalarga e’tibor qaratish lozim?

E’tibor bergen bo‘lsangiz, ommalashgan koreys seriallari dublyajida qahramonlar bir-biriga shunaqa chiroqli lutflar qilishadiki, men buning bolalar nutqiga qanchalik ta’sir qilganligini, ular ham shunday gapirishga uringanlarini kuzatganman. Demak, birinchidan, faqat til qoidalarini yodlatmasdan, jonli muloqot madaniyatini shakllantirishning turli ilg‘or vositalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish lozim. Ikkinchidan, bunda kattalarning ibrati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki oilada farzandlarini boloxonador qilib

haqoratlaydigan ota-onalarimiz ham yo‘q emas. Hashamatli uy, to‘kis sharoit, so‘nggi rusumli avtomobil, qimmatbaho kiyim-bosh va sayr-u sayohatlarnigina madaniyat deb biladigan, lekin Abdulla Qahhor ta‘biri bilan aytganda, “ichida it o‘lgan” kishilar ham uchrab turadi.

Norasmiy doiralarda har qanday tilda so‘zlashish ixtiyoriy bo‘lsayu, shevada gapirish aybmi? Faqat qayerda qanday gapirishni bilish kerak. Bu jamiyat a’zosining madaniy saviyasi bilan bog‘liq. Rus tilida anjuman bo‘layotganda bu tilni bila turib o‘zbek tilida so‘zlash jamiyat odobiga nomuvofiq bo‘lgani kabi, rasmiy holatlarda ham shevada gapirish ma’qul emas. Oila bag‘rida, qarindosh-urug‘ huzurida, lahjadosh do‘stilar davrasida shevada so‘zlashish nafaqat mumkin, balki zarur hamdir.

Umuman olganda, mukammal til madaniyatimiz mavjud. Undan foydalanish ko‘nikmasini o‘sirish esa dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

**Baxtiyor Mengliyev,
filologiya fanlari doktori, professor**

KIRISH

Reja:

1. “Nutq madaniyati” kursining maqsadi, predmeti va vazifalari.
- 2.“Nutq madaniyati” kursi doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalar.
- 3.“Nutq madaniyati” kursining boshqa fanlar bilan o‘zaro munosabati.

Tayanch tushunchalar: *nutq madaniyati, maqsad, predmet, vazifa, boshqa fanlar, aloqadorlik.*

“Nutq madaniyati” kursining maqsadi, predmeti va vazifalari. Bugungi kunda o‘zbek tilining me’yorlari mukammal ravishda ishlab chiqilgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keng qo’llanilayotgan bo‘lsa-da, til imkoniyatlaridan foydalanish taraqqiyotning bugungi kundagi darajasida deb bo‘lmaydi. Bu borada jiddiy muammolar yuzaga kelayotganligi sir emas. Jamiyat a’zolarining tildan foydalanish umumiy saviyasi o‘zbek millati muhtasham madaniyati darajasida bo‘lmas ekan, ijtimoiy madaniy nutq to‘la qaror topganligi haqida hukm chiqarib bo‘lmaydi. Ijtimoiy madaniy nutq har bir shaxsdagi ayrim sifatlarni tarbiyalash, takomillashtirish natijasida vujudga keladi.

Ma’lumki, *madaniyatatlilik* tushunchasi xilma-xil talqinlarga ega. Ularning barchasini umumlashtirib aytish mumkinki, madaniyatli shaxsda uch xususiyat yaqqol namoyon bo‘lib turadi:

- bilimlilik;
- farosatlilik;
- kamtarinlik.

Madaniyatli shaxs kim bilan qayerda va qanday sharoitda munosabatda bo‘lmasin, unda ushbu xislatlarning alohida ajralib turganligiga guvoh bo‘lamiz.

Oddiy misol sifatida haydovchini olaylik. U uch holatdan birida yo‘l harakati qoidasini buzadi:

- 1) yo‘l harakati qoidalarini bilmaslik (bilimsizlik) natijasida;
- 2) yo‘l harakati qoidalariga e’tibor qilmaslik (farosatsizlik) natijasida;

3) yo‘l harakati qoidalarini pisand qilmaslik (nokamtarlik) natijasida.

Kishilararo muloqot ham bamisoli yo‘l harakatiga o‘xshaydi. Bilimli, farosatli, kamtarin kishilar hech qachon muloqot jarayonida mulzam bo‘lib qolmaydi – muloqot qoidalarini buzmaydi. Masalan, madaniyatli kishi o‘zi bilmagan, yetarli ma‘lumotga ega bo‘lmagan narsa haqida gapirmaydi, hukm chiqarmaydi. Yoki muhokama qilinayotgan, suhbat mavzusi bo‘lgan masala haqida zarur bilimga ega bo‘lsagina, suhbatga aralashadi. Muloqotda farosat muhim rol o‘ynaydi. U madaniylik unsurlarining tarkibiy qismi bo‘lsa-da, asosiy o‘rinda turadi, ular sirasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, farosatli kishi bilmasdan gapirmaydi, yuksak farosat kishini kamtarin qilib qo‘yadi.

Muloqot jarayonida bilim uch ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- muloqot obyekti haqidagi bilim;
- muloqot qilayotgan kishi haqidagi bilim;
- muloqot vositasi (til) bo‘yicha bilim.

Mana shu uch sifatdan biri bo‘lmasa, muloqot sifatlari kechmaydi, hamsuhbatda suhbatdoshning madaniyatli shaxs ekanligi haqida tasavvur paydo bo‘lmaydi.

Hamsuhbatni birinchi bor ko‘rib turgan kishida suhbatdosh haqida qanday bilim bo‘ladi, bu (yuqorida sanalgan ikkinchi) unsur asosli emas degan e’tiroz bo‘lishi mumkin. Bunga javob shuki, muloqotning ilk daqiqalaridayoq farosatli (!) kishi hamsuhbatining fe‘l-atvorini anglab yetadi va muloqotning samarali bo‘lishini istasa, suhbat o‘zanini shu asosda qurish imkoniga ega bo‘ladi. Ko‘ryapsizmi, yana farosat unsuri yetakchilikni qo‘lga oladi.

Ba’zilar o‘zi tuzuk bilimga ega bo‘lmagan narsa va hodisalar, kishilar haqida soatlab gapiradi. Yoki bilgan narsasini tavsiflash, tushuntirishda qiynaladi. Demak, uning so‘z boyligi kam, nutqiy malaka rivojlanmagan... nutq a’zolarida tug‘ma yoki orttirilgan nuqson bo‘lishi mumkin. Bunday kishi muloqot “halokat”ini keltirib chiqaradigan vaziyatlarda nutqiy “harakatlar” qilmasligi lozim – xuddi jismoniy holati rulga o‘tirishga imkon bermaydigan haydovchi kabi.

Farosatli kishi suhbatdoshini noqulay ahvolga solib qo‘ymaydi. Uning qalbiga “jarohat” yetkazmaydi, aksincha, qiyin vaziyatlarda uni qo‘llab yuboradi – xuddi yo‘lda haydovchi boshqa haydovchilarni

mushkul holatlarga solib qo‘ymaganligi yoki qiyin vaziyatlardan olib chiqqanligi kabi.

Farosatli haydovchi tezlik jilovini ushlay oladi, qayerda to‘xtab, qayerda burlish kerakligiga amal qiladi, oraliq va yon masofani saqlaydi, qachon to‘xtash kerakligini, zarur hollarda yo‘l berishni biladi. Madaniy muloqot sohibida ham shunday holatni ko‘ramiz. Nutqning tezligi fikrni anglab olishni qiyinlashtiradi, hamsuhbat shoshib qoladi. Farosatli suhbatdosh hamsuhbatning kimligini bilib, u bilan zarur oraliq masofani saqlaydi. Kezi kelganda gapirishdan to‘xtaydi. Hadeb hamsuhbatning fikrini rad qilaverish farosatning pastligidan dalolat beradi, chunki “yo‘l berish” ham madaniy muloqotning zaruriy shartlaridan biridir. Farosatli haydovchi transportni qayerda qanday haydashni biladi va shunga amal qiladi. Aks holda, u yozuvchi Abdulla Qahhorning “Nutq” hikoyasidagi lektor kabi boshqalarning ensasini qotiradi, nutq sharoitini hisobga olmasdan, “sartaroshning eski qaychisidek shaqillayversa”, boshqalarga malol keladi.

Tilni bilish so‘zamollik, mahmadonalik, gapga chechanlik bilan bir narsa emas. Kundalik, siyqasi chiqqan so‘zlarni aylantirib, soatlab tinimsiz gapirish mumkin. Lekin so‘zlarni tanlab qo‘llash, har bir hodisaga mos so‘zni o‘z o‘rnida ishlatish, so‘z vositasida o‘zgalarni mahliyo qilish, odamlar qalbiga yo‘l topish boshqa narsa. Oliftagarchilik qilib vulgar, varvar, yopishmagan ajnabiy so‘zlarni qo‘llash balki “moda”dir, ammo madaniyat belgisi emas. Ayrimlar madaniyat bilan modani chalkashtiradi. Eng so‘nggi urfdagi kiyimni kiyish, buyumni ishlatish madaniyatsizlik emas, lekin madaniylik belgisi ham bo‘la olmaydi. Zamonaviylik va zamonasozlik mos kelmaganligi kabi, madaniyatlilik bilan modaparastlik ham muvofiq emas. Deylik, keksa otaxon va onaxonlar oldida yangi neologizmlarni qo‘llash, avvalo, farosatning, qolaversa, madaniyatsizlikning o‘zginasi bo‘lganligi kabi “til uchida turgan” so‘zni topolmaslik til bilimining yetishmasligidir.

Ko‘rinadiki, madaniy nutq faqat chiroyli ifodalarni qo‘llash emas, balki shaxsdagi ichki va tashqi omillarning yaxlitligidan iborat. “Nutq madaniyati” kursi har bir shaxsda mana shu sifatlarni takomillashtirish zarurati tufayli o‘z zimmasiga yangi-yangi vazifalarni olmoqda.

Bundan xulosa qilish mumkinki, kursning asosiy maqsadi talabalarning muloqot imkoniyatlarini madaniyat darajasiga

ko‘tarishdan iborat. Buning uchun nutq madaniyatining nazariy va amaliy muammolari haqida tushuncha berish hamda kerakli sharoitlarda ulardan foydalanishni o‘rgatish, nafaqat o‘zbek adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda yozma va og‘zaki nutq tuzish ko‘nikmasini shakllantirish, balki umuman nutq tuzish, uni bayon qilishning, ya’ni nutqning nutqiy bo‘lmagan hodisalarga munosabatidan kelib chiqadigan holatlarga (vaziyatga) e’tiborli bo‘lish kerakligini ham shakllantirishdan iborat.

Shu ma’noda shaxsning nutqiy malakasi va muloqot akti “Nutq madaniyati” kursining tahlil va tavsif predmeti hisoblanadi.

Belgilangan maqsad esa muayyan vazifalarni amalgaga oshirishni taqozo etadi:

- ta’lim oluvchilarining o‘zgalarga munosabatini takomillashtirishga ko‘maklashish;
- ta’lim oluvchilarining muloqot madaniyatiga doir bilim saviyasini takomillashtirishga doir yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish;
- ta’lim oluvchilarining o‘zlarida til hodisalarini his qilish sezimini tarbiyalashlariga va til bo‘yicha zarur bilimlarini boyitishlariga doir tavsiyalarni berish;
- talabalarda nutq me’yorlari nazariyasi terminlarining ishlatilish ko‘lami, ularni amalda ham o‘quv, ham ilmiy izlanishlar jarayonida qo’llash masalasini shakllantirish;
- nutq me’yorlariga oid faktlarini ishonchli tarzda, izchil to‘plash, saralash;
- nutqning adabiy til me’yorlari (umumiyligi, xususiy me’yorlar) bilan munosabati haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- nutq tuzish va bayon qilishning me’yorlarini to‘g‘ri belgilash va unga amal qilishni shakllantirish;
- talabalarda har qanday nutqni tahlil eta olish, shu asosda uni baholay olish, tuzata olish qobiliyatini rivojlantirish;
- nutqning nutqiy bo‘lmagan hodisalar bilan munosabatini (ong, borliq, til, vaziyat kabilar) hisobga olgan holda nutq tuzish va bayon qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

2. “Nutq madaniyati” kursi doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalar. Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda o‘quv kursi qator masalalar bo‘yicha bahs yuritadi. Ular nutq va muloqot madaniyati bilan bevosita yoki bilvosita bog‘langan nazariy va amaliy muammolardir. Xususan, nutq va uning shakllari doirasida:

- nutq muloqotning bir ko‘rinishi ekanligi;
- *nutq madaniyati* tushunchasi;
- nutqning og‘zaki va yozma, rasmiy va norasmiy turlarining o‘ziga xos jihatlari;
- nutq madaniyati va uslubiyatning o‘zaro aloqadorligi va munosabati, o‘zbek adabiy tilining vazifaviy uslublari;
- nutq va mantiq munosabati;
- *nutq, notiqlik* va *voizlik* tushunchalari haqida so‘z yuritiladi.

Muloqot madaniyatini yuksaltirishda notiqlik va nutq madaniyati tarixidan lavhalar berish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan bu masala doirasida:

- antik davrda notiqlik va nutq madaniyati;
- Sharqda notiqlik va nutq madaniyati masalalari;
- zamonaviy notiqlik sirlari, muloqot madaniyatiga daxldor sara qarashlar, amaliy yo‘nalishlar bilan tanishtiriladi. Bu masalalar talabalar uchun namuna vazifasini o‘tab, ulardan ibrat olishga undaydi.

Madaniy nutq o‘ziga xos me’yor va qoidalarga ega. Shuning uchun ushbu masala doirasida:

- madaniy nutqning talaffuz me’yorlari;
- madaniy nutqning imloviy me’yorlari;
- madaniy nutqning punktuatsion me’yorlari;
- madaniy nutqning leksik va grammatik me’yorlari;
- madaniy nutqning uslubiy me’yorlari;
- madaniy nutqning pragmatik me’yorlari bilan tanishtirish talabalarning muloqot kompetensiyalari rivojlanishida katta rol o‘ynaydi.

Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari haqidagi bilim va malakalarni rivojlantirish madaniy nutqning asoslaridandir.

Ma’humki, madaniy nutqda tilning o‘ziga xos unsurlari ishtirot etib, nutqning ko‘rki va sifatini ta’minlaydi. Shu boisdan nutqda tilning tasviriy vositalari, ko‘chimlar (metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, ironiya, sarkazm), uslubiy figuralar (takror, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, ritorik so‘roq) haqida yengil nazariy bilimlar berilib, ularning qo‘llanishini avtomatlashirish darajasi mukammallashishiga ko‘maklashiladi.

“Nutq madaniyati” kursining boshqa fanlar bilan o‘zaro munosabati. Madaniy nutq salohiyatiga erishish va ta’limda uni

ta'minlashga ko'maklashish boshqa fanlar bilan aloqador ish ko'rishni taqozo etadi. Zero, nutq madaniyati ihotalangan hodisa emasligi tayin.

Nutq madaniyati sohasi boshqa fanlarda ham bo'lgani kabi bir qator fanlar, fan sohalarining materiallari va yutuqlariga suyanadi.

"Nutq madaniyati" ta'limida falsafa, pedagogika, metodika, psixologiya, axborot texnologiyalari, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, mantiq, etika, estetika fanlari yutuqlariga tayanilsa, nutq madaniyatini egallahda ulardan falsafa, pedagogika, metodika, psixologiya, axborot texnologiyalari birinchi darajali fanlar doirasida turmaydi.

Sohaning boshqa fanlar bilan aloqasi ikki yo'nalishda qaror topadi:

- nutq madaniyati ta'limi yo'nalishi;
- nutq madaniyatini egallah yo'nalishi.

Nutq madaniyati sohasi, birinchi navbatda, tilshunoslikning fonetika, morfologiya, leksikologiya, sintaksis, uslubshunoslik sohalari, adabiyotshunoslik fani bilan, ikkinchidan, esa mantiqshunoslik, psixologiya, falsafa, estetika va etika kabi ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqada.

Nutq madaniyati sohasi fan sifatida falsafa fani bilan aloqador. Chunki falsafa nutq madaniyati ta'limining ilmiy metodikasini, metodologik asoslarini belgilab beradi.

Nutq jarayoni, ya'ni gapirish, eshitish va tinglash, tilni bilish holatlari, nutqni qabul qilish, tushunish sharoitlari, nutqdagi ayrim o'ziga xos ko'rinishlari, ichki nutq kishining shaxsiy taraqqiyotida, ayniqsa, uning yoshligida nutqning shakllana borishi kabi masalalar psixologiya fani tomonidan o'rganiladi. Demak, tilshunoslik til qonuniyatlari, tilning qurilishi xususiyatlarini o'rgansa, psixologiya nutqning inson ruhiyati bilan bog'liq jihatlarini o'rganadi. Nutqning psixik faoliyat bilan aloqador tomonlarini o'rganishda tilshunoslik psixologiya fani tajribalariga suyanadi.

Nutq madaniyati mantiq – tafakkur qonunlari va fikrlesh shakllariga oid ta'limot bilan ham bog'liq. Masalan, har doim to'g'ri, o'rinli va ta'sirchan so'zlash bevosita mantiqiy tafakkur bilan belgilanadi. Mantiqiy tafakkurning darajasi nutqning mantiqiyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, *nutq* va *mantiq* so'zlarining o'zakdoshligi ham buni asoslaydi.

Nutqning madaniyligi shaxsning etik, estetik saviyasiga juda ham bog'liq. Bu esa nutq madaniyati sohasining yuqorida zikr etilgan har

ikki yo‘nalishida ham etika va estetika fanlari bilan aloqadorligini ko‘rsatadi.

Savol va topshiriqlar

1. “Nutq madaniyati” kursining maqsadi va predmeti haqida gapiring.
2. “Nutq madaniyati” kursini o‘qitish vazifalari nimalardan iborat?
3. “Nutq madaniyati” kursi qaysi asosiy masalalar yuzasidan bahs yuritadi?
4. “Nutq madaniyati” kursi qaysi fanlar bilan qaysi jihatni asosida aloqador? Bu aloqadorlikni bevosita va bilvosita aloqadorlik sifatida ikkiga ajrating.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: “Navro‘z”, 1997.
2. Kaykovus. Qobusnoma. // To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.
3. Mahmudov N. O‘qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlod”, 2010.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.
10. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.

11. Jumaxo'ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: "Sharq", 1998.
12. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.
13. Tojiyev Y., Mallaboyev M. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.
14. Inomxo'jayev S. O'tmish sharq notiqligi. – Toshkent: "Bilim", 1972.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

NUTQ, UNING SHAKLLARI, TURLARI VA USLUBLARI


Reja:

1. Til va nutq. Nutqiy faoliyat.
2. Nutq shakllari.
3. Nutq uslublari.
4. Nutq turlari.

Tayanch tushunchalar: *til, lison, nutq, nutqiy faoliyat, nutq shakli, nutq uslubi, nutq turi.*

Til va nutq. Nutqiy faoliyat. Til muayyan tilda so'zlashuvchilarining nutqiy qobiliyati va imkoniyati bo'lib, u tafakkurni shakllantirishga, bilimlarni xotirada qat'iy sistemaga tizib saqlashga, axborot uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi eng muhim, bevosita va bilvosita muloqot qilish vositasi. Til lison, nutq va me'yordan iborat bo'ladi.

Lison deyilganda ma'lum bir til jamiyatining barcha a'zolari uchun ajdodlar tomonidan tayyor holga keltirib qo'yilgan, ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar uchun umumiy va majburiy, fikrni ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan so'z va qo'shimchalar hamda ularning o'zaro birikish qoidalari. So'z va qo'shimchalar ularning birikish qoidalari shu tilda so'zlashuvchilarining ongida yashaydi.



Lison kishilarning so‘z va qo‘sishimchalar zaxirasi hamda ularning shu tilda so‘zlarni bog‘lab nutq so‘zlash malakasidir. Lison, umuman olganda, kishilarning nutq so‘zlash imkoniyati hisoblanadi.

Nutq – kishilarning ongida mavjud lisoniy imkoniyatlarni og‘zaki yoki yozma shakllarda voqelantirilishi. Masalan, aytgan yoki yozgan gaplarimiz nutq bo‘lib, u lisoniy bilim va malakamiz tufayli sodir bo‘ladi.

Me’yor lisoniy imkoniyatlarni ishga solishimizda jamiyat tomonidan shakllantirilgan qoidalardir. Masalan, jamiyat qoidalari o‘lmoq so‘zi o‘rnida *vafot etmoq*, *ketmoq*, *kuni bitmoq*, *joni uzilmoq* ifodalarini ishlatishni qoidalashitrgan. Yoki biz bir o‘rinda *turq*, boshqa o‘rinda *jamol* so‘zini qo‘llaymiz, ammo ularni noo‘rin ishlatsak, mulzam bo‘lamiz. Me’yor tildan foydalanishimizni tartibga solib turadi.

Nutqiy faoliyat tildan foydalanuvchilarning gapirish, nutq so‘zlash bilan birga, tinglash jarayoni ham. Mashhur amerikalik notiq psixolik Deyl Karnegi “yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” deganda aynan shu qobiliyatning insonda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan edi.

Nutqiy faoliyat kundalik faoliyatimizning tarkibiy qismidir.

Nutq madaniyati kishilarning kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqador. Adabiy tilning o‘zi nutq madaniyatini tashkil eta olmaydi. Adabiy tildan, uning madaniylashgan vositalaridan nutqiy faoliyatda foydalanilgandagina adabiy til nutq madaniyati vositasiga aylanadi. Masalan, hozirgi zamон o‘zbek adabiy tilida ta’lim-tarbiya ishlari olib boriladi, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr etiladi, gazeta va jurnallar chiqariladi. Radio va televide niye eshittirishlarida ushbu til me’yorlariga amal qilinadi. Yozma nutqda o‘zbek tilining imlo qoidalari, gapirganda esa, adabiy talaffuz talablariga rioxva etiladi.

Adabiy nutq, uning yozma va og‘zaki shakli me’yorlari bu tilda so‘zlovchilarning shaxsiy nutqlari va bu nutqlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan umumiy me’yor sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiy nutq madaniyatini egallahda tilga e’tibor, unga chinakam hurmat va muhabbat muhim rol o‘ynaydi. Adabiy nutq me’yorlarini shunchaki qiziqish va u bilan nomigagina shug‘ullanish bilan egallab bo‘lmaydi. Buning uchun shaxsning saviyasi yuksalishi, bilimi o‘sishi ham talab etiladi. Shunga ko‘ra, adabiy nutq madaniyati nutqiy ko‘nikma, nutqiy malaka natijasidir. Nutq madaniyati malakasiga

adabiy til qoidalari, til bo'yicha bilimlar, tajriba orqali erishiladi. Nutq madaniyati malakasi egallangan bilim, o'rganilgan qoidalalar emas, balki kishining ularga o'z nutqiy faoliyatida amal qilishga, qo'llashga erisha olgan ko'nikmasidir. Ko'rindiki, nutq madaniyati aniq nutqiy faoliyat, aniq nutqiy amaldir. Nutq madaniyati va nutqiy faoliyat uzviy bog'liq. Madaniy nutq madaniy nutqiy faoliyat mahsulidir.

Shunday qilib, nutq madaniyatini egallahash madaniy nutq ko'nikmasini hosil qilish demakdir.

Nutq shakllari. Nutq ikki shakldan birida namoyon bo'ladi:

- og'zaki nutq;
- yozma nutq.

Har bir nutq shakli o'ziga xos qoidalarga ega. Masalan, og'zaki nutq talaffuz me'yorlariga ega bo'lsa, bu yozma nutqda imlo qoidalari bilan almashadi. Og'zaki nutqda ohang, talaffuzning to'g'riliqi, aniqligi, ovozning baland/pastligi, samimiyligi/nosamimiyligi katta rol o'ynaydi. Yozma nutqda harf shakllari, savodxonlik, jumlalarning to'g'riliqi va mantiqiyligi kabilar ahamiyatga ega. Shuningdek, og'zaki nutq leksikasi yozma nutq leksikasidan farqlanadi. Masalan, tilimizda *apteka* va *dorixona* so'zлari mavjud. Ikkalasi ham lug'atlarimizda qayd etilgan. Ammo ularning biri og'zaki, ikkinchisi yozma nutqqa xos.

So'zlashuvda yozma nutqdagidek, yozishda og'zaki nutqdagidek ish ko'rish kulgili. Masalan, o'zbek tilidagi *-gach* qo'shimchasi yozma nutqqa xos. *Salim kelgach, men ketdim* tipidagi gaplarni og'zaki nutqda qo'llamaymiz. Lekin ayrim kishilarning bu o'zbek tili tabiatiga xos emas, u sun'iy qo'shimcha deganlarini ham eshitganmiz. Holbuki, she'riyat mulkining sultonи hazrat Navoiy nazmida bu qo'shimcha faol ekanligi ma'lum:

Kuydi yuz shomi ajal, zulfin parishon aylagach,

Umr xurshidi yoqtii, chehra pinhon aylagach.

Yoki:

Ko'zung qonimg'a serob etti o'zni naqdi jon olg'och,

Nachukkim mast bergay mayg'a naqdi royagon aylagach.

kabi.

Demak, so'zlovchining nutq madaniyati deganda nutq sharotiga mos ravishda so'z va iboralarni o'z o'mnida qo'llab, fikrini to'g'ri, ravon, tushunarli ifodalash tushuniladi. Misol qilib keltirilgan *-gach* qo'shimchasi ham kitobiy uslubga xos. So'zlashuvda esa uning

sinonimi bo'lgan -gandan keyin shaklini ishlatish o'tinli: *Salim kelgandan keyin men ketdim* tarzida.

Nutq uslublari. Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til hodisasidan maqsad, sharoit va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyati bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslub va uning turi, til vositasining qo'llanish xususiyati, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammatik birlikning uslubiy imkoniyati o'r ganiladi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan ko'rinishi *adabiy nutq uslubi* deyiladi.

O'zbek adabiy tilida 5 ta asosiy nutq uslubi bor: so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub. Ayrim darslikda so'zlashuv uslubidan boshqa barcha uslub *kitobiy uslub* degan umumiyl nom ostida beriladi.

Barcha uslubda cheklanmagan tarzda ishlatiladigan so'z va qo'shimcha uslubiy betaraf deyiladi: *suv, tog', bola, xat*.

So'zlashuv uslubi. Keng qo'llanadigan uslubdan biri – so'zlashuv uslubi. Bu uslubda, odatda, adabiy til me'yoriga rioya qilinmaydi. So'zlashuv uslubidagi gap asosan dialogik shaklda bo'ladi. Bunda turli uslubiy bo'yoq dor so'z, grammatik vosita qo'llanadi. Shuningdek, tovush tushib qolishi, orttirilishi ham mumkin: *Obbo, hamma ishni do'ndiribsiz-da. Mazza qildik. Ketaqoo!*

So'zlashuv uslubida gapdagi so'z tartibi ancha erkin. Ko'proq sodda, to'liqsiz, undalmali gaplardan foydalilanadi. Jargon, argo, vulgar, varvar so'zlar ham ishlatilaveradi. Ayniqsa, bu nutq madaniyati yuqori bo'lмаган kishilarda ko'proq uchraydi.

Ilmiy uslub. Fan-texnikaning turli sohasiga doir ilmiy asarlar, darslik va qo'llanmalar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma'lumot asosida chiqarilgan ilmiy xulosa (qoida, ta'rif) larga boy bo'lishi bilan boshqa uslubdan farq qiladi: *Yomg'ir – suyuq tomchi holodagi atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo'ladi.*

Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalilanadi, bu uslubda so'z o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'lak, kirish so'z, kirish birikma, shuningdek, qo'shma gaplardan keng foydalilanadi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Davlat idorasi tomonidan chiqariladigan qaror, qonun, nizom, xalqaro hujjat rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Shuningdek, ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog'izi,

taklifnomा, shartnoma, tarjimayи hol, e'lon, tavsifnomа, dalolatnomа, hisobot kабilar ham shu uslubda bitiladi.

Rasmiy-idoroviy uslubdagи hujjat qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli bo'lishi lozim. Bu uslubning asosiy belgisi – jumlalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo'lishi.

Rasmiy-idoraviy uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlataladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Bu uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan foydalaniladi. Gap bo'lagining odatdagи tartibda bo'lismiga rioya qilinadi.

Ommabop (publitsistik) uslub. Tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borishda qo'llanadigan uslub, ya'ni matbuot uslubi ommabop uslub deyiladi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llanadi. Nutq ta'sirchan bo'lishi uchun ifodali so'z va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan keng foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo'laklari joylashuvi odatdagи tartibda bo'ladi, kesim buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so'roq gaplar, yoyiq undalma, takroriy so'z va birikmalar unumli qo'llanadi.

Badiiy uslub. Adabiy asarlar badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsol (obraz) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi.

Badiiy uslubda qahramon nutqini jonli berish oddiy nutq so'zi, sheva, vulgarizmdan ham foydalaniladi:

U davradan chiqdi. Oqsoqollardan Amir polvонni tirsagidan chetga tortdi.

– *Polvonlaring har yerda o'tlab yuribdi, bu nima o'tirish? – dedi.*
– *Menga qara, zo'r-zo'rлarini bir yerga yig'. Sho'rchiliklar kepti.. Tushundingmi? O'zing bosh bo'l. Qurga tartib bilan chiqar. Shoshma, yetti o'chab, bir kes. Sho'rchiliklarning o'ngi-chapiga e'tibor qil. Qaytarib aytaman, faqat sho'rchiliklarga ko'z tikinglar. Binoyimi?*

– *Binoyi, polvon bova, binoyi.*
– *Bir-ikkita dadilrog'i bilan bizning Tilovberdini davra oxiriga asra. Yo'g'on cho'zilib, ingichka uzilganda kunimizga yaraydi. Yana kim bor?*

– *Shu, Bakirboyning Samarqandda o'qiyotgan Jonibek uli kelgan. Yaxshi olishi bor-da. O'tgan yili kelganda Sariosiyoni mot qilib edi.*

— Uning kelganini ko 'pchilik bilmaydi-ya? Ma'qul. Ayt, tom ustiga chiqib, o 'zini yashirib o 'tirsin.

— Hay

(Tog'ay Murod)

Badiiy asar uslubi aralash uslub hisoblanadi. Unda so'zlashuv uslubiga, kitobiy uslubga xos o'rinalar ham uchraydi:

Qorovul hadaha-hadaha keldi. Narvon poyida hayrona-hayrona turdi. Qoshi uzra kaft soyabon eta-eta mo 'ltaydi.

— Chaqirganday bo 'ldingizmi? — dedi. *Qo 'shchi hokimona-hokimona siyosat etdi.*

— Xalq yig 'ilsin! — dedi. — Xalqni yig 'ing!

Qo 'shchi qo 'llari ketida tag 'in qadam oldi.

Mag'ribga boqib qadam oldi. Mashriqqa boqib qadam oldi. Qorovul gapni kulgi-mutoyibaga yo 'ydi.

— Ha, xalq keladi! — dedi. — Tayinlab qo 'yib edim, xalq halizamat kelib qoladi!

— Xalq yig 'ilsin, dedimmi, yig 'ilsin!

Qorovul hayrondan-hayron bo 'ldi. Turib-turib... g 'ashi keldi

(Tog'ay Murod)

Til imkoniyati barcha uslublarga teng moslashgan. Tilda bejiz sinonimlar mavjud emas. Sinonim bo'lgan har bir so'z, ibora, birikma va gap har xil uslub uchun mo'ljallangan. Yuqorida aytganimizdek, til imkoniyatidan foydalanish uchun nafaqat bu so'zlarning tilda borligini, balki ularni qachon, qanday sharoit va vaziyatda qo'llashni ham bilish lozim. *Turqingni sog 'inib jonon deyilmaganligi kabi jamolingni sovunlab yuv ham deyilmaydi, albatta. Ba'zilarning aftingni art, basharasi tanishga o 'xshaydi deganlarini eshitganmiz.* Bu til birliklarining uslubiy xoslanishini bilmaslik yoki unga e'tibor qilmaslikdir.

Nutq turlari. Nutq rasmiy va norasmiy turlarga bo'linadi. Yozma nutqning so'zlashuv, badiiy, publisistik uslublaridagi nutq norasmiy nutq hisoblanadi. Shuning uchun bu uslublarda nutq egasi erkin harakat qiladi. Nutqdan maqsad va uning kimga mo'ljallanganligiga qarab nutq egasi til birliklaridan istaganicha foydalana oladi. Masalan, so'zlashuv nutqida so'zlovchining adabiy yoki sheva unsurlaridan, ilmiy terminlardan foydalanishini, jumlalarning to'liq yoki noto'liq bo'lishini, imo-ishora vositalarini qay tarzda qo'llashini hech kim nazorat qilmaydi va unga baho berib o'tirmaydi. So'zlovchi faqat nutq

sharoiti, nutq vaziyati va hamsuhbatning kimligidan kelib chiqqan holda o‘zini o‘zi nazorat qiladi. Badiiy va publitsistik uslub nutqi haqida ham shunday deyish mumkin.

Rasmiy va ilmiy uslubdagi nutq rasmiy nutq hisoblanadi. Rasmiy nutq o‘rnatilgan qoidalar asosida tashkil etiladi. Ma’ruzalar, dokladlar og‘zaki ko‘rinishda bo‘lganda ham, rasmiy nutq hisoblanadi. Shuning uchun bunday og‘zaki nutq bilan yozma nutq orasida jumlalar qurilishi, so‘zlarining qo‘llanishida farqlar kam seziladi.

Rasmiy doiralarda norasmiy, norasmiy doiralarda rasmiy nutq tinglovchilar uchun noqulay holatni keltirib chiqaradi. Buning yorqin misolini yozuvchi Abdulla Qahhor “Nutq” hikoyasida arning o‘z uyida xotiniga so‘zlagan nutqi misolida yorqin ifodalaydi:

— O‘rtoq rafiqam! Ijozat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali bajarib kelayotganimizga bir yil bo‘lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga... Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Avvalo shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan, o‘z kuchimiz bilan, o‘zaro keng muhokama qilish yo‘li bilan bevosita bartaraf qiladigan bo‘lib qoldik. Ikkinchidan, o‘rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy xo‘jalik jihatdan misli ko‘rilmagan darajada mustahkamladik. Men bu bobda faktlarga murojaat qilib o‘tirmayman, chunki ordenli onangiz o‘zlarining har bir tarixiy kelishlarida bu narsani ayrim ravishda qayd qildilar... (Abdulla Qahhor).

Jamiyatda bunday nojо‘ya nutqlar uchrab turadi. Bu nutq madaniyatiga ega emaslik yoki unga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqadi.

Savol va topshiriqlar

1. Tilning asosiy vazifalarini sanang.
2. Muloqot va nutq qaysi jihatlari bilan bog‘lanadi?
3. Nutqiy faoliyat nima va uning qanday turlari mavjud?
4. Nutqning qanday shakllari bor va ularning asosiy xususiyatlari qaysilar?
5. Nutq uslublari va ularning asosiy belgilari haqida to‘xtaling.
6. Nutqni turlarga ajratib tasniflashning asosiy belgilari qaysilar?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: “Navro‘z”, 1997.
2. Kaykovus. Qobusnoma // To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.
3. Mahmudov N. O‘qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
10. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: “Akademiya”, 2007. – B. 224.
11. Tojiyev Y., Mallaboyev M. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2006.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

NUTQ MADANIYATI, RITORIKA VA VOIZLIK

Reja:

1. *Nutq madaniyati tushunchasi haqida.*
3. *Ritorika.*
4. *Voizlik.*

Tayanch tushunchalar: *nutq madaniyati, ritorika, ritor, voizlik, voiz, va'z.*

Nutq madaniyati tushunchasi. *Nutq madaniyati tushunchasi* ikki ma'noda tushuniladi:

- Kishilarning nutq sharoiti va vaziyatiga mos ravishda tildan foydalanish salohiyati;
- Kishilarning nutq sharoiti va vaziyatiga mos ravishda tildan foydalanishi masalalari bilan shug'ullanuvchi soha.

Biz uchun kishilarning nutq sharoiti va vaziyatiga mos ravishda tildan foydalanish salohiyati ahamiyatlidir, ikkinchi masala bilan tilshunos –mutaxassislar shug'ullanadi.

Nutq madaniyati tushunchasi – *nutq odobi tushunchasi* bilan sinonim. Nutq madaniyati deganda, og'zaki va yozma adabiy til me'yirlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, qo'shimchalarni to'g'ri ishlatish, nutq uslublariga mos so'zlash)ni egallash, shuningdek, muloqotda tilning ifoda vositalaridan o'z maqsadiga mos ravishda foydalanish mahorati tushuniladi.

Nutq madaniyati shaxs nutqidagi ikki holatni qamrab oladi:

- a) shaxs nutqining to'g'riliqi;
- b) nutqiy mahorat.

Nutqning to'g'riliqi ma'lum bir tilda so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan e'tirof etilgan hamda an'ana bo'lib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida yashaydigan til me'yirlariga amal qilishni anglatadi. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy til me'yirlarga amal qilish, balki til imkoniyatlaridan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtayi nazaridan maqbuli va ifodalisini tanlab, o'rinli foydalana olish mahoratidir. Masalan, o'zbek tilida, sheva va lahjalarda *aka* so'zining *oka*, *ako* variantlari, *kelyapti* so'zining *kevotti*, *kelopti*, *kelutti* shakllari bor. Yuksak madaniy nutq sohibi ularning nutq sharoitiga mos variantini tanlab ishlata oladi. Deylik, boshqa sheva vakillari bilan

muloqotda yoki rasmiy vaziyatlarda ularning adabiy til variantini qo'llaydi. Shevadoshlari bilan suhbat jarayonida o'z lahjasiga xosini ishlatadi.

Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan uzviy bog'liq holda taraqqiy etib boradi. Jamiyat a'zolarining bilim va madaniy saviyasi o'sgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, adabiy til qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning o'rni katta.

Og'zaki va yozma nutq madaniyatining o'ziga xos qoidalari va me'yorlari bor. Ayniqsa, yozma nutq madaniyati me'yorlari uzoq asrlardan beri taraqqiy etib kelmoqda. Masalan, XV asrdayoq o'zbek yozma nutqining me'yorlari bo'lgan. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri yozma nutq madaniyati, nutq odobi rivojiga mislsiz hissa qo'shgan. Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiyl va boshqa shoirlarning asarlari tilida Alisher Navoiy an'analari davom ettirilgan. O'tmish ajdodlarimizning og'zaki nutq madaniyati qanday bo'lganligi haqida ma'lumotlar yetib kelmagan. Biroq xalqimiz orasida ming yillar davomida yashab kelayotgan "Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z – bosh qozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir", "Har neni yemak – hayvonning ishi, har neni demak – nodonning ishi" kabi maqol va hikmatlarning yashab kelayotganligi o'tmishda ham og'zaki nutq madaniyatiga katta e'tibor berilganligini ko'rsatadi.

Ritorika. *Ritorika* so'zi yunoncha *rhetorike* ("notiqlik") so'zidan olingan bo'lib, tor ma'noda notiqlik san'atini, keng ma'noda, umuman, badiiy nasr haqidagi fan tushunchasini anglatadi. Ritorika miloddan avvalgi 5-4-asrlarda Yunonistonda yuzaga kelib, miloddan avvalgi 3-2-asrlarda mustaqil fan tusini olgan. Miloddan avvalgi I asrda Rimda keng tarqagan. Notiqlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar *ritor* deb yuritilgan.

Ritorika fan sifatida 5 qismdan iborat bo'lган:

- materialni topish.
- joylashtirish.
- fikrni so'z bilan ifodalash.
- yodlash.
- talaffuz.

Ritorika qadimgi davrda Sitseron, Kvintilian kabilar ijodida ishlab chiqilgan va asoslangan. O'rta asrlar va yangi davrda (Rossiya, M.V.Lomonosov ijodida) nazariy jihatdan rivojlantirilib, o'zining yangi pog'onasiga ko'tarilgan. 19-asrga kelib esa adabiyot nazariyasi fani tarkibiga kirib ketgan. Keyingi davrlarda *ritorika* termini dabdabali, quruq safsatani anglatadigan bo'lib qolgan (riterika haqida keyingi mavzuda batafsил to'xtalamiz).

Voizlik. *Voiz* so'zi arabcha bo'lib, "jamoat oldida nutq so'zlovchi", "voizlik bilan shug'ullanuvchi kishi", "malakali notiq" ma'nosini anglatgan. Voizning maxsus nutqi *va'z* deyilgan. Voizlik jamoat oldida nutq so'zlash, notiqlik san'ati ilmiy-siyosiy ma'ruza, bahs, munozara, targ'ibot va tashviqotning asosiy vositasi sifatida keng ijtimoiy mavqega ega bo'lgan san'atdir.

Voizlar chuqur bilim, yuksak madaniyat va maxsus ijrochilik salohiyati (chiroyli va ta'sirchan ovozi, aniq va ravshan talaffuz, o'z zamonasi uchun yetakchi tillarni mukammal bilish kabi) ga ega bo'lgan.

Qadimda Sharq mamlakatlarida hukmdor shaxsan o'zi jamoat oldiga chiqib, o'z siyosati, xalqaro ahvol va boshqalar haqida nutq so'zlagan. El oldiga chiqish, ayniqsa, juma namozi, hayit, navro'z kunlari va boshqalarda, mamlakatlararo urush boshlangandagi yig'lnlarda voizlik odat tusiga kirgan. 9-asrga kelib, bu muhim ishni xushovoz, ta'sirchan gapiradigan, ishontira oladigan maxsus kishilar – voizlarga topshirganlar. Shunday qilib, voizlik san'ati shakllangan. Keyinchalik uning tarmoqlari vujudga kelgan:

- **dabirlik** (boshqaruv mazmundagi);
- **xatiblik** (diniy, siyosiy mazmundagi);
- **muzakkirlik** (diniy-axloqiy mazmundagi) kabi.

Voizlik tinglovchilarning xususiyatiga qarab yana turlarga bo'lingan:

- **sultoniyot** (yuqori tabaqa uchun);
- **xutubu jihodiya** (jangovar nutqlar);
- **g'aribona maqom** (oddiy xalq uchun) kabi.

Voizlik ijtimoiy va badiiy jihatdan muhimligi tufayli asrlar davomida rivojlana borgan. O'rta asrlarda voizlik san'ati nazariyasi, talqin uslublariga bag'ishlangan ilmiy, uslubiy va majmuaviy asarlar yaratilgan. Voizlik san'atini o'rgatuvchi maxsus soha – ilmi kalom, ilmi balog'a shakllangan.

Musulmon Sharqining yirik olimlari, din arboblari, adiblar ko‘pincha yetuk voizlar bo‘lishgan. Bu borada Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Mavlono Muin Voiz Hiraviy, Bahouddin Valad, Jaloliddin Rumiy, 20-asrda esa mufti Ziyovuddinxon Eshon Boboxon o‘g‘li va boshqalar so‘z qudrati va jonli nutq san’ati bilan mashhur voizlar sifatida bo‘lganlar.

Voizlik san’ati taraqqiyoti hozirgi *notiqlik san’ati* rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. *Nutq madaniyati* tushunchasini tavsiflang. Madaniy nutqning belgilarni sanang.
3. Ritorikaning asosiy mohiyatini bayon qiling, shakllanish va yuksalish davrini xarakterlang.
4. *Ritor, notiq* tushunchalarini izohlang
5. Voizlik, va’z, voiz tushunchalarini tavsiflang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. // 1-qism. – Toshkent: “Navro‘z”, 1997.
3. Kaykovus. Qobusnomma. // To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.
4. Mahmudov N. O‘qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlod”, 2010.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
7. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
8. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.

9. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.

10. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: "Cho'lpon", 2012.

11. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.

12. Inomxo'jayev S. O'tmish sharq notiqligi. – Toshkent: "Bilim", 1972.

ANTIK DAVRDA NOTIQLIK VA NUTQ MADANIYATI

Reja:

1. Notiqlik san'atining shakllanish sabablari.
2. Notiqlik san'atining ilk davri.
3. Notiqlik nazariyasining vujudga kelishi
4. O'rta asrlarda ritorika.

Tayanch tushunchalar: *notiqlik san'ati, notiqlik san'atining ilk davri, notiqlik nazariyası, ritorika, logograflar, notiqlik turlari.*

Notiqlik san'atining shakllanish sabablari. Miloddan oldin qadimgi Yunoniston va Rimda notiqlik san'ati degan alohida bir ilmiy-amal yo'nalish paydo bo'lgan.

Afinada notiqlik san'atining shakllanishi va rivojiga sud-tartibot tizimi turtki bo'lgan. O'sha davr sud majlislarida sudlanuvchi yoki da'vogar o'z fikrlarini ishonarli tarzda asoslab berishi uchun to'g'ri va ravon gapira olishi lozim edi. Biroq har qanday shaxs ham bunday qobiliyat va malakaga ega bo'lavermagan. Shuning uchun fuqarolarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, fikrlarini tartibga solib, yozib bera oladigan zukko, bilimdon va malakali shaxslar zarur bo'lgan. Ehtiyoj yunoncha *logograf* deb ataladigan, tajribali, qonunni yaxshi biladigan dastlabki notiq advokatlarni shakllantirgan. Ular sudda qatnashayotgan ayblanuvchi va da'vogarlarga ko'maklashib, evaziga haq olganlar.

Notiqlik san'atining ilk davri. Logografiya notiqlik san'atining rivojiga olib kelgan. Keyinchalik notiqlik boshqa sohalarga ham kirib borgan. Hukmdor va amaldorlarni, yurt va vatanni madh etuvchi notiqlar, ritorlar yetishib chiqqan. Ritorlar notiqlik masalalari bo'yicha ta'limiy faoliyat ham yuritgan. Notiqlik so'z san'atiga aylanib,

keyinchalik adabiy janr darajasiga ko‘tarilgan. Bunda falsafiy oqimni tashkil etgan sofistlarning xizmati katta bo‘lgan.

Ritorikaning asl vatani Sitsiliya oroli hisoblanadi. Miloddan avvalgi 5-asr o‘rtalarida Sitsiliyada demokratiyaning yo‘lga qo‘yilishi notiqlik taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan. Manbalarda qayd etilishicha, **Gorgiy** ismli sofist taxminan 427-yilda o‘z shahri Leontina uchun harbiy yordam so‘rab maxsus elchi sifatida Afinaga keladi va xalq majlisida so‘zlagan nutqi bilan Afina yoshlarida juda kuchli taassurot qoldiradi. Shundan keyin davlat rahbarlari taklifi bilan Gorgiy Afinaga butunlay ko‘chib keladi va shu yerda ritorika maktabi ochadi. O‘z shogirdlariga so‘z san’ati va boshqa fanlarni o‘rgatish bilan birga voizlik bilan ham shug‘ullanadi. Gorgiy, asosan, mifologik mavzularda tantanali nutq so‘zlagan. Bizgacha uning “Yelena” va “Palimed” sarlavhali ikkita yozma asari yetib kelgan.

Gorgiy notiqning uch jihatiga alohida urg‘u beradi:

- 1) ishontira olish.
- 2) maftun etish.
- 3) ijobiy taassurot qoldirish.

Gorgiy uslubni maftun etishning asosiy vositasi hisoblaydi. O‘z asarlarida uning yorqin namunalarini qo‘llaydi. Gorgiy asarları tantanali epitet (jonlantirish), metafora (o‘xshatish) va majoziy ifodalarga juda ham boy. Uning nutq uslubi “jimjimador uslub” deb nom chiqargan.

Qadimgi Yunonistonning mashhur logograflaridan yana biri miloddan avvalgi taxminan 459-380-yillarda yashab ijod etgan **Litsiy** sanaladi. Litsiy logograf sifatida ehtiyojmandlarning ichki dunyosini o‘rgangan. U shaxsning xususiyati – kimligi, dunyoqarashi, psixologiyasi va maqsadidan kelib chiqqan holda ularga mos nutq tayyorlagan. Litsiy bitgan nutq shuning uchun kuchli asar maqomiga ega bo‘lib, ishtirokchilarni larzaga solgan. Uning yaratgan nutqlari sotsial-psixologik xoslanganligi bilan boshqa logograflarnikidan ajralib turgan.

Yunonlarda sud notiqligi ta’sirida harbiy, siyosiy notiqlik yo‘nalishlari ham vujudga kelgan. Keyinchalik notiqlik ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan, umuman so‘z san’atiga aylanib, badiiy adabiyotning tragediya, komediya kabi janrlari shakllanishiga, notiqlik nazariyasi – ritorikaning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Notiqlik nazariyasining vujudga kelishi. Notiqlik – ritorikaning keyingi taraqqiyotida falsafa, mantiq, she’riyat, notiqlik san’ati va nazariyasiga bag‘ishlangan asarlari bilan dong taratgan Aristotelning xizmatlari juda katta. Ma’lumki, Aristotel yashagan davrda (mil.avv.384-322-y.) Afinada chirolyi so‘zlash madaniyati qaror topgan. Falsafiy-pedagogik maktablar qatorida notiqlik maktablari ham vujudga kelgan. Notiqlik bo‘yicha nazariy va amaliy manbalar yaratilgan. Shunday qo‘llanmalardan biri Aristotelning “Ritorika” asaridir. Olim uni miloddan avvalgi 330-yillarda – Afinaga so‘nggi safarida yozgan.

“Ritorika” uch kitobdan iborat:

- chirolyi so‘zlash san’ati to‘g‘risida;
- ishontirish uslublari haqida;
- nutq mantiqiga doir.

Olimning fikricha, notiq tilidagi turli qorishmalar, ya’ni so‘zlarning noto‘g‘ri va noo‘rin talaffuz qilinishi, jumlalarning mantiqan har xil tuzilishi – so‘zlovchining katta xatosi. U har bir aytilgan noto‘g‘ri gap insonning boshiga yetishi mumkinligini alohida qayd etadi.

Aristotel notiqlik san’atini quyidagi unsurlarini ajratadi:

- 1) qiziqarli matn;
- 2) qulay reja;
- 3) yodlash.
- 4) ifoda.

Bu tizim bugungi kunda ham qimmatini aslo yo‘qotmagan.

Qadimgi Yunonistonda Rimga yaqin Arpina shahrida Sitseron (mil.av.103-43) notiqligi va ritorligi bilan mashhur bo‘lgan. Oilasi Rimga ko‘chib kelgach, Sitseron notiqlik va falsafadan tahlil oladi. Sitseron uzoq tayyorgarlikdan so‘ng 25 yoshida ilk marta – dastlab fuqarolik, so‘ng jinoiy ish jarayoni bo‘yicha nutq so‘zlaydi. Biroq bu nutqi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi – davlat amaldorlari unga qarshi chiqishadi. U ritorika va falsafa bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirishga kirishadi. Kichik Osiyo shaharlarini kezib, tajriba o‘rganadi. Natijada Qaysar (Sezar) hukmronligi davrida mashhur notiq va davlat siyosatchisi sifatida ulug‘ maqomlarga ko‘tariladi. Tajribalari asosida “Brut” hamda “Notiq” sarlavhali asarlarini yaratadi. Uning “kimki jo‘n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o‘rtta darajada, ulug‘ hodisalar haqida esa zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam so‘z

san'atining chinakam ustasi bo'ladi" degan hikmatlari hozir ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Sitseron Qaysar vafotidan so'ng hokimiyatga chiqqan Oktavianga bo'ysunmaydi. Hukmdor so'z san'atining mohir ustasini shafqatsiz jazoga hukm etadi.

O'limidan so'ng Sitseron ta'limoti uyg'onish davri yevropasini zabit etdi. Insonparvar olimlar uning qarashlarini chuqur va atroficha tadqiq etdilar.

O'rta asrlarda ritorika. Rimda keyinchalik ma'lum vaqt davomida notiqlik san'ati o'sishdan to'xtadi. O'rta asrlarga kelib esa uning diniy va sxolastik jihatlari kuchayib ketdi. O'rta asrlarning ikkinchi yarmidan boshlab yangi – "universitet notiqligi" deb nom olgan yo'nalishi rivojlana boshladи.

XVI asrda burjuaziya shakllanishi bilan notiqlik gumanizm g'oyalari bilan omixtalashib ketdi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Notiqlik san'atining vujudga kelishidagi tarixiy sharoit va muhit haqida gapiring.
2. Notiqlik san'atining vujudga kelishiga obyektiv sabablar nimalardan iborat edi?
3. Notiqlik san'atining ilk davri xususiyatlari qanday va ularning vakillari kimlar edi? Ularning merosi haqida so'zlang.
4. Notiqlik nazariyasining vujudga kelishiga nimalar sabab bo'ldi va bu ta'limot nimalar bilan shug'ullandi?
5. O'rta asrlarda ritorikaning ahvoli qay darajada edi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. // 1-qism. – Toshkent: "Navro'z", 1997.
2. Kaykovus. Qobusnoma. // To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi", 2006.
3. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

4. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: "Yangi asr avlod", 2010.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2009.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "O‘qituvchi", 1992.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

7. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
8. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.
9. Tojiyev Y., Mallaboyev M.. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.
11. Inomxo‘jayev S. O‘tmish sharq notiqligi. – Toshkent: "Bilim", 1972.
12. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

SHARQ NOTIQLIGI TARIXI. MARKAZIY OSIYODA NOTIQLIK VA NUTQ MADANIYATI

Reja:

1. Sharqda tilning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlar.
2. Sharq nutq odobi haqida.
3. Turkiy mutafakkirlar so‘z va nutq madaniyati haqida.

Tayanch tushunchalar: *notiq, nutq, voiz, va ’z, ma ’viza, ilhom nazariyasi, izhor nazariyasi, taqlid nazariyasi, ijtimoiy kelishuv nazariyasi, Kaykovus, Ibn Sino, Farobi, Koshg‘ariy, Alisher Navoiy.*

Sharqda, jumladan, Markaziy Osiyoda yashab ijod qilgan shoir va olimlar ham til va nutq, notiqlik, voizlik bo‘yicha o‘z qarashlarini ilgari surishgan, ko‘plari “Qur’on”ni targ‘ib qilish bilan bog‘liq ravishda

so‘zning kishilik jamiyatidagi o‘rni, ma’nosi, undan o‘rinli va samarali foydalanish to‘g‘risida qimmatli fikrlarni bildirishgan.

Sharqda tilning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlar. Musulmon filologlari VIII asrda so‘zlarning tashqi tovush tomoni bilan mazmuni o‘rtasidagi o‘xshashlikni keng muhokama qilishgan. Ibn Jinniying guvohlik berishicha, bu bilan dastlab Xalil ibn Ahmad shug‘ullangan. Shu an’ana ta’sirida A’bad ibn Sulaymonning fikrlari rivojlandi. Bu nazariya bo‘yicha til – insonning tabiiy tovushlarga bo‘lgan moyilligi, ularga taqlid qilishi natijasida yuzaga kelgan. Bu “tabiiy (tabiat) nazariya” islom ruknlariga ancha erkin munosabatda bo‘lgan mazhab va yo‘nalish vakillari (jumladan, namoyandalari Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg‘oniy kabi olimlar bo‘lgan mutazalliyalar) tomonidan ilgari surilgan va rasmiy islomiy – izhor (ilohiy ne’mat) nazariyasiga zid edi.

Izhor nazariyasi. Bu nazariyaning asoschisi Al-Ashafiy deya e’tirof etiladi. Biroq bu ta’limot undan-da ilgari Abu Ali al-Jubba’ ishlaridayoq ilgari surilgan edi. Izhor nazariyasinining asosini qur’oniyligi – tilni Alloh Odamga tayyor holda in’om etganligi, izhor etganligi tashkil qiladi. IX asrda rasmiy islomiy ilohiyotda – Kalomda izhor nazariyasi qabul qilinib, mutazalliyalar yon bosgan ijtimoiy kelishuv nazariyasi shakkoklik sifatida qoralandi.

Ilhom nazariyasi. Bu ta’limotga ko‘ra, birinchidan, insoniyatning birinchi umumiyy tili – arab tili bo‘lgan va u Ollohu tomonidan yaratilgan. Ollohu bu tilning butun boyligini Odam Atoga birdaniga bermagan – Tangri izhorlarining mahsuli bo‘lgan arab tili asoslari bilan oz miqdordagi leksika Odamga berilgan. Keyinroq esa zarurat asosida barcha qabilalarga qo‘srimcha ravishda berib borilgan va boyitilib-boyitilib, faqatgina Muhammad alayhissalomga tilning butun boyligi ma’lum qilingan.

Bu islomiy nazariyalarning barchasida tilning rivojlanish manbai ikkita – Alloh va odam, jamiyat ehtiyojlari. Alloh tilni, uning ichki qonuniyatlarini belgilagan va Odamga bergen.

Ijtimoiy kelishuv nazariyasi. Ayrim qarashlarga ko‘ra, Odam farzandlari hayot va jamiyat ehtiyojlari asosida tilni Alloh belgilagan qonuniyatlar (yangi so‘zlar yasash, boshqa tillardan so‘z qabul qilish, so‘z va qo‘srimchalarni boshqa – ko‘chma ma’nolarda qo’llash, ijtimoiy kelishuv, shoir, voiz va adiblar nutqining ta’siri kabilalar)

asosida boyitib, o‘z ehtiyojlariga moslashtirganlar. Jumladan, Al-Harasiy ijtimoiy kelishuv nazariyasi borasida ta’kidlashicha, jamiyatda til predmet va tushunchalarga ishora qilish, shuningdek, fikrni bir-biriga ma’lum qilish uchun kerak bo‘lgan. Dastlab til faqat undoshdan iborat edi, biroq keyinroq odamlar ikki, uch, to‘rt, besh undosh va unlilardan iborat bo‘g‘in va affikslar hosil qilganlar va nihoyat til yaratilgan.

2. Sharq nutq odobi haqida. Sharqda so‘zga munosabat, nutq odobi shaxs va jamiyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan. So‘z madhi shoirlarimiz ijodida katta o‘rin tutadi. Shoirlar asarlarining ayrim boblari to‘lig‘icha so‘z madhiga bag‘ishlangan. Vatandoshlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobi, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamashshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ siymolar til va nutq odobi masalalariga alohida mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishdi, lug‘at va lug‘atchilik, grammatika va matiqqa oid ko‘plab nazariy va amaliy asarlar yaratdilar.

Kaykovus tomonidan 1082-1083-yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq amaliy tafakkurining go‘zal narmunasi bo‘lgan “Qobusnoma”da nutq odobi va madaniyati haqida ham ajoyib mulohazalar bor.

Asar 44 bobdan tashkil topgan, 6-7-boblari so‘z va nutq odobiga oid. O‘rinli so‘zlash, behuda gapirmaslik, o‘ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko‘z oldiga keltirib gapiresh zarurligini, mahmadonalik va ko‘p gapiresh kishining obro‘sini tushirishini ta’kidlaydi: “Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo‘lsang ham, o‘zingni bilganlardan pastroq tutgil... Ko‘p bil-u, oz so‘zla, kam bilsang, ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi. Deganlarki, jum o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi aqli odam bo‘lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi...”

3. Turkiy mutafakkirlar so‘z va nutq madaniyati haqida. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) mutazalliyalar oqimiga mansub bo‘lib, tilning paydo bo‘lishiga doir o‘z qarashlarini bayon etish bilan birga, grammatika, aruz va mantiq fanlari madaniy taraqqiyot va ijtimoiy ehtiyojning mahsuli ekanligini ta’kidlaydi.

Abu Nasr Farobi to‘g‘ri so‘zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, chiroqli va sermazmun nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiq bo‘yicha bilimlarning naqadar ahamiyati katta ekanligini ta’kidlaydi: “..ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash,

bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...”

Ulug' shoir Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” (XII asr) asarida so'zdan to'g'ri foydalanish haqida shunday yozadi: “Bilib so'zla, so'z bilig sanalur. So'zni ko'p so'zlama, kamroq so'zla. Tuman (ming) tugunini shu bir so'z bilan yech. Gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to'g'ri, ta'sirchan, yetkazishdan iborat”.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII) so'z mas'uliyatini ulug'laydi: “O'quv so'zla, so'zni eva so'zlama, So'zning kizla, kedin, boshing kizlama (Mazmuni: *So'zni o'qib so'zla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas so'zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma*). ”

Alisher Navoiy so'z qo'llash haqida ham nazariy, ham amaliy faoliyat ko'rsatgan, davlat arbobi sifatida qilgan chiqishlari, til haqida aytgan fikrlari buning dalili. O'zi ham namuna ko'rsatib, turkiy tilda ham badiiy barkamol asarlar yaratish mumkinligini isbot qila oldi. Shoir “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida har bir tilning ijobiy va salbiy tomonlari borligini eslatib o'tdi. Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Nazm ul-javohir” asarlari nutqning go'zal namunalari bo'lish bilan birga, o'zbek tilining yuksalishiga ham munosib hissa bo'ldi.

Ibn Sino nutq odobiga alohida e'tibor beradi va notiq quydagilarga amal qilishi zarurligini ta'kidlaydi:

- nasihat yumshoq ohangda bo'lishi kerak;
- suhbatdoshning ilmiy salohiyati inobatga olinishi kerak;
- nasihat suhbat tarzida bo'lmosg'i lozim;
- nasihatni yolg'iz olib borish kerak.
- ta'na boshqalarning kamchiligi bilan qiyoslangan holda qilinishi kerak.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig”ning “Tilning fazilatlari, foyda va zararlari haqida” nomli bobida quydagilarni bayon etadi:

- zakovat va bilimlarning ochqichi til, odamni ezgullikka boshlovchi til, ravon tilni o'rgan;
- odamni til ulug'laydi, uni baxtiyor qiladi, shuningdek, til odamni beqadr ham qiladi, uning boshiga kulfat keltiradi;

- til qafasda yotuvchi arslonga o‘xshaydi, u boshingga yetishi ham mumkin;
- so‘zlaringga ehtiyyot bo‘l, boshing ketmasin, tilingni tiyib tut, u tufayli tishing sinmasin;
- odam so‘z tufayli ulug‘likka erishadi, podsho bo‘ladi, ko‘p va ortiqcha so‘z esa yuzni yerga qaratadi;
- odam ikki narsa tufayli qarimaydi: biri yaxshi fe’li, ikkinchisi esa ezgu so‘zi.

Ahmad Yugnakiyning nutq odobi haqida fikrlari ham e’tiborlidir:

- o‘ylab so‘zlagan kishining so‘zi to‘g‘ri, o‘rinsiz ko‘p vaysagan til o‘zingga shafqatsiz dushmandir;
- ko‘p so‘zlaganlar orasida o‘kinganlar ko‘p, tilini tiyganlar orasida o‘kingan bormi?
- kishi boshiga tushgan har qanday ish uning tili tufayli;
- bir kishida ikki narsa bo‘lsa, u kishiga muruvvat yo‘li yopiladi. Birinchidan, behuda so‘zlar bilan vaysasa, ikkinchidan, bu kishining so‘zlarini yolg‘on bo‘lsa;
- yolg‘on so‘z kasallik kabitdir, chin so‘z shifodir.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o‘z nutqiga, o‘z yozganlariga talabchan bo‘lish bilan birga, o‘zgalarning nutqiga ham e’tiborli bo‘lgan. Uning fikricha, nutq go‘zal, aniq, sodda, o‘qilishi ravon bo‘lishi kerak. So‘zning qudrati har qanday kuchli narsadan a’lo. “So‘z gavhari vasfidakim, *gavhar* so‘zi aning qoshida gavhar oldidagi bir qatra suvdek bo‘la olg‘ay” (“Xamsa”). Navoiy nutqning qudratini shunday baholaydi: “Durridurkim, aning daryosi ko‘nguldur va ko‘ngul mazxoredurkim, jami maoniyi juzb kuldur. Andoqkim, daryodin gavhar g‘avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javhariga ko‘ra zohir bo‘lur.” Mutafakkir “so‘z shunday gavharki, martabasini aniqlashdan nutq egalari ojiz: martabasi yomon so‘zning halok qiluvchiligidan tortib, yaxshi so‘z bilan insonning mo‘jiza ko‘rsatishigacha boradi”, deb so‘z, ya’ni til qudratiga yuksak baho beradi.

Navoiy yaxshi so‘z (nutq) odam joniga oziq beradi, tanani rohatlantiradi, yomon so‘z (nutq)dan tirik tanga ozor yetadi, kishining kayfiyati va ruhiyatini buzadi, deydi.

Alisher Navoiy badiiy so‘z (nutq) haqida ham qimmatli fikrlar aytadi. Tili jonsiz, shirasiz, g‘aliz bo‘lgan har qanday badiiy asar asar

emas. Badiiy asarda so‘z va ibora haroratlari bo‘lmasa, nur bermaydigan shamga o‘xshab qoladi.

Alisher Navoiy nutqdagi ortiqchalik tinglovchini, eshituvchini zeriktirishi, biron kishi yoki ko‘pchilikka mulohazani bayon etish uchun ko‘p yozish yoki ortiqcha so‘zlash xatolik ekanligi haqida shunday yozadi: “Tilingni ixtiyoringga asra, so‘zingni ehtiyyot bila degil... Tiling bilan ko‘nglingni bir tut. So‘zni ko‘ngilda pishirmaguncha tilga keltirma, harnakim ko‘nglingda bo‘lsa, tilga surma. Agar tilni asramoq ko‘ngilga mehnat bo‘lsa, so‘zni o‘ylamasdan gapirmoq boshqa ofatdir” (Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”).

Alisher Navoiy o‘z davrida yetuk tilshunos, zabardast shoir, yuksak faylasuf bo‘lish bilan birga, kuchli notiq ham edi. U o‘zining bu fazilatini “Mahbub ul-qulub”, “Mezon ul-avzon”, “Xamsa” asarlari bilan isbotladi va avlodlarga o‘rnak bo‘larli notiqlik san’ati namunasini ko‘rsatdi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Sharqda tilning paydo bo‘lishi haqida qanday nazariyalar mavjud edi?
2. Sharq mutafakkirlari nutq odobi haqida qanday fikrlarni bayon etishgan? Ularning madaniy merosi haqida so‘zlang.
3. Turkiy mutafakkirlarning so‘z va nutq madaniyati haqida qanday qarashlari bor edi?
4. Zamonomiz so‘z san’atkorlarining nutq madaniyati haqidagi qanday fikrlarini bilasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: “Navro‘z”, 1997.
2. Kaykovus. Qobusnoma. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.
3. Mahmudov N. O‘qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010.

5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009.

6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.

9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2003.

10. A'lamova M. Nutqda aks etar bir olam boylik. – Toshkent: "O'qituvchi", 1989.

11. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.

12. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.

13. Tojiyev Y., Mallaboyev M.. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.

14. Inomxo'jayev S. O'tmish sharq notiqligi. – Toshkent: "Bilim", 1972.

15. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net

2. www.thinsan.com

3. www.uforum.uz

4. www.literature.uz

MADANIY NUTQ ME'YORLARI VA QOIDALARI

Reja:

1. Adabiy me'yor – madaniy nutq asosi.

2. Noadabiy nutq me'yorlari.

3. O'zbek adabiy nutqi me'yorlari.

Tayanch tushunchalar: *me 'yor, adabiy me 'yor, noadabiy me 'yor, yozma nutq me 'yori, og'zaki nutq me 'yori, rasmiy me 'yorlar, norasmiy me 'yorlar, til me 'yori, mutq me 'yori.*

Adabiy me'yor – madaniy nutq asosi. Nutq madaniyati haqida gap ketganda, qaysi so'z va qo'shimchalarni qo'llash to'g'ri yoki noto'g'riliqi, nutqimizda uchraydigan xatoliklar haqida so'z boradi. Bu holat ma'lum bir mezonlar asosida baholanadi. Bu o'Ichov *adabiy nutq me 'yorlaridir*.

Me'yor haqida olimlar ko'plab fikrlarni bayon etganlar. Masalan, S.I.Ojegov fikricha, "... me'yor – bu ijtimoiy taraqqiyot davomida shakllangan til birliklarining maqbulini tanlash natijasida vujudga kelgan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali (to'g'ri, ma'qul) til vositalari yig'indisidir." B.N.Golovin esa "me'yor – tilning xalq tomonidan o'zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli yaratilgan amaliy jihat. Bu zarurat tilning yagona shakliga erishish yo'lida odamlarga biron variantni ma'qul ko'rish, boshqasidan voz kechish istagini tug'diradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo'lidagi nntilishi bilan birgalikda til me'yori milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko'tarilib, mustahkamlanib boradi" deb yozadi.

Ko'rindiki, adabiy nutq me'yori nutqda til unsurlarining ko'pchilikka ma'qul bo'lgan va jamoatchilik tomonidan qabul qilingan variantidir. *Adabiy me'yor* kategoriysi til qurilishi, umuman, til taraqqiyoti bilan bog'liq, tilda nisbiy turg'unlik kasb etib, yashovchanlikka ega bo'ldi. Davr o'tishi bilan ijtimoiy taraqqiyot va madaniy saviya, milliy dunyoqarash o'sishi natijasida me'yor ham o'zgarib boradi. Masalan, o'tgan asrning birinchi choragida *muxtoriyat, jumhuriyat, baynalmilal, yo'qsil, firqa, kashshof* kabi so'zlarni ishlatish me'yoriy bo'lib, rus tilining ta'siri natijasida ular iste'moldan chiqib, o'rniga *avtonomiya, respublika, internatsional, proletar, partiya, pioner* kabi ruscha-baynalmilal so'zlar qo'llanadigan bo'ldi va me'yor tusini oldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ularning ayrimlari qo'llanishida o'zgarishlar bo'ldi. *Proletar, kashshof* so'zları eskirdi. *Internatsional* so'zi o'rnida yana *baynalmilal* so'zi qo'llanadigan bo'ldi. Ilgari *domla* so'zi inqilobdan oldin diniy maktab (madrasa)larda mudarrislik qiluvchi kishilarga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik esa bu so'z butunlay boshqa ma'noda – oliv maktablarning o'qituvchilariga, ustoz shoir, yozuvchilarga nisbatan ishlatiladigan

bo'ldi. Mustaqillik yillarda masjidlarda faoliyat ko'rsatuvchi, diniy vazifadagi kishilarga nisbatan *domla* so'zi qo'llanishi odat tusiga kirdi. Oliy maktab o'qituvchilariga nisbatan murojaat uchun *ustoz* so'zining qo'llanishi ham faollashdi.

Mustaqillikning ilk yillarda *jumhuriyat*, *nohiya*, *viloyat*, *shohbekat*, *jarida*, *ro'znama* so'zlarini ishlatalishga ruju qo'yildi. Bu, albatta, til me'yorini belgilashga daxldor bo'lgan ayrim ziyolilarning faoliyatida ko'zga tashlandi. Biroq jamiyat bu so'zлarni qabul qilmadi. Bu til me'yorini belgilash ayrim kishilarning xohish-irodasiga bog'liq emasligini ko'rsatadi. "Me'yorni o'rganishda shu narsani esda tutish kerakki, tilning taraqqiyot qonunlari obyektiv bo'lib, ular ayrim kishilarning irodasiga bog'liq bo'lмаган holda amal qiladi."

Noadabiy nutq me'yorlari. Tilning nafaqat adabiy shakli, balki noadabiy shakllari ham ma'lum bir me'yorga ega. Me'yor hodisasi tilning barcha shakllari uchun xos.

Umumxalq tili ma'lum bir xalqning so'zlashuv tili bo'lib, uzoq vaqt davomida shakllanadi. Bir tilga mansub barcha sheva va lahja umumxalq tilini tashkil qiladi. O'zbek umumxalq tili uch lahjadan tashkil topgan.

Umumxalq tili milliy til ham deyiladi. Adabiy til esa umumxalq tilining olim va adiblar tomonidan qayta ishlangan, me'yorga solingan, shu tilda so'zlashuvchilarining hammasi uchun umumiyoq bo'lgan, yuqori darajada sayqallangan shakli. Davlat muassasasi, matbuot, radio, televide niye va ta'lim, madaniyat va ilmda adabiy tildan foydalaniladi. Adabiy til umumxalq tilidan tashqarida bo'lmaydi.

Adabiy tili bo'lishi uchun umumxalq tili:

- yozuv bilan ta'minlangan bo'lishi;
- qonun-qoidasi aniqlangan bo'lishi;
- mutaxassislar tomonidan qayta ishlangan bo'lishi lozim.

Dunyodagi ko'pgina tilning hozir ham adabiy shakli yo'q.

Adabiy tilning og'zaki va yozma ko'rinishi mavjud. Og'zaki shakli so'z, tovush, gap, ohang, pauza (to'xtam) bilan, yozma shakli esa harf, yozuv, tinish belgisi bilan ish ko'radi. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakli o'z me'yoriga ega. Uning og'zaki shakli kishi uchun bevosita, yozma adabiy til esa bilvosita aloqa vositasi. Chunki yozuvda qog'oz, ruchka, yorug'lik bo'lishi kerak. Og'zaki muloqotda bu shart emas.

Adabiy til lahja va sheva negizida umumlashtirish, qat'iy me'yorni ishlab chiqish yo'li bilan hosil qilinadi va undan oziqlangan holda

muttasil rivojlanib boradi. Shuning uchun adabiy til xalq shevasidan uzilmagan. Adabiy til uchun sheva boyishning ichki manbasi hisoblanadi. Boshqa tildan so‘z olib rivojlanish tashqi manbadir.

Faqat muayyan hududga xos til shakli sheva, bir-biriga yaqin bo‘lgan sheva yig‘indisi *lahja* deb yuritiladi. *Dialekt* so‘zi gohida sheva, gohida *lahja* atamasi o‘rnida keladi: *Toshkent dialekti (shevasi), qipchoq dialekti (lahjası)* kabi.

Adabiy til shevadan, shuningdek, bir lahja ikkinchi lahjadan, bir sheva boshqa shevadan fonetik, leksik va grammatik jihatdan ozmi-ko‘pmi farq qiladi.

Fonetik farq deganda, tovush jihatidan (*pabrika – fabrika, man – men, jila – yig‘la* kabi), leksik farq deganda so‘z jihatidan (*kalapo ‘sh – do ‘ppi, go ‘sala – buzoq* kabi), grammatik farq deganda, so‘z shakli yoki qo‘sishimchadagi (*borayapti – borvotti – borutti* kabi) farqlanish tushuniladi.

Shevaning faqat og‘zaki shakli mavjud.

O‘zbek umumxalq tili tarkibida uchta lahja bor:

- 1) qarluq lahjası (janubiy-sharqiy guruh);
- 2) qipchoq lahjası (janubiy-g‘arbiy guruh);
- 3) o‘g‘iz lahjası (shimoliy-g‘arbiy guruh).

Qarluq lahjası, asosan, shahar shevasini o‘z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro). Bu lahja shevasining muhim fonetik va grammatik belgisi quyidagilar:

– so‘z oxiridagi *k* tovushi y tarzida aytiladi: *elak – yelay, terak – teray* kabi;

– o lashish yuz beradi: *aka – oka, Akram – Akrom, bahor – bohor, boramiz – borovuz*;

– qaratqich kelishigi yo‘q va uning o‘rnida ham tushum kelishigi qo‘sishimchasi *ni* ishlataladi: *ukamni(ng) daftari*.

Qipchoq lahjası shevasi O‘zbekistonning barcha viloyatida mavjud, asosan, qishloqda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston, Shimoliy Xorazm viloyati, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevasi). Belgisi:

– y o‘rnida *j* ishlataladi: *yo‘l – jo‘l, yo‘q – jo‘q*;

– g‘ o‘rnida v ishlataladi: *tog‘ – tov, sog‘ – sov*;

– k, q tushiriladi: *tiri(k), sari(q), quru(q)*.

O‘g‘iz lahjasi janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo‘shko‘pir, Shovot tumani) bir qancha shevani o‘z ichiga oladi. Belgisi:

- unli qisqa va cho‘ziq aytildi: *at* (hayvon), *aad* (ism);
- *t* tovushi *d*, *k* tovushi *esa* *g* tarzida aytildi: *tog‘* – dog’, *keldi* – *galdi*;
- *ning* qo‘shimchasi *-ing* tarzida, *-ga* qo‘shimchasi esa *-a*, *-na* tarzida aytildi: *akamning* – *akaming*, *yorimga* – *yorima*, *qo‘liga* – *alina*.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiramidan Farg‘ona-Toshkent shevasi (ya’ni Toshkent shevasi fonetik tomondan, Farg‘ona shevasi morfologik tomondan) asos qilib olingan. Lekin bu qipchoq va o‘g‘uz lahjasi xususiyati adabiy tilda yo‘q degani emas.

Umumxalq tilining faqat bir ko‘rinishi adabiy nutq bo‘lib, bundan tashqari, sheva va lahjalarni, kasb-hunar nutqi hamda jargon va argolarni ham o‘z ichiga oladi. Ularning ham o‘z me’yorlari bo‘lib, adabiy nutq me’yorlarini noadabiy nutqqa, noadabiy nutq me’yorlarini adabiy nutqqa olib kirishga urinish to‘g‘ri emas va nome’yoriy sanaladi. Shuningdek, bir lahja yoki sheva nutqiga boshqa lahja va sheva unsurlarini qo‘shib so‘zlash ham nutq me’yoriga zid. Masalan, adabiy nutqdagi *do‘ppi* so‘zi Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryoda *qalpoq*, Xorazmda *takya*, Buxoroda *kalapo‘sh*, Farg‘ona va Toshkentda *do‘ppi* muqobillariga ega. Demak, Surxondaryo shevasida *takya*, Buxoro shevasida *qalpoq* so‘zini qo‘llash bu shevalarning nutq me’yoriga zid. Madaniy nutq sohibi bir shevaga xos so‘zlarini boshqa sheva so‘zlariga aralashtirib qo‘llamaydi. Yuksak madaniyat sohibi esa hurmat yuzasidan norasmiy doiralarda adabiy nutqda yoki hamsuhbatining shevasida gapiradi. Bugungi kunda adabiy nutqning qo‘llanishi kengayib borishi natijasida shevada gapirganda adabiy nutq unsurlarini qo‘llash madaniyatsizlik sanalmaydi. Zero, ta‘lim, OAVlarning jamiyat hayotiga kirib borish sur’atining ortishi bunday jarayonlarni kuchaytirmoqda.

Jargon, argolarning ham o‘z qo‘llanish me’yori bor. Masalan, *yakan* (pul), *xanjar* (qorin), *xit* (och), *hasut* (qon), *dah* (yaxshi) so‘zlarini faqat o‘tgan asr otarchilari, *harif* (o‘g‘rilik obyekti), *ligavi* (militcioner) so‘zlarini o‘g‘rililar tushungan. Ular tor ijtimoiy guruhlarning nutqiy me’yori hisoblangan. Bu nutq ko‘rinishlariga xos

me'yorning yana bir xususiyati ularning hamma bilan muloqotda ham birday qo'llanavermasligi.

Ta'lim-tarbiya adabiy nutq me'yорини оммалаштириш ва singdirish bilan shug'ullanadi. Adabiy nutq me'yорларини ishlab chiqish va ularga rioya qilish davlat siyosatining tarkibiy qismiga kiradi. Chunki ko'p lajhali va shevali xalqlarda adabiy nutq milliy yaxlitlikni ta'minlash vositasi sanaladi. Milliy yaxlitlik esa taraqqiyot garovi, mamlakat rivojiga xizmat qiladi. Adabiy nutq me'yori tilning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, fan tomonidan ishlab chiqiladi. Bunda tilning tabiiy rivojlanish tamoyillari asos qilib olinadi. Me'yorda sun'iylik bo'lsa, u jamiyat tomonidan amal qilinmaydigan jonsiz qoida sifatida ishlanay qolaveradi.

Adabiy nutq me'yорларига qat'iy rioya qilish qo'llanishning rasmiy holatlari xos. Masalan, ish yuritish, OAV, noshirlik, ta'lim, rasmiy yig'ilish, majlis va anjuman va h.k.lar adabiy nutq qo'llanishi shart bo'lgan rasmiy vaziyatlarda tashkil etiladi. Norasmiy holatlarda nutqning noadabiy yoki adabiy shakliga rioya qilish erkin bo'lib, ular so'zlovchilarining xohish-istagi, madaniy saviyasi va dunyoqarashiga bog'liq bo'ladi.

Mutaxassislar tilning me'yорларини quyidagicha tasniflashadi:

- a) umumiy me'yor;
- b) xususiy me'yor.

Umumiy me'yor, masalan, o'zbek tilining barcha ko'rinishlari uchun xos bo'lsa, xususiy me'yor tilning har bir shakli (og'zaki va yozma, adabiy va shevaga oid, kasbiy va sohaviy) uchun daxldor bo'ladi. Ularni umumlashtirgan holda nutq me'yорining quyidagi turlarini ajratish ma'qul:

- adabiy nutq me'yori;
- a) yozma adabiy nutq me'yori;
- b) og'zaki adabiy nutq me'yori;
- 1) shevaviy nutq me'yori;
- 2) tor ijtimoiy guruhlar nutq me'yori.

Adabiy nutqning qat'iy belgilab qo'yilgan me'yori – imloviy me'yor. Bu me'yor tilning imlo qoidalari bilan belgilanadi. O'zbek lotin alifbosidagi imlo qoidalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi. Imlo qoidalari asosida imlo lug'atlari chop etiladi.

Adabiy nutqning ikkinchi muhim me'yori – tinish belgilarini qo'llash qoidalari.

Adabiy nutqning og'zaki shakli talaffuz qoidalari asosida belgilangan. Talaffuz qoidalari asosida talaffuz lug'atlari yaratiladi.

Umuman olganda, tilning, xususan, o'zbek adabiy nutqi me'yorlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- fonetik me'yor;
- talaffuz me'yor;
- leksik-frazeologik me'yor;
- grammatic me'yor:
 - a) morfologik me'yor;
 - b) sintaktik me'yor;
 - imlo me'yor;
- 1) yozuv me'yori;
- 2) punktuatsion me'yor;
- 3) uslubiy me'yor.

Fonetik me'yor. O'zbek umumxalq tilida unli va undoshlar soni ko'p. Bu hali oxirigacha tadqiq qilinmagan. Ba'zi olimlar o'zbek tilida 8 ta, ayrimlari 12 ta, boshqalari 18 tagacha unli borligini aytishadi. Lekin hozirgi o'zbek adabiy nutqi uchun 6 ta unli va 24 ta undosh tovushning qo'llanishi me'yor hisoblanadi. Bu tovushlar yig'indisi o'zbek tilida so'zlashuvchilarning talaffuz va yozishdagi umumiyligi imkoniyatlardan kelib chiqqan va ehtiyojlarini to'la qondirib kelayotir. Biroq olimlar tomonidan turli til va nutq madaniyatiga bag'ishlangan anjumanlarda adabiy nutq me'yorlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar aytilmoqda. Masalan, o'zbek tilini turkiy xalqlar bilan yaqinlashtirish maqsadida *y* harfini *z* harfi bilan, *o'* harfini *o* harfi bilan, *o* harfini *a* harfi bilan almashtirish tavsiya etildi. Biroq bu uzoq yillar davomida odatlanib qolingan, an'analashgan me'yorlarni o'zlashtirishda chalkashliklarni vujudga keltirishi tayin. Yoki portlovchi va sirg'aluvchi j tovushlari uchun ikki harf berish masalasini olaylik. O'zbek tiliga portlovchi j harfi xos. Sirg'aluvchi j o'zlashma so'zlarda uchraydi. O'zlashma so'zlar uchun alohida harf tanlanadigan bo'lsa, arab tilidan o'zlashgan *h* (*halol* so'zidagi "h") va *g* (*hamd* so'zidagi "h") harflarini ham o'zbek alifbosida boshqa-boshqa harflar bilan berishga to'g'ri kelar edi. Alifboga qo'shimcha harf kiritish yoki chiqarish bilan nutq madaniyati o'sib qolmaydi, balki nutq madaniyati takomillashuvida yanada chalkashliklar sodir bo'ladi. Chunki

millionlab kishilar hozirgi kundagi me'yordorda tahsil ko'rishgan. Shuning uchun masalani murakkablashtirmay, nutq madaniyatini mavjud fonetik me'yordalar asosida takomillashtirish zarur.

Talaffuz me'yori Adabiy nutqning og'zaki va yozma shakli bo'lgani kabi nutqda ham imlo va talaffuz me'yordari farqlanadi.

Talaffuz me'yori fonetik me'yor asosida shakllanadi. Fonetik me'yor til me'yori bo'lsa, fonetik me'yor nutq me'yori hisoblanadi.

Talaffuz me'yori so'z va qo'shimchalarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarning urg'usini joyiga qo'yishdir.

Adabiy tilning og'zaki shakli me'yori talaffuz va nutqiy ohangda namoyon bo'ladi.

Orfoepiya – grekcha *orphos* – to'g'ri, *epos* – nutq degan ma'noni bildiradi. To'g'ri talaffuz, avvalo, shaxsning madaniy yetukligidan dalolat beradi. Og'zaki nutqda har xil talaffuz qilinadigan tovush, qo'shimcha va so'zdan adabiy til uchun qabul qilingan bittasi to'g'ri talaffuz me'yori hisoblanadi. Masalan, o'zbek shevasida bir so'z turlicha talaffuz qilinadi: *yo'q* – *jo'q*, *ko'z* – *go'z*, *ota* – *ata*, *aka* – *oka*, *anor* – *onar* kabi. Hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi shevada -*yap(ti)*, -*op(ti)*, -*utti*, -*vot(ti)* shaklida qo'llanadi: *boryapti*, *boropti*, *borutti*, *borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yo'q*, *ko'z*, *ota*, *aka*, *anor*, *boryapti* variantlari adabiy talaffuz me'yori (orfoepik me'yor) sifatida saralangan.

Orfoepiyaning yuzaga kelishida orfografiya va xalq og'zaki nutqining talaffuzi asos qilib olinadi.

Adabiy talaffuz me'yorini o'rganish orfoepik qoida va orfografik lug'at orqali amalgalashiriladi.

O'zbek tilshunosligida M.Sodiqova, U.Usmonovalarning "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" 1977-yilda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan "O'zbek adabiy talaffuz lug'ati" 1984-yilda nashr qilingan. Birinchi lug'atda o'zbek tilida faol qo'llanadigan 8000 ga yaqin so'z, ikkinchisida esa 20 000 dan ortiq so'z va so'z shaklining adabiy-me'yoriy talaffuzi belgilab berilgan, ba'zi so'z va grammatik shaklining talaffuzidagi noto'g'ri ko'rinishi inkor qilinib, uning to'g'ri aytilishi ko'rsatilgan.

Orfoepiya orfografiya bilan zich bog'langan. Biroq talaffuz hamma vaqt ham yozuv bilan teng kelavermaydi. Jumladan, yozuvda bor ayrim tovush sezilar-sezilmas aytilishi, umuman tushirilishi mumkin yoki, aksincha, orttirilishi mumkin. Nutqda tovush almashtirilishi ham ko'p

uchraydi. Masalan, *adabiyochchi* (adabiyotchi), *badbax* (badbaxt), *ussum* (uch so'm), *issiz* (izsiz), *xursan* (xursand), *go'sh* (go'sht), *bo'sa* (bo'lsa), *kesa* (kelsa) kabi. Bular yozuv bilan mos kelmasa-da, adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi. Lekin *oshshi* (oshni), *ishshi* (ishni), *yuzzi* (yuzni), *o'tta* (u yerda), *aqqa* (u yoqqa), *baqqa* (bu yoqqa) kabi so'zlarda adabiy me'yordan chekinish ro'y bergen.

O'zbek adabiy tilining asosiy orfoepik qoidalarini unlilar talaffuzi, undoshlar talaffuzi, asos va qo'shimchalar talaffuzi hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar talaffuzi tarzida o'rganish mumkin.

Turkiy tillardagi so'zlarda f undoshi bo'limgan, shuning uchun jonli so'zlashuvda arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan so'zlardagi f ni p deb talaffuz qilish uchraydi: *ulfat*>*ulpat*, *faner*>*paner*, *ferma*>*perma* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ularni f bilan talaffuz qilish me'yor holiga kelgan.

So'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi turkiy tillarga xos emas. Bu hodisa keyinchalik boshqa tildan o'zlashgan so'z talaffuziga ham ta'sir qilgan – jonli so'zlashuvda so'z yoki bo'g'in boshida yoxud bo'g'indagi ikki undosh orasida bir unlining orttirilishiga olib kelgan: *shkaf* > *ishkap*, *stakan* > *istakan*, *plan* > *pilon*, *traktor* > *tiraktir* kabi. Bunday holat so'z oxirida ham uchraydi: *aql* > *aqil*, *fikr* > *fikir*, *ilm* > *ilim*, *hukm* > *hukum* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday so'zni asl holicha (unli ortirmay) talaffuz qilish orfoepik me'yor sanaladi. Bunday me'yor shu tipdag'i so'zning yozuvdagi shaklini (imlosini) to'g'ri belgilashga ham yordam beradi.

Umumturkiy so'zda ikki unli yonma-yon qo'llanmaydi, bu hol arab tilidan o'zlashgan *oila*, *doir*, *rais*, *maorif*, *saodat*, *mutolaa* kabi so'zlar talaffuziga ta'sir qilgan: *oila*, *doir*, *rais* so'zlarida bitta y orttirilgan (*oyila*, *doyir*, *rayis* kabi), *maorif*, *saodat*, *mutolaa* so'zi esa unlining diftonglashuviga – *mo:rip*, *so:dat*, *mutola:* kabi talaffuz qilinishiga olib kelgan. Keyingi bir asr ichida rus tilidan so'z o'zlashtirishning faollashganligi, ruscha o'zlashmaning rus tilidagi talaffuz va imlo me'yorini o'zbek tiliga aynan singdirish an'anasing ustun bo'lganligi o'zbek tilida ikki unlining so'z tarkibida yonma-yon kelishini orfoepik va orfografik me'yorga aylantirdi: *biologiya*, *geometriya*, *geologiya*, *geodeziya* va boshqalar. Bu hol arabcha o'zlashmada (*oila*, *doir*, *rais*, *maorif*, *saodat*, *matbaa*, *mutolaa* kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini me'yor darajasiga ko'tardi.

Arab tilidan o'zlashgan *ta'na*, *da'vo*, *ma'no*, *e'lon*, *me'mor*, *mo'tabar* kabi so'zning birinchi bo'g'inidagi unli cho'ziqroq talaffuz etiladi.

Rus tilidan o'zlashgan so'zda *i* unlisi o'zbek tilining *i* unlisisidan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi: *tish* (o'zb.) – *tip>ti:p* (rus.), *til* (o'zb.) – *tir* > *ti:r* (rus.) kabi.

Ruscha leksik o'zlashmaning urg'usiz bo'g'inidagi *e* unlisi o'zbekcha *e* dan ancha tor (*i* ga yaqin) talaffuz etiladi: *telefon* > *tilifon*, *televizor* > *tilivizir*, *adres* > *adrıs* kabi.

Rus tili orqali o'zlashgan so'zda *a* unlisi o'zbekcha *a* dan yo'g'onroq talaffuz etiladi: *kana* (o'zb.) – *kanal* (rus) kabi.

Rus tilidan o'zlashgan so'zdagi o'cta keng, lablangan *o* unlisi urg'uli bo'g'inda o'zbek tilidagi o'cta keng, lablangan *o'* dan kengroq talaffuz etiladi: *ton* (rus.) – *to'n* (o'zb.), *tok* (rus.) – *to'q* (o'zb.), *tort* (rus.) – *to'rt* (o'zb.) kabi.

Jonli tilda *r* bilan boshlangan arabcha, forscha va ruscha so'zlarning boshida bir *o'* tovushining orttirilishi ancha keng tarqalgan: *ro'za>o'rəza*, *rus>o'ris*, *ro'mol>o'ramol* kabi. Adabiy talaffuz me'yori sifatida *ro'za*, *rus*, *ro'mol* shakllari saralangan.

Rus tilidan o'zlashgan so'zning oxirida lab-tish *v* undoshi jarangsiz f tarzida talaffuz qilinadi: *passiv* > *passif*, *ustav* > *ustaf*, *kursiv* > *kursif* kabi; *v* ning jarangsizlanishi so'z ichidagi assimilyativ holatda ham yuz beradi: *avtomat* > *afsimat*, *stavka* > *staska* kabi. Bunday talaffuz adabiy til uchun me'yor sanaladi, ammo o'zbek tilining o'z so'zida qo'llanadigan lab-lab *v* undoshi so'z oxirida ham, jarangsiz undosh ta'sirida ham *f* ga o'tmaydi: *ov*, *birov*, *ovqat*, *shavkat* kabi. (Bu holat ham orfoepik me'yor sanaladi).

Rus tilidan o'zlashgan so'zning ko'pchiligida urg'u erkin bo'ladi, bu hol o'zbek adabiy tili va talaffuziga ham singib bormoqda: *a'ylas*, *trol'leybus*, *'tramvay* kabi.

O'zbek tilidagi urg'u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrim o'zlashgan so'zlarda urg'u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin: *'hamma*, *'jami*, *ha'misha*, *af'suski* kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yoriga amal qilish imkonini beradi.

Urg'u, avvalo, xosligiga ko'ra 2 xil:

- a) so'z urg'usi;
- b) ma'no urg'usi.

So'z bo'g'inidan biriga tushib, uning ma'no va talaffuzini belgilab beradigan urg'u so'z urg'usidir: *zako'vat, ol'ma* (ot), *'olma* (fe'l). Unli tovush urg'u oladi.

O'zbek adabiy tilida urg'u ko'pincha oxirgi bo'g'inga tushadi. O'zakka qo'shimcha qo'shilganda ham urg'u oxirgi bo'g'inga ko'chaveradi. Masalan: *pax'ta, paxta'kor, paxtakor'lar*. Biror tovushning urg'u olishi nutq a'zosining harakati va nafas kuchiga bog'liq. Masalan: *xiz'matchi*.

Urg'usi bilan farqlanuvchi so'zga misol keltiramiz: *agro'texnik* (ot) – agrotexnik (sifat); *aka'demik* (ot) – akade'mik (sifat); *at'las* (ot) – 'atlas (ot (xarita); *ban'da* (ot) – 'banda (ot); *bog'lar* (ot) – 'bog'lar (fe'l); *bolagi'na* (ot) – bo'lagina (ot); *bos'ma* (sifat) – 'bosma (fe'l); *bo'tin* (ot) – 'botin (fe'l); *bo'tir* (sifat) – 'botir (fe'l); *em'pirik* (ot) – empi'rik (sifat); *ener'getik* (ot) – energ'e'tik (sifat); *eti'k* (ot) – e'tik (sifat); *fi'zik* (ot) – fi'zik (sifat); *geo'fizik* (ot) – geofi'zik (sifat); *geo'ximik* (ot) – geoxi'mik (sifat); *gidro'texnik* (ot) – gidrotex'nik (sifat); *grafik* (ot) – gra'fik 3 (sifat); *gul'lar* (ot) – 'gullar (fe'l); *'hozir* (ravish) – ho'zir (sifat); *ish'lar* (ot) – 'ishlar (fe'l); *ish'chi* (ot) – 'ish-chi (ot); *'klassik* (ot) – klas'sik (sifat); *'kredit* (ot) – kre'dit (ot); *'lirik* (ot) – li'rrik (sifat); *mate'matik* (ot) – matema'tik (sifat); *meta'fizik* (ot) – metaf'i'zik (sifat); *me'xanik* (ot) – mexa'nik (sifat); *'mistik* (ot) – mis'tik (sifat); *mo'da* (sifat) – 'moda (ot).

mosla'ma (ot) – 'moslama (fe'l); *ol'ma* (ot) – 'olma (fe'l); *or'ganik* (ot) – orga'nik (sifat); *ro'mantik* (ot) – roman'tik (sifat); *so'ya* (ot) – 'soya (ot)

sur'ma (ot) – 'surma (fe'l); *ta'ktik* (ot) – tak'tik (sifat); *te'xnik* (ot) – tex'nik (sifat); *tort'ma* (ot) – 'tortma (fe'l); *to'za* (sifat) – to'za (ravish)

ya'ngi (sifat) – 'yangi (ravish). Yuqoridagilar omonim so'z hisoblanadi.

Imloviy me'yor. Orfografiya grekcha "to'g'ri yozmoq" demakdir. So'z o'zak-negizi va qo'shimchasini yagona tarzda yozish haqidagi qoida yig'indisi orfografiya deyiladi. Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos. Orfoepiya va alifbo (grafika) bilan uzviy bog'liq.

Rivojlangan, o'z yozuviga ega bo'lган adabiy tilda so'zni bir xilda – yagona tarzda yozishni yo'lga qo'yish uchun imlo to'g'risida qonun qabul qilinadi. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" 1995-yil 24-avgustda qabul qilingan. U 82 paragrafdan iborat.

Imlo to‘g‘risidagi qonunni ishlab chiqish murakkab jarayon bo‘lib, bir nechta tamoyilga tayaniladi. Bu orfografiya tamoyil (prinsip) deyiladi.

Orfografiyaning 5 tamoyili mavjud:

- 1) fonetik yozuv;
- 2) morfologik yozuv;
- 3) shakliy yozuv;
- 4) tarixiy-an'anaviy yozuv;
- 5) farqlash yozuvi.

Orfografiya tamoyili asli va talaffuzi muvofiq kelmaydigan holat uchun ishlatiladi. Masalan, *kitob* so‘zining talaffuzida *b* tovushi *p* tarzida eshitiladi. Demak, so‘zdagi tovushning asli va talaffuzi farq qilganligi va so‘z o‘zlashma bo‘lganligi uchun imloda shakliy yozuv qoidasiga tayaniladi. Yoki *men* so‘ziga *-ning* qo‘shilganda asl holat *menning* bo‘lishi kerak edi. Talaffuz esa *mening* ko‘rinishida. Demak, bunda tovushni tushirib yozishga asos bo‘lgan qoidaga tayaniladi. Talaffuzi va imlosi bir xil so‘zga yozuv qoidasi ishlatilmaydi.

Fonetik yozuv. O‘zakka qo‘shimcha qo‘shilganda yuz beradigan tovush o‘zgarishini yozuvda aynan aks ettirish, ya’ni qanday aytilsa, shunday yozish fonetik yozuv deyiladi. Masalan, *ong* o‘zagidan *-la* affaksi bilan yasalgan so‘z *ongla* emas, *angla* shaklida beriladi, ya’ni o‘zakdagи *o* o‘rniga *a* talaffuz qilinar ekan, u xuddi shunday yoziladi. *Ishla* negizidan yasalgan ishlovchi so‘zida *a* o‘rniga *o* yoziladi.

Fonetik yozuv orfografiyanı jonli talaffuzga yaqinlashtiradi. Yozuv va talaffuzda ma’lum darajada umumiylilik saqlanadi.

Nutqda *tushdi* so‘zi *tushiti*, *tushgan* so‘zi *tushkan* tarzida talaffuz qilinadi. Lekin bunday yozilmaydi. Ba’zan so‘z oxirida bir undosh tushirilib aytiladi: *Samarqan*, *xursan*, *pas* kabi. Ammo bu holat yozuvda aks etmaydi. Bunday so‘z imlosi boshqa tamoyilga bo‘ysunadi.

Morfologik yozuv. O‘zakka qo‘shimcha qo‘shilganda yuz beradigan tovush o‘zgarishini inobatga olmaslik qoidasi *morfologik yozuv* deyiladi. Masalan, *uchta* so‘zi *ushta*, *kelib turibdi* so‘zi *kep turibti* tarzida aytiladi. Ammo ular asliga muvofiq *uchta*, *kelib turibdi* deb yoziladi. Yoki *-lar* qo‘shimchasining *-la*, *-lor*, *-nor* holida aytilishiga qaramay, asl holati yoziladi. Fe’lning noaniq shakli *-moq* qo‘shimchasi og‘zaki nutqda *-mak* aytilsa ham, *-moq* yoziladi. Hozirgi orfografiya talabi bo‘yicha qo‘shimchaning deyarli hamma shakli morfologik

yozuv bo'yicha yoziladi: egalik affiksi: *-im*, *-ing*, *-i*, kelishik affiksi: *-ning*, *-ni*, *-da*, *-dan*, so'z yasovchi ham turlicha aytishidan qat'i nazar imloda o'zining asl morfologik shaklini saqlaydi.

Morfologik yozuv so'z va morfemani adabiy tilda yagona shaklda saqlash va yozishga ko'maklashadi, yozuvda bir xillikni ta'minlaydi.

Morfologik yozuvga zid yoziladigan o'zak-negizga oid eng muhim imlo qoidasi quyidagi:

1. Bir bo'g'indan iborat *o* tovushli yopiq bo'g'inli *ba'zi* o'zakka - *a* qo'shilib yasalganda, *o* tovushi *a* tovushiga aylanadi: *ong* – *angla*, *ot* – *ata*, *son* – *sana*, *yosh* – *yasha* kabi.

2. Keyingi yopiq bo'g'inda *i* yoki *u* unlisi bo'lgan ikki bo'g'inli *ba'zi* o'zak, negizga *a* yoki *o* bilan boshlangan qo'shimcha qo'shilganda keyingi bo'g'indagi *i*, *u* unlisi aytilmaydi va yozilmaydi: *ulug'* – *ulg'aymoq*, *sariq* – *sarg'aymoq*, *og'iz* – *og'zaki*, *ikki* – *ikkov*, *olti* – *oltov* kabi.

3. Keyingi yopiq bo'g'inda *i* yoki *u* unlisi bo'lgan ikki bo'g'inli *ba'zi* o'zak, negizga egalik shakli qo'shilsa, keyingi bo'g'indagi *i*, *u* unlisi aytilmaydi va yozilmaydi: *og'iz* – *og'zi*, *burun* – *burni*, *o'g'il* – *o'g'li*.

4. *K* yoki *q* undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli o'zak-negizga egalik shakli qo'shilsa, *k* tovushi *g*, *q* tovushi *g'* tarzida aytildi va yoziladi: *istak* – *istagim*, *qishloq* – *qishlog'im* kabi.

5. Kishilik olmoshining bиринчи va иккинчи shaxs birligiga *-ning*, *-ni*, *-niki* qo'shimchasi qo'shilsa, yonma-yon kelgan ikki *n* tovushidan biri aytilmaydi va yozilmaydi: *menning* emas, *mening*, *senning* emas, *sening* kabi.

6. Ko'rsatish olmoshidan *u*, *bu*, *shu* o'zagiga *-ga*, *-da*, *-day* affiksi qo'shilsa, bir *n* tovushi orttiriladi va shunday o'qiladi: *unga*, *undan*, *bunga*, *shunday* kabi.

7. Undosh *s*, *t*, *ch* tovushi bo'lgan *isi*, *qot*, *achi* kabi fe'l o'zagiga - *q* qo'shilib sifat yasalganda, o'zakdagi undosh takrorlanadi: *issiq*, *qattiq*, *achchiq* kabi.

Morfologik yozuvdan chetlashib yoziladigan qo'shimchaning ayrimlari ikkitadan yettitagacha fonetik shaklga ega. Bu o'zak-negiz va qo'shimcha tarkibida *k*, *g*, *q*, *g'* undoshining mavjudligiga bog'liq:

1. Ikki shaklda yoziladigan qo'shimcha:

-*il/-l*: *yozildi*, *qurildi*, *o'qildi*, *tarqaldi*;

-*in/-n*: *kiyin*, *taran*;

-iy/viy: ijodiy, oilaviy.

2. Uch shaklda yoziladigan qo'shimcha:

-ga/-ka/-qa: quyoshga, o'simlikka, xalqqa;

-gan/-kan/-qan: uchgan, tikkan, boqqan;

-gach, -kach, -qach: singach, to'kkach, oqqach.

3. To'rt shaklda yoziladigan qo'shimcha:

-gich/-kich/-g'ich/-qich: suzgich, chekkich, qirg'ich, bosqich;

-chak/-choq/-chiq/-chik: kelinchak, maqtanchoq, sirg'anchiq,

o'rgamchik;

4. Olti shaklda yoziladigan qo'shimcha:

-gi/-ki/-gu/-g'u/-g'i/-qi: sevgi, turtki, ezgu, cholg'u, yoqilg'i, tashqi;

5. Yetti shaklda yoziladigan qo'shimcha:

-gin/-kin/-gun/-kun/-g'in/-qin/-g'un/-qun: tizgin, keskin, surgun, tushkun, ozg'in, uyg'un, uchqun;

Demak, fonetik yozuv imloni talaffuzga, morfologik yozuv birlikning asl holatiga moslaydi.

Tarixiy-an'anaviy yozuv. So'zning hozirgi talaffuz me'yoriga mos kelmaydigan, qadimdan o'zlashib qolgan shaklda yozilishi tarixiy-an'anaviy yozuv deyiladi. Boshqacha aytganda, so'z hozirgi holatiga ko'ra emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan qoidaga ko'ra yoziladi: *Chor Rossiyasi* (asli sar), *pudratchi* (asli podryadchik), *tamagir* (asli ta'magir), *taqiqlamoq* (asli ta'qiqlamoq), *mo'jiza*, *mo'tadil*, *mo'tabar kabi*.

Hozirgi orfografiyada tarixiy-an'anaviy yozuv asosida yoziluvchi ba'zi shakllar quyidagilar:

1. Buyruq-istik mayli eski adabiyotimizda qo'llanib kelgan an'anaga ko'ra, she'riyat va nasr tilida ba'zan *-gil*, *-g'il* tarzida ishlataladi: *borgil* // *borg'il*.

2. Maqsad ma'nosini anglatuvchi *-gani* shaklining *-gali*, *-g'ali*, *-kali*, *-qali* shakllari.

3. Hozirgi-kelasi zamon sifatdosh shaklini yasovchi *-ur* shakli:

Yulduzlar o'tiga bardosh berurman,

Fazolar taftiga qilurman toqat. (A.Oripov)

4. *-mu* so'roq yuklamasi:

Sevgini tortib bo'lurmu

Tosh-u tarozi bilan. (E.Vohidov)

Farqlash (differensiyalash) yozuvi. Talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki o‘zaro farqi deyarli sezilmaydigan darajaga kelib qolgan so‘z yoki qo‘sishimcha yozuvda maxsus qoida bilan ajratilib yozilishi farqlash yozuvi deyiladi.

Bu yozuv kam qo‘llanadi. Ayrim misol:

1) o‘zaro yaqin, shakldosh so‘z yozuvda ‘(tutuq) belgisi yordamida farqlab qo‘llanadi: *da’vo – davo, nash’ a – nasha, she’r – sher, sur’at – surat, ta’qib – taqib*.

2) ba’zi shakldosh so‘zlar talaffuzda urg‘u yordamida farqlanadi. Imloda bunday so‘zga urg‘u belgisi quyiladi: ‘*atlas* (karta) – *at’las* (mato), ‘*banda* (shayka) – *ban’da* (qul).

3) -*liq/-lik* qo‘sishimchasi: *bo’shlik* – yuvosh, (ot) *bo’shliq* – fazo (ot), *otalik* – *otaliq*;

4) -*lik/-li* qo‘sishimchasi: *paltoli* – *paltolik*;

5) -*chang/-chan* qo‘sishimchasi: *mahsichang* – *ishchan*;

Shakliy (etimologik yoki grafik) yozuv. O‘zlashgan so‘zning qadimgi kelib chiqish holatini yoki shaklini saqlab qolish asosida yozish shakliy yozuv deyiladi. Boshqacha aytganda, yozuvda o‘zlashgan so‘zning shakli saqlanadi. Masalan, *maoniy*, *mutolaa*, *mushoira*, *muammo*, *va’da*, *she’r* kabi so‘z ham shu yozuv asosida yozilgan. Rus tilidan o‘zlashgan *bolshevik*, *komsomol*, *spravka*, *aeroflot*, *shtamp*, *shtraf*, *zoologiya* kabi so‘z shakliy yozuv asosida yozilmoqda. Shunisi muhimki, o‘zbek tili talaffuzi uchun qiyin bo‘lgan ba’zi baynalmilal so‘zlar hozirgi orfografiya qoidasi bo‘yicha istisno tarzida tilimizning talaffuz xususiyatiga moslab yoziladi va talaffuz qilinadi. Bunga *kiosk* – *kioska*, *propusk* – *propuska*, *otpusk* – *otpuska* kabi so‘zlar misol bo‘la oladi. Bu tip so‘z ba’zan o‘z holicha ham yozilmoqda: *bank*, *tank*, *disk* kabi.

Ayni vaqtida orfografiya tamoyili orasida uzviy aloqa ham mavjud. *Oilaviy*, *Navoiy* kabi so‘zning oxiridagi -*viy*, -*iy* qo‘sishimchasi tarixiy-an'anaviy yozuvga ham, shakliy yozuvga ham mos keladi.

Grammatik me’yor. O‘zbek tili grammatiskasini tilshunoslikning nazariy jihatdan mukammalroq ishlangan, so‘z shakllari, qo‘sishchalar, so‘z birikmalari va gap tuzilishi ancha me’yorashtirilgan bo‘limi sanaladi. O‘zbek tilshunosligida sheva va lahjalar bilan qiyoslangan holda adabiy til uchun turlovchi, tuslovchi, so‘z yasovchi qo‘sishchalarining eng ma’qul variantlari tavsiya etilgan va morfologik me’yor sifatida belgilangan. Ammo nutqda bu

me'yorlarga hamma vaqt ham rioya qilinmayapti. Ularning ayrimlarigagina to'xtalib o'tamiz.

Nutqda ko'pincha qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari farqlanmasdan, -ning o'mida -ni qo'shimchasini qo'llash holatlari kuzatiladi. Misollar: *Maryam xonim ... Dod, zolimni dastidan* (Hamza). Bu holat personaj nutqi sifatida qaralganda o'zini oqlaydi. Lekin me'yoriy nuqtayi nazardan to'g'ri emas. *Direktorni xonasida ko'rdim* ("Direktorning xonasida ko'rdim") gapida qo'shimchaning noto'g'ri ishlatalishi gap mazmunini butunlay o'zgartirib yuborgan.

Sifat yasovchi -li va ot yasovchi -lik qo'shimchalari ham nutqda ba'zan farqlanmaslik holatlarini ko'rishimiz mumkin: *xorazmlik paxtakorlar – xorazmli paxtakorlar, yog'lik ovqat – yog'lik ovqat*.

Orttirma nisbat shaklini hosil qiluvchi -kaz va -qaz qo'shimchalari ham og'zaki nutqda ba'zan farqlanmaydi: *daraxt o'tqazish* (me'yoriy) – *elektr liniyalarini o'tqazish* (nome'yoriy).

Adabiy tilning so'z yasash shakllari ham shevalardan farq qiladi: *olaylik – olali, ketaylik – ketaylu, ilgak – ilgay, aldoqchi – aldovchi, aldamchi* kabi.

Sintaktik jihatdan nutqning og'zaki va yozma shakli farqlanadi. Gap tuzish qoidalarini yaxshi bilish va ulardan to'g'ri foydalanish, gapda so'z va qo'shimchalar o'rtasidagi munosabatning to'g'ri bo'lishi, ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanishiga e'tibor berish, gapda so'z tartibi va inversiya qoidalariga rioya qilish madaniy nutqning asosiy xususiyatlaridan. Misol:

*Otadek farzandiga kim kuyar axir,
O, naqadar og'ir farzandning dog'i*

(Shukrullo)

She'riy matn gap bo'laklarining tartibi o'zgarishiga yo'l qo'yadi. Lekin bu mantiqiy xatoliklarni keltirib chiqarmasligi kerak. Yuqoridagi misralarda sintaktik me'yor buzilishi natijasida esa farzand otaga o'xshatib qo'yilgan.

*G'alvirakning o'zi xunuk, lekin mag'zi soz bo'lur,
Pistanning ham qattig'idan ochiq og'zi soz bo'lur.*

(Shukrullo)

Birikma *og'zi ochig'i* tartibida bo'lishi lozim edi. Lekin bu holda misralar vazniga putur yetishi mumkin. Shoir badiiy me'yorni saqlash bilan nutqiy me'yorni buzgan.

Lug'aviy me'yor. Adabiy tilda milliy tilning yashash va amal qilish qonuniyatlaridan kelib chiqib so'z tanlash imkoniyatlari uning leksik me'yorni belgilaydi. Umumxalq tilidan o'sib chiqqan adabiy til unda mavjud bo'lgan so'z variantlaridan lug'aviy me'yor sifatida eng maqbulini – hamma uchun tushunarli bo'lgan ko'rinishini tanlab oladi, qolgan variantlar esa sheva va lahjalarda, ijtimoiy guruuhlar tilida yashayveradi. Har bir shevada o'sha sheva uchun so'z qo'llashning o'z lug'aviy me'yorini bo'lgani kabi adabiy nutqda ham shevalarda uchragani kabi o'ziga xosliklar bor. Masalan, she'riy asarlar tilida *visol, ruxsor, siyna, falak, yonoq, qalb, hijron* kabi so'zlar sheva va lahjalar va hatto jonli so'zlashuv tili uchun xos emas.

O'zbek adabiy tilining lug'aviy me'yorini birmuncha tartibga keltirilgan, u imlo lug'atlarida o'z ifodasini topgan. Shu tufayli yozma nutqda so'z qo'llash birmuncha turg'un holatda bo'lib, me'yor buzilishi unchalik sezilmaydi. Ammo og'zaki nutqda so'z qo'llash qoidalariga hamma vaqt ham yetarli darajada amal qilinmaydi. Ularning ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

Garchi adabiy tilda me'yori sifatida belgilangan so'z mavjud bo'lsa ham, ayrim holatlarda bu so'zlarning iste'moldan chiqqan variantlari qo'llanadi. Masalan, o'zbek tilida *maskura, g'oya, falsafa, she'riyat, fojia, an'ana, universitet, tuman, viloyat, qomus, daraja, harorat, istiqbol, vazir* kabi so'zlarning qo'llanilishi yangidavr uchun me'yoriy hisoblanadi. Lekin ayrim kishilar nutqida ular o'rniда *ideologiya, ideya, filosofiya, poeziya, tragediya, traditsiya, dorilfunun, rayon, oblast, ensiklopediya, gradus, temperatura, perspektiva, ministr* so'zlarini qo'llash hollari uchrab turadi.

Uslubiy me'yor. So'z va qo'shimchalarni uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llash uslubiy me'yorlarni bilish asosida amalgalash oshadi. Masalan, ayrim hollarda og'zaki nutqqa xos so'zлarni yozma nutqda qo'llash yoki aksincha hollar uchrab turadi. O'zbek tilidagi *apteka* so'zi og'zaki nutqqa xos. Lekin og'zaki nutqda *dorixona* so'zini qo'llash unchalik qovushmaydi. Shuningdek, sinonimlarni tanlashda ham me'yoriylik buzilishi mumkin. Masalan, ko'pincha og'zaki nutqda *yuz* so'zi qo'llanishi shart bo'lган holatlarda *aft, bashara* so'zlarini qo'llash hodisalariga duch kelamiz. *Kishi, odam, shaxs* so'zları o'rniда *inson*

so‘zining qo‘llanish holatlari juda ko‘p uchraydi. Bu ham uslubiy me’orni bilmaslik oqibatidir.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Adabiy me’yor deganda nimani tushunasiz?
2. Noadabiy nutq me’yorlari haqida fikrlaringizni bayon qiling.
3. O‘zbek adabiy nutqining fonetik va talaffuz me’yorlari haqida so‘zlang.
4. O‘zbek adabiy nutqining leksik, grammatik va imloviy me’yorlari haqida so‘zlang.
5. O‘zbek adabiy nutqining uslubiy me’yorlari haqida o‘zlashtirganlaringizni gapirib bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: “Navro‘z”, 1997.
2. Kaykovus. Qobusnomा. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.
3. Mahmudov N. O‘qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodи”, 2010.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. - Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.
10. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: “Adolat”, 2004.

11. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: "O'qituvchi", 1989.
12. Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent: "Yosh gvardiya", 1989.
13. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
14. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.
15. Tojiyev Y., Mallaboyev M. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.
16. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
17. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: "Universitet", 2002. – B. 53.
18. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi, – Toshkent: "Universitet", 1996, 39- b.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

MADANIY NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI

Reja:

1. Nutqning to'g'riliqi va o'rinnligi
2. Nutqning aniqligi va mantiqiyligi.
3. Nutqning sofligi va boyligi.
4. Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligi.

Tayanch tushunchalar: *nutq sifatlari, nutqning to'g'riliqi, nutqning o'rinnligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyligi, nutqning sofligi, nutqning boyligi, nutqning ifodaliligi, nutqning ta'sirchanligi.*

Madaniy nutq qator o'ziga xos sifatlarga ega. Nutq bu sifatlarga ega bo'lsagina, uni madaniy nutq deyish mumkin. Nutq har tomonlama madaniy bo'lishi uchun uning oldiga tegishli talablar qo'yiladi. Bu

talablar nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari deb yuritiladi. Mutaxassislar nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, ta’sirchanligi, ifodaviylici, tozaligi, boyligi, o‘rninligi va maqsadga muvofiqligini uning asosiy xususiyatlari sifatida ajratishadi. Quyida ulardan eng muhimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Nutqning to‘g‘riligi. Nutqning adabiy me’yorlar (fonetik va talafuz, leksik va imlo, grammatic va uslubiy)ga qat’iy mos bo‘lishi – madaniy nutqning asosiy sifati. Har qanday to‘g‘ri nutq madaniy bo‘lavermaydi, shu boisdan, adabiy nutq me’yorlari ishlab chiqilgan. Bu haqda rus tilshunosi S.I.Ojegov shunday degan edi: “Yuksak nutq madaniyati – kishining o‘z fikrini til vositalari orqali to‘g‘ri, aniq va ta’sirchan ifodalay olishi. To‘g‘ri nutq amaldagi adabiy til me’yorlariga rioya qilib tuziladi. Til me’yorlari – bu ijtimoiy-nutqiy amaliyot (badiiy adabiyot, o‘qimishli kishilar nutqi, sahna nutqi, OAV) da til jamiyatni tomonidan qabul qilingan talaffuz, imlo, grammatic va so‘z qo‘llash qoidalari. Yuksak nutq madaniyati til me’yoriga amal qilishdangina iborat emas. U ayni paytda o‘z fikrini ifodalashning nafaqat aniq, balki eng ta’sirchan va o‘rinli vositalarini ham topa olish mahoratini ham qamrab oladi”.

Nutqning to‘g‘riligi uning asosiy xususiyati bo‘lsa-da, yagona va hal qiluvchi sifat emas. Har qanday to‘g‘ri nutq boshqa sifatlardan xoli bo‘lsa, madaniy nutq sanalmaydi.

Madaniy nutqqa bosqichma-bosqich erishib boriladi. Birinchi bosqich nutqning to‘g‘riligi bo‘lsa, boshqa sifatlar uning orqasidan ergashadi. Rus tilshunosi L.I.Skvorsov adabiy til va undan foydalanish malakasini egallashni ifodalaydigan umumiy “nutq madaniyati” tushunchasini “nutqning to‘g‘riligi” va “nutq madaniyati” qismlariga ajratish lozimligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, quyi bosqich – nutqning to‘g‘riligi. Nutq madaniyatining birinchi bosqichida nutqning zaif me’yorlari ta’lim oluvchiga singdiriladi. Bu me’yorlar sheva me’yorlari, boshqa tillar ta’sirida yuz bergen so‘zlashuv me’yorlari, jargon va argotik me’yorlardir. *Senga bitta gapim bor, poyezdga aytaman* gapida keyingi jo‘nalish kelishigi shakli qo‘llanishi ma’lum bir hudud uchun xos holat. Yoki *ukamni daftari* kabi birikmalarda qaratqich kelishigi shaklining tushum kelishigi o‘rnida qo‘llanishi qaysidir sheva uchun me’yor. Bu me’yor asosida adabiy nutqda gapirish hollari uchrab turadi. Nutqning kuchli me’yorlari mustahkam bo‘lib, tashqi ta’sirlarga berilmaydi. Masalan, tushum kelishigi o‘rnida

jo‘nalish kelishigini qo‘llash holati yo‘q. “Nutqning to‘g‘riliqi – deb yozadi rus olimi V.G.Kostomarov, – madaniy nutqning zarur va birinchi sharti bo‘lib, adabiy nutqning amaldagi me’yoriga qat’iy mos kelishini, joriy talaffuz, imlo, lug‘aviy va grammatik me’yorlarni puxta egallahshi bildiradi”.

Nutq to‘g‘riliagini ta’minalashda quyidagi me’yorlarga amal qilinadi:

- urg‘u me’yori;
- lug‘aviy me’yor;
- uslubiy me’yor;
- grammatik me’yor.

Ma’lumki, rus va boshqa ko‘plab flektiv tillarda so‘zdagagi urg‘uning ko‘chishi ko‘p hollarda ma’noning o‘zgarishiga olib keladi. Bu tillarda urg‘uga e’tibor bermaslik natijasida nutqdagi ifodalarning to‘g‘riliqi buziladi. Biroq o‘zbek tilida *olma* – *olma*, *hozir* – *hozir*, *yigitcha* – *yigitcha*, *o‘quvchimiz* – *o‘quvchimiz*, *bog‘lar* – *bog‘lar*, *yangi* – *yangi* kabi qator so‘zlarda urg‘uning bir bo‘g‘indan ikkinchi bo‘g‘inga ko‘chirilishi me’yor buzilishi sezilmaydi. O‘zlashma so‘zlardagi urg‘uni to‘g‘ri qo‘ymaslik natijasida madaniy nutqqa putur yetadi. Masalan, *naza’riya*, *sintaksis*, *me’tafora*, *shaxmat*, *tire* kabi so‘zlarda urg‘u o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan o‘rinnarga tushadi va natijada buni bilmagan kishi nutqida noto‘g‘rilik sodir bo‘ladi.

Mantiqiy urg‘uni noto‘g‘ri qo‘yish natijasida gap mazmuni o‘zgarib ketishi mumkin. Masalan, *Onasiz bola o‘ynamas* gapini ikki xil tushunish mumkin:

- “Bola onasining yonida o‘ynaydi”;
- “Farzandi yo‘q ona o‘ynamaydi”.

Mantiqiy urg‘uning buzilishi gap sintaktik qurilishining nomuvofiqligi natijasida sodir bo‘lgan. Gap agar *Bola onasiz o‘ynamas* shaklida berilsa, me’yoriylik saqlangan bo‘lar edi.

Ayrim o‘zlashma so‘zlardagi unlilarni o‘z tilidagidek talaffuz qilish natijasida ham nutq me’yoriga rioya qilmaslik kelib chiqadi. Masalan, *Moskva*, *tonna*, *post*, *voleybol* kabi so‘zlardagi ajratilgan o‘tovushlari o‘zbek tilidagi a tovushiga moyil talaffuz qilinishi me’yoriy. Ayrimlar boshqa tillardan o‘zlashgan *direktor*, *traktor*, *diktior*, *doktor* so‘zlaridagi oxirgi bo‘g‘indagi o‘tovushlarini talaffuz qilishga urinishi natijasida me’yorni buzib qo‘yadi. Shuningdek, ayrimlar boshqa tildagi so‘zni o‘sha tildagidek talaffuz qilishga madaniylik belgisi sifatida

qarashadi: *yanvar* (*yinvar*), *fakultet* (*fikultet*), *dekan* (*dikan*) kabi. Bu ham to‘g‘ri talaffuz emas.

So‘zlarning ma’nosini bilmasdan qo‘llash, eskirgan so‘zlarni mavjud so‘zlar o‘rnida ishlatish, o‘zbek tilida mavjud me’yoriy so‘zlar o‘rnida nomaqbwl variantlarini ishlatish kabilar natijasida lug‘aviy me’yor buziladi. Misol: ...*San’atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi...* *San’atkor uyiga ketgani izvoshga o’tirganida yana tutaqib ketdi: "Hech bo‘lmasa, aytadigan ashulangni o’rgan, so‘zlarini to‘g‘ri ayt" emish!..* *Xizmatchisi savod mакtabida o‘qiyotgan bir kishini traktorist savodsiz desa, alam qilmaydimi? – dedi san’atkor o‘zicha bo‘g‘ilib, – "labingdan bo‘lsa olsam, e shakarlab" deganim u kishiga yoqmapti, "bo‘lsa" emas, "bo‘sa" emish! O‘zi bilmaydi-yu, menga o‘rgatganiga kuyaman! Senga o‘xshagan savodsizlar "bo‘sa, bo‘masa" deydi. Artist kul’turniy odam – gapni adabiy qilib aytadi – "bo‘lsa, bo‘lmasa" deydi.* Bunda adib Abdulla Qahhor *bo‘sa* so‘zining ma’nosini bilmay xato qilgan savodsiz va saviyasi past kishilarni hajv ostiga olgan.

Grammatik me’yorga rioya qilish deganda, gap tuzish qoidalaridan to‘g‘ri foydalanish, so‘zga grammatik qo‘shimchalarni qo‘shishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik, kelishik qo‘shimchalarini o‘z o‘rnida qo‘llash, ega va kesimning mosligiga rioya qilish, ikkinchi darajali bo‘laklarni to‘g‘ri ishlatish, so‘zlarning bog‘lanish qonuniyatlariga amal qilish kabilar tushuniladi. Muloqot jarayonida bunday grammatik me’yorlarga amal qilmaslik natijasida nutqning to‘g‘riligi buziladi.

Morfologik me’yolarning buzilishiga misollar:

1. *Faxriy o‘qituvchining yuzlab shogirdi hozirgi kunda turli sohalarda samarali mehnat qilib, ustoziga obro‘-e’tibor keltirmoqdalar.*

Me’yoriy varianti: *Faxriy o‘qituvchining yuzlab shogirdi hozirgi kunda turli sohalarda samarali mehnat qilib, ustoziga obro‘-e’tibor keltirmoqda.*

2. *Abdulla Qahhor yozish u yoqda tursin, bunday holda hatto birovga dastxat ham bermas edilar. Umuman yozuvchilik ular uchun nihoyatda muqaddas ish edi.*

Me’yoriy varianti: *Abdulla Qahhor yozish u yoqda tursin, bunday holda hatto birovga dastxat ham bermas edilar. Umuman, yozuvchilik uning uchun nihoyatda muqaddas ish edi.*

Morfologik me'yorning buzilishiga doir original misollarni Abdulla Qahhor hajviyalarida o'qiyimiz: *Pojarniy "gugurtni yerga tashlamang" dedi, rejissorimiz esa "gugurtning yerga tashlamang" dedi. Qanday chiroylik!*

Nutqning aniqligi. Nutqning aniqligi deganda, ishlatilgan til birliklarining o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishi tushuniladi. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri bo'lib, qadimdan ma'lumki, g'arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqliknı nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblanganlar.

Agar nutqning to'g'riligini ta'minlashda faqat lisoniy omillarning to'g'ri qo'llanilishi zaruriy belgi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deganda, uning shakllanishiga xizmat qiluvchi nolisoniy holatlar ham nazarda tutiladi. Bu, eng avvalo, tilning tafakkur bilan birligidir. Chunki nutqning aniqligi tushunchasi ostida tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi orasidagi mutanosiblik tushuniladi. Shu ma'noda B.N.Golovin aytganidek, "aniqliknı "nutq→tafakkur→voqelik" zanjiri asosida belgilash mumkin". Borliqdagi voqe-hodisalar har bir tilda o'z ifodasiga ega. Lisoniy ifoda yordamida ular inson tomonidan anglanib, idrok etiladi, fikr almashinadi. Nutqning aniqligi deyilganda, til va borliqning nutqdagi aniq muvofiqligi tushuniladi: "...Agar inson tafakkurining eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari so'zda aniq va ochiq-oydin ifodalanmagan bo'lsa, ular baribir odamlarga noma'lum bo'lib qolaveradi. Bizning vazifamiz aytadigan fikrimizning boshqalar tomonidan qabul qilinishiga erishishdan iborat. Qabul qilish esa ko'p jihatdan o'z nutqimizni qanday ifoda qilishimizga bog'liq". Ko'rindiki, nutqning aniqligi – nutqiyl madaniyatning, nutq mas'uliyatining muhim sharti. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpox, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov kabi o'zbek so'z ustalarining tilga va so'z qo'llashga munosabati shu mas'uliyat mahsuli. Ayniqsa, Abdulla Qahhor fikrlari biz uchun ulkan saboq.

Abdulla Qahhor yozuvchi Ma'ruf Hakimning "Qahramonning o'limi" hikoyasini tahlil qilar ekan, *Botir beliga qator beshta bomba qistirib..., Qo'lida bomba ushlagan holda ko'chaga yugurdi gaplaridagi bomba so'zining noto'g'ri ishlatilganligini, yozuvchi bomba va granataning farqiga bormasligini tanqid qiladi*. Adib bunga hikoyadan ko'plab misollar keltiradi: *Botir Sulton akaning oyoqlarini silaganda*

qo'liga yelimga o'xshagan bir narsa yopishganligini sezdi: qorong'ida nima ekanini bilolmay qoldi – Jenya... yigitning ko'ziga uzoq tikilib qoldi. Bir paytda bo'layotgan ushbu voqealar ifodasidagi mazmunni qiyoslar ekan, “*qo'lga tekkan qon ko'rinnmagan qorong'ida ko'z ko'rinnadimi?*” deydi Abdulla Qahhor.

Adib yana yozadi: “*Adabiyotda yolg'onning katta-kichigi yo'q. Hammasi ham baravar zarar. “Uchrashuv” (M.Hakim)da mana bunday yolg'on gap bor: “Ahmad osmonga qaradi. Haqiqatan ko'kni bulut bosgan. Biron ta ham yulduz yo'q edi!”* Shundan besh satr pastda “*Ahmad osmonga nazar tashladi. Haqiqatan uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlarning ko'rinishi xunuk edi*”. Uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlarni ko'rish uchun havo qisman bo'lsa ham, ochiq bo'lishi kerak. Bu yerda yo “*ko'kni bulut bosgan*”i, biron ta ham yulduz yo'qligi yolg'on yoki “*uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlar*” to'g'risidagi gap behuda”.

Ko'rinnadiki, yozuvchi Ma'ruf Hakim yozgan narsalardagi ziddiyatlar uning nutqining borliq bilan muvofiq kelmayotganligini ko'rsatmoqda. “*Aniqlikni boshqacha tushunish ham mumkin, – deydi B.N.Golovin, – bu so'z va uning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ma'nosi hamda uning nutqda qo'llanishi bilan muvofiq kelishi.* Ko'rinnadiki, aniqlik nutqning xususiyati sifatida, eng avvalo, til sistemasidagi lug'aviy daraja bilan bog'lanadi. Boshqacha aytganda, *nutq aniqligi* termini ostida voqelik va uning tildagi ifodasi bo'lgan lug'aviy birlik – so'z o'rtasidagi o'zaro moslik anglashiladi.

Nutqning mantiqiyligi. Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langan. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiy. Demak, to'g'rilik aniqlik, aniqlik esa mantiqiylikni taqozo etadi.

Mantiqiylikning buzilishi ifodalanayotgan fikrning to'liq yetib bormasligiga, ba'zan haqqoniy anglashilmasligiga olib kelishi mumkin. Nutqni tuzishdagi mas'uliyatsizlik oqibatida mantiqsizlik yuz berishi mumkin. Misol: *Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajardilar* (Gazetadan) gapida so'zlarning tartibi to'g'ri bo'lmasligi, *olti oylik* birikmasining *sotish* so'zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqsizlik sodir bo'lgan, fikr xatoligi yuz bergen.

Nutqning mantiqiyligi, avvalo, so‘zlovchi va yozuvchining tafakkur salohiyati, til bilimi, tajribasi, farosati va qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Demak, ko‘rinadiki, qator omillardan faqat bittasi lisoniy. Shu ma’noda, A.G.Chernishevskiyning “nimani noaniq tasavvur qilsang, shuni noaniq ifoda etasan, noaniqlik va ifodani chalkashtirish fikr chigalligidan dalolat” degan fikrini keltirish joiz.

So‘zlarning o‘zi ifodalananayotgan narsa-hodisaga mos ravishda fikrni aniq ifodalashi *narsa mantiqiyligi*, so‘z birikmalari, gaplar, abzas, hatto butun matnlarning o‘zaro uyg‘unligi, fikrni izchil davom ettirishga bo‘ysundirilishi tushuncha mantiqiyligidir. Misollarga e’tibor bering: 1. *Endi kuy va raqlar tinglab dam oling* (“Televideniye”dan). 2. *Maktab bufetchisi Toji Ibrohimov bir kitobga 5 tiyindan qo‘yib sotmoqda* (“Mushtum”). 3. *Oyosh xolaga gorchechnik qo‘yib bo‘lib, ketmoqchi edi, Davron uni qo‘yarda-qo‘ymay choyga o‘tqazdi* (M.Jaloliddinova). 4. *Suratga olingen akula quruqlilikdagi sutemizuvchilarga o‘xshab, tuxum qo‘ymaydi, balki tirik bola tug‘adi* (“Fan va turmush”). Raqs tinglanmasligi, 5 tiyin kitobga emas, narxiga qo‘yilganligi, choyga emas, dasturxonqa o‘tqazilishi mumkinligi, o‘lik bola tug‘masligi kabilar gaplarda mantiqqa zid bo‘lib qolgan.

Ba’zan tarjimada ham mantiqsizlik yuz beradi. Misol: *Erkak paypoqlar narxi 30 foiz arzonlashdi* (“Mushtum”.) Bu rus tilidagi *mujskie noski birikmasining noto‘g‘ri tarjimasi. Bugun Toshkentda nol daraja issiq bo‘ladi.* (“Mushtum”). Ma’lumki, nol daraja issiq ham, sovuq ham emas.

Yozuvchi Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi” hikoyasidagi qahramon “nafis adabiyot muallimi” Boqijon Baqoyevning nutqi mantiqsiz nutq uchun xarakterli misoldir: “*Chexovmi? Hmm... burjuaziya realizmi to‘g‘risida so‘zlaganda, eng avval, uning obyektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv vogelikni anglash lozim bo‘ladi. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya‘ni... himm. Mukarram, tovuqqa moyak qo‘ydingmi? Qo‘yish kerak, bo‘lmasa daydi bo‘lib ketadi... Tavba, tovuqdan ahmoq jonivor yo‘q – moyak qo‘ysang tug‘adi! Nima uchun moyak qo‘ysang tug‘adi? Xo‘roz nima uchun saharda qichqiradi? Ajoyib psixologiya! Biologiya o‘qiy sizlarmi?*”.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mantiqiy nutq yaxlit holdagi, izchil, har til birligi maqsadga muvofiq ishlatiladigan nutqdir.

Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, unda qo'llangan til birliklarining adabiy til me'yorlariga mos kelishi tushuniladi. Darhaqiqat, madaniy nutqda hozirgi o'zbek adabiy tiliga xos bo'lman, o'rinsiz birliklar bo'lmasligi kerak. Ayrim kishilar nutqida sheva unsurlari, vulgar va varvar so'zlar, jargon va argo ifodalari nome'yoriy tarzda qo'llanadi. Bunday nutqni toza va madaniy deb bo'lmaydi.

Bular, asosan, dialektizm va varvarizmlar tilning sofligini buzuvchi asosiy til unsurlari. To'g'ri, ular ham tilimizda o'z o'rniga ega. Badiiy adabiyotda, kinofilmarda personajlar nutqini individuallashtirish uchun ulardan foydalilanadi. Bunday so'zlar ma'lum bir badiiy-estetik vazifani bajarishga, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. *Yoshulli saning qizing bunda gapirilmagan. Ova, yoshulli. San, manglayi qara, badkirdor, na sababdan mundoq yomon so'zlarni elga tarqatding* (Mirmuhsin). Bunday unsurlar personaj nutqida o'zini oqlaydi. Lekin muallif nutqida u nutq sofligiga putur yetkazuvchi vosita sanaladi. Masalan: *So'ri g'ichirladi. Qudrat bobo damsar urdi. Yuzini silab qo'yib, telpagini yechdi...* (N.Qobul.)

Norasmiy nutqda rasmiy uslubga xos so'z va ibora (kanselyarizm)larni, qo'shimchalarni o'rinsiz ishlatish nutqning sofligiga putur yetkazadi. Nutqni jonsiz qilib qo'yadi. Yozuvchi A.Qahhor "Quyushqon" asarida bu haqda quyidagilarni yozadi: "...Hozirgi vaqtida, tilimizning boyligini, uning qochiriqlarini o'rganishga eringan, so'z san'atiga hunar deb emas, kasb deb qaraydigan, bisotidagi bir hovuch so'zni yillar davomida aylantirib kun ko'rib yurgan bir turkum qalam ahlining "faoliyati", chala mulla ba'zi olimlarning "ilmiy xulosa"lari natijasida ajib bir til bunyodga kelgan. Bu tilda hech kim gapirmaydi, zotan, gapirish mumkin ham emas, faqat yozib, o'qib berish mumkin. Bu tilda yozilgan narsani bir qiyomda o'qimasdan ham iloj yo'q. Bu tilning hech qayerga yozilmagan, lekin amalda joriy bo'lgan temir qonuniga ko'ra, "Yaxshi ovqat yedim!" deb yozib bo'lmaydi, albatta, "Sifatli ovqatlandim" deb yozish shart. "Papiros chekadigan kishi gugurtni olib yurishi kerak" deb yozish to'g'ri emas, "Papiros chekish odatiga ega bo'lgan kishi o'zini tegishli gugurt bilan ta'minlab yurishi kerak" deb yozilsa to'g'ri bo'ladi.

Bu tilda latifa aytib bo'lmaydi, yozib bo'lmaydi! Bu tilda hazilga, maqolga, matalga, ajoyib xalq iboralariga o'rin yo'q. Bu til har qanaqa

jonli fikrga kafan kiygizadi, har qanaqa o'ynoqi mazmunni taxtaga tortadi, har qanaqa lektorni g'urbatning uyasiga, har qanaqa auditoriyani o'lik chiqqan hovliga aylantiradi.

Bir talay jurnalistlar, redaktorlar, notiqlar, lektorlar, agitatorlar singari bu odam ham mazkur tilni rasmiy, qayerdadir tasdiqlangan til deb bilar, bu tilda so'zlanadigan o'lik nutqqa jon kirgizgani qilinadigan har bir harakatni "quyushqondan tashqari chiqish" deb hisoblar ekan. Lektoni, agitatorni g'urbatning uyasiga, nutqni og'ir yukka aylantiradigan bu "quyushqon"ni qancha tezroq uloqtirib tashlasak, shuncha yaxshiroq!"

Bunday nutqning yorqin namunasini adib o'zining "Nutq" hikoyasida bera olgan.

Demak, rasmiy siyqa so'z va iborani noo'rin ishlatish nutqning notabiiyligini, ishonchsizligini keltirib chiqaradi.

Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham nutq madaniyati uchun xos emas. Ular, asosan, so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi natijasida paydo bo'ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar o'zlarini sezmagan holda *demak, xo'sh, ya'ni, masalan, tak* kabi so'zlarni qaytaraverishga o'rganib qolishadi. "Bir ma'ruzachining bir soatlik nutqida, – deb yozadi A.Ahmedov, – o'rtoqlar so'zi 101 marta, ya'ni so'zi 73 marta, *demak* so'zi 60 marta takrorlanganligining guvohi bo'lganmiz. Qarang, bir soatlik nutqda 234 ta ortiqcha, "bekorchi" so'z ishlatilgan-a!"

Nutqning ta'sirchanligi. Ma'lumki, nutqning yuzaga chiqishida aniq bir maqsad – tinglovchi va o'quvchi ongi va hissiyotiga ta'sir qilish vazifa qilib qo'yiladi. Shuning uchun ham ta'sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va qolaversa, to'g'rilik va aniqlik ham, mantiqiylik va tozalik ham tinglovchiga ta'sir etishga qaratilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan sifatlarda lisoniy omillar birinchi planda tursa, ularning hammasidan foydalangan holda ta'sirchanlik keng doirada nolisoniy omillarni ham qamrab oladi.

Bu nolisoniy omillar quyidagilar:

birinchidan, so'zlovchining nutq obyekti haqida yetarli bilimga ega bo'lishi. Masalan, yozuvchi xarakter yaratayotgan ekan, u inson fe'l-atvori, psixologiyasi, voqeа bo'lib o'tayotgan davr va tarixiy sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy holat, personajning gender va kasbiy, yosh va etnik xususiyatlari, axloqiy sifatlari haqida yetarli bilimga ega bo'lishi

zarur. Ayrim adiblar shaxsning atigi to'rtta temperament xususiyatini yaxshi bilmasdan turib, xarakter yaratishga kirishib ketadilar;

ikkinchidan, nutqi mo'ljallanayotgan auditoriya psixologiyasi, dunyoqarashi, maqsad va intilishlari haqida keng tasavvurga ega bo'lishi lozim. Xo'sh, ta'sirchan nutq deganda qanday nutqni tushunmoq kerak?

uchinchidan, vaziyatni to'g'ri baholab, nutqni unga muvofiglashtirish kerak bo'ladi.

Omma tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish notiqlar oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan. Buning uchun esa, yuqorida aytiganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasini bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, o'zaro bog'lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tanishtirib, gapni boshlash lozim. Vaqtin hisobga olish notiqlik fazilatlaridan. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, tinglovchilar zerikmaydi.

So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhim, chunki shunday bo'lgandagina quruq rasmiyatichilikdan qochish mumkin. So'zlovchi va tinglovchi o'rtaсидаги aloqa yaxshi kechadi. Notiq fikrlarini o'zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir o'z fikr-mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli chiqadi. Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi, ta'sirchan iboralarning qo'llanilishi ham nutq ta'sirchanligini oshiradi.

Nutqning yordamchi vositalaridan unumli foydalanish uning samaradorligini ta'minlaydi. Masalan, nutq orasida yumorga o'rin berish, tinglovchilarning ayrimlariga ismini chiroyli aytib murojaat qilish, kamtarlik, dadillik va jur'atlilik kabilalar shular jumlasidan.

Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1. Nutqning to'g'riliги haqida gapiring.
2. Nutqning o'rnliligi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Nutqning aniqligi deganda nimani tushunasiz? Nutqning aniqligini sharhlang.
5. Nutq va mantiq munosabati, nutqdagi mantiqiy xatoliklar haqida so'zlang.

6. Nutqning sofliги buzilish holatlarini tavsiflang va unga misollar keltiring.

7. Nutqni boyitish yo'llari haqida gapiring.

8. Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligi nimalarga bog'liq?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: "Navro'z", 1997.

2. Kaykovus. Qobusnomा. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi", 2006.

3. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

4. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – Toshkent: "Yangi asr avlodи", 2010.

5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009.

6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

8. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2003.

9. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: "O'qituvchi", 1989.

10. Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent: "Yosh gvardiya", 1989.

11. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.

12. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.

13. Tojiyev Y., Mallaboyev M. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net

2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

NUTQ MADANIYATI VA TILNING TASVIRIY VOSITALARI

Reja:

1. Tilning tasviriy vositalari.
2. Nutqda troplar.
3. Uslubiy figuralar.

Tayanch tushunchalar: *tasviriy vosita, trop, uslubiy figura, ko'chim, o'xshatish, jonlantirish, takror, epitet, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya, gradatsiya.*

Tilning tasviriy vositalari. So'zlovchi (ma'ruzachi, notiq, yozuvchi, muallif) fikrini tinglovchi (o'quvchi)ga ixcham va aniq, ta'sirchan va tushunarli yetkazib berishga urinadi. Ko'pincha biror narsa, shaxs, joy belgi/xususiyatni adresatga tushunarli, aniq tasvirlab berish uchun uzun va birdan ortiq gaplardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu esa so'zlovchini ham, tinglovchini ham qiy nab qo'yishini his etgan sezgir so'zlovchi ayni shu fikrni boshqa vositalar (jumladan, o'xshatish, sifatlash, kinoya, allegoriya, ellipsis va h.k.) dan foydalangan holda lo'nda va aniq tushuntirishga erisha oladi. Bunday vositalar filologiya va ritorikada *tasviriy vosita* deyiladi.

Tasviriy vositalar ikkiga bo'linadi:

- a) troplar;
- b) figuralar.

Tasviriy vositalarni qo'llash so'zlovchidan ayrim fazilatlarga ega bo'lishni taqozo qiladi. Ular quyidagilar:

birinchidan, muallif (notiq yoki yozuvchi) tasviriy vositalarning tabiatini, xususiyatini yaxshi tushungan, u haqda zarur nazariy yoki amaliy bilimga ega bo'lishi kerak;

ikkinchidan, tasviriy vositalarni qo'llash me'yori (miqdori, o'rni, payti, tinglovchilarning xususiyatlari) ni bilish zarur.

Nuqtida ifodalilik va ta'sirchanlikka erishish maqsadida nomlar ko'chma ma'noda qo'llanilganda trop deyiladi. Ko'chma ma'noda

qo'llash metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, kichraytish, kinoya, allegoriya, jonlantirish, perifraza kabilar tropning turlaridir.

Uslubiy figuralar deb nutqni jonlilashtirish uchun qo'llangan takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, jim qolish, ritorik so'roq, bog'lovchisizlik, ko'p bog'lovchilik kabilarga aytildi.

Nutqda troplar. Trop nutqda so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish. Bir-biriga yaqin ikki tushunchani qiyoslash asosida so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash bilan trop hosil qilinadi. Troplarning turlari juda ko'p.

Epitet (sifatlash) grekcha so'z bo'lib, "izohlovchi" degan ma'noni anglatadi. Epitet badiiy aniqlovchidir. U oddiy aniqlovchilardan ekspressivlik hosil qilishi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi. *Ko'm-ko'k osmon* birikmasidagi aniqlovchi oddiy aniqlovchi bo'lib, so'z o'z ma'nosida qo'llangan. *Feruza osmon* birikmasida esa aniqlovchi ko'chma ma'nodagi so'z bo'lib, u *epitet* deyiladi. Epitet ta'sirchan bo'ladi. Masalan, H.Olimjon:

Men bir qora tunda tug'ildim,

Tug'ildimu shu on bo'g'ildim.

misralarida *tun* so'zi oldidan oddiy sifatlovchi *qora* so'zini keltiradi. Bunda *qora* so'zi o'zining "rang" ma'nosida emas, balki "og'ir", "mashaqqatli", "azobli" degan ma'nolarda qo'llanganligi uchun epitet bo'la olgan.

O'xshatish. Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning birining nomi orqali ikkinchisini ifodalash o'xshatish deyiladi. O'xshatish eng qadimiy va ko'p qo'llanadigan tasviriy vositalardan. *Buxoroda gul kabi bir qiz yashaydi. Uning ismi – Shahlo.* Bunda kishi gulga o'xhatilgan.

O'xshatish to'rt asosiy qismidan tarkib topadi:

- 1) o'xhatilgan narsa (gul);
- 2) o'xshagan narsa (kishi);
- 3) o'xshatish asosi (go'zallik);
- 4) o'xshatish vositasi (kabi so'zi).

Misollar: 1. *Shoirning qo'shiqlaridan ilhomlangan o'zbek yigitlari frontga borib, sherday jang qildilar* (H.Olimjon):

- 1) o'xhatilgan narsa (sher);
- 2) o'xshagan narsa (o'zbek yigitlari);
- 3) o'xshatish asosi (qo'rmaslik);

4) o'xshatish vositasi (-*dek* qo'shimchasi).

2. *Tog'lardagi qip-qizil lola*

Bo'lib go'yo yoqut piyola,

Buloqlardan uzatadi suv,

El ko'zidan qochadi uyqu (H.Olimjon.)

1) o'xshatilgan narsa (lola);

2) o'xshagan narsa (piyola);

3) o'xshatish asosi (yoqut);

4) o'xshatish vositasi (*go'yo* yuklamasi).

Metafora. *Metafora* so'zi yunoncha (metaphora) bo'lib, "ko'chirish", "ko'chirma" demakdir. Biror predmet, belgi yoki harakatning boshqasiga tashqi o'xshashligi asosida ma'no ko'chishi metafora deyiladi. Bunda predmetning rangi, shakli, harakat-holati, xususiyati, o'rni va paytga munosabati jihatidan o'xshashligiga asoslaniladi. Masalan, choynakning jo'mragi odamning burniga, dengizning quruqlikka suqulib kirgan joyi odamning qo'lting'iga o'xshatiladi. Metafora ko'proq odam tana a'zosi nomiga (*bosh, yuz, burun, og'iz, qulqoq, til, oyoq*); kiyim qismiga (*etak, yoga*); hayvon, parranda yoki hasharotning biror a'zosi nomi (*qanot, dum*) kabilarga o'xshatib hosil qilinadi. *Otlanmoq* ilgari "otga minib biron joyga borish" ma'nosida ishlatilgan (albatta, ot minganlik tasavvur qilingan), hozir xoh otda, xoh piyoda, xoh mashinada bo'lsin – "biror joyga jo'nash" ma'nosini tushuniladi. Bunda harakatning tashqi o'xshashligi mavjud.

Narsa va hodisa orasidagi o'xshashlik quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) shakliy o'xshashlik: *odamning qulog'i – qozonning qulog'i, qush uchdi – odam uchdi*;

2) joylashish o'xshashligi: *itning dumii – samolyotning dumii, qo'shni odam – qo'shni dala*;

3) mazmunan o'xshashlik: *tomdan yiqilmoq – imtihondan yiqilmoq, sovuq havo – sovuq xabar, qaynoq suv – qaynoq liniya, achchiq o't – achchiq sovuq, tomdan tushmoq – mansabdani tushmoq, odam o'tirdi – fabrika o'tirdi, akkumulator o'tirdi*.

Metaforaga juda yaqin bir vosita o'xshatish bo'lib, ular yordamida shaxs, predmet bir-biriga yaqinlashtiriladi, qiyos qilinadi. Unda -*dek*, -*day*, *go'yo, yanglig'*, *singari, xuddi* kabi o'xshatish vositasidan

foydalilaniladi: *Bahor kelinchakdek yasanib keldi. Ulug'bek – misoli oftob.*

Nutq jarayonida metaforadan o'rini foydalanganda so'zlovchining badiiy-estetik qobiliyati namoyon bo'lib, nutq ta'sirchan, jozibali chiqadi.

Nutqqa obrazlilik, bo'yoqdorlik berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforadir. Masalan, kishi umrining yoshligini "g'uncha", yigitlik davrini "gul" so'zlari, o'cta yosh davrini "meva" so'zlari bilan ifodalash mumkin.

Metaforani yashirin o'xshatish deyish ham mumkin. Chunki metaforada ham, o'xshatishda ham, asosan biror narsa yoki hodisa boshqasi bilan qiyos qilinadi – o'xshatiladi. Ammo ular farqlanadi. O'xshatishda o'xshatish vositasi mavjud bo'ladi. Metaforada bu vosita ishtirok etmaydi. Yuqoridaq gapni *Buxoroda bir gul yashaydi* shaklida bersak, o'xshatish emas, metafora vujudga keladi. Misollar: 1. *Mard bobolar avlodidan bahodir! Arslon kuchi bilan to'lsin har tomir. O'q yomg'irin, o'lim do'lin yog'dirib, Qo'tir itlar galasini toza qir* (Oybek). 2. *Mard yigitga maydon degan ne g'amdir! Tulkilarни sirtlon bo'lib quvmasak, Onamizning oppoq suti haromdir* (K. Yashin). 3. *Bor, lochinim, bor, shunqorim, yaxshi bor! Bor, arslonim, iftixorim, yaxshi bor!* (Uyg'un).

Vazifadoshlik. Narsa va hodisa orasidagi vazifaviy o'xshashlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chirish vazifadoshlik asosida ma'no ko'chirish deyiladi.

Vazifaviy ko'chirish ham o'xshashlikka asoslanadi. Bu jihatdan u metaforaga yaqin turadi. Farq shundaki, vazifaviy ko'chirishda tashqi ko'rinish o'xshashligi emas, balki vazifa o'xshashligi hisobga olinadi. Masalan, qush tanasining uchish uchun xizmat qiladigan a'zosi qanot deb ataladi. O'xshash harakatni bajaruvchi samolyot qismi ham shunday nomlanadi. Tugma yaktakning oldini tugib yopuvchi bog'ich nomi bo'lgan. Hozir shu vazifani bajaradigan odatda aylana tutqich ham tugma deyiladi.

Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi faqat ot turkumida uchraydi.

Metonimiya. Metonimiya so'zi yunoncha metonimia – "yangi nom qo'yish", "nomni o'zgartirish", "qayta nomlash" demakdir. Makon va zamondagi o'zaro bog'liqligi asosida bir narsa va hodisaning

nomini ikkinchiga ko‘chirish – metonimiya. Metonimiyada biror predmet xususiyati yoki voqeal-hodisaning nomini aytganda shunga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkinchisi anglashiladi. Bunda o‘xshashlik nazarda tutilmaydi. Boshqacha aytganda, ikkita bir-biriga bog‘liq predmet, belgi, holatning birining nomi tejamkorlik natijasida tushiriladi. Masalan,

Fuzuliyni oldim qo‘limga,

Majnun bo‘lib yig‘lab qichqirdi (H.Olimjon).

gapida Fuzuliy va asar (Fuzuliyning kitobini oldim qo‘limga) bir-biriga bog‘liq bo‘lib, tejash uchun kitob so‘zi tushirib qoldirilgan. Natijada Fuzuliy so‘zi shaxs ma’nosini emas, kitob so‘ziga xos ma’noni ifodalagan.

Metonimiya turli ko‘rinishda bo‘ladi:

- 1) o‘ringa munosabatiga ko‘ra: *bir stakan* (suv) *ichdim*, *bir tarelka* (ovqat) *yedim*, *qishloq uyquda*;
- 2) vaqtga ko‘ra: *o‘nga* (yosh) *kirdim*, *yarim yillik* (imtihon) *topshirildi*;
- 3) muallif va asar orasidagi munosabatga ko‘ra: *Pushkinni* (asar) *o‘qidim* va hokazo.

Metonimiya asosidagi ko‘chma ma’no – fikrni lo‘nda va ta’sirchan bayon qilish vositasi. Misollar: 1. *Darsdan keyin A.Qodiriyni so‘rab olish umidida sinfdan og‘aynim bilan birga ularnikiga bordim* (O.Yoqubov). 2. *Uning perosi qasos o‘ti bilan yonardi* (A.N.Tolstoy). 3. *Mazkur gaplarning hammasi ustoz S.Ayniy qalamiga tegishli*.

Sinekdoxa. Sinekdoxa yunoncha *synecdoche* so‘zidan olingan bo‘lib, “birga anglash” demakdir. Qism bilan butun munosabati asosida ma’no ko‘chirish sinekdoxa usulidir. Sinekdoxa metonimiyaning bir ko‘rinishi deb ham yuritiladi. Ammo undan farqli ravishda sinekdoxada miqdoriy tavsifga asoslaniladi. Masalan, *bosh*, *tuyoq* so‘zi (ya’ni, qism) orqali hayvon (ya’ni, butun) tushuniladi. *Yurak*, *tiroq* so‘zi (ya’ni, qism) orqali odam (ya’ni, butun) anglashiladi. Sinekdoxada butun orqali qism ham anglashishi mumkin. Masalan, *Besh qo‘l barobar emas* gapida *qo‘l* (ya’ni butun) so‘zi orqali *barmoq* so‘zining ma’nosini anglashilmoqda. *Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko‘rmagan* (Oyb.) gapida qism (tuyoq) orqali butun (mol) ifodalanayotir. Misollar: 1. *Eshikka kiring, aka, choy-poy ichib keting* (S.Ahmad). 2. *Kalning nimasi bor – temirdan tarog‘i bor* (Maqol). 3. – *N nima? – dedi mo‘ylov tutoqib. – Nima deyaptilar, akasi o‘rgilsin* (O.Yoqubov). 4. “*Soqol*”

go 'yo Akramning o'ylarini tasdiqlaganday... o'zbek qizlarining qirq kokillarini, uyatchan tabassumlarini maqtardi (O.Yoqubov).

Kinoya. So'zni teskari ma'noda ishlatish kinoya deyiladi. Kinoyadagi so'z qo'shtirnoqqa olinadi:

*Bizni "homiy"lardan himoya qilg'il,
Degan Sharq xalqida piching – duo bor.
Xo'sh, janobi oliv, qaysi sho'rlik xalq
Sizning "himoyangizga" qolmish intizor* (G.G'ulom).

Bu o'rinda *homiy* so'zi "zolim", *himoya* so'zi "zulm" ma'nosida ishlatilgan. Misollar: 1. *Mulla Norqo'zi safarga ketadigan bo'lib qoldi: ketishdan bir kun ilgari xotiniga aytib, o'sha "farishta" ni oldirdi va o'rta eshik oldiga borib "qiyomatlik singlisi" dan iltimos qildi: singlim men o'n kunda qaytib kelaman, kelgunimcha o'rtog'ingiz bilan birga bo'ling* (A.Qahhor). 2. *Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynotasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p "achindi" va yerni haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin "kichkinagina" sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi* (A.Qahhor).

Mubolag'a va kichraytish. *Mubolag'a* so'zi "bo'rttirib ko'rsatish", "mahobatli qilish" ma'nosini bildiradi. Ayrim adabiyotlarda bu atama o'mida *giperbola* atamasi ham ishlatiladi. Kichraytish deb narsa va hodisalarni o'z holatiga nisbatan haddan tashqari kichraytirib tasvirlanishiga aytildi. "Kichraytish" o'rnida *litota* (grekcha "soddalik"), *metozis*, *tafrit* atamalari ham ishlatiladi. Mubolag'a va litota aks ma'nolarga ega. Har ikkalasi ham ko'chma ma'noga asoslanadi. Mubolag'aga misollar: 1. *Birov bolasini yo'qotib shaydo, Birov judo bo'lgan qarindoshlardan. Yuzlarcha dengizlar bo'lardi paydo, Ota-onalarda oqqan yoshlardan* (H.Olimjon). 2. *Uzoq yillarda qora chashmangdan Oqqan siyohlarni o'lchasa agar, Qo'llasam klassik mubolag'a men, Der edim, teng kelar Qora dengizga!* (M.Shayxzoda). Kichraytirishga misollar: 1. *Bu so'zning ma'nosi shu qadar teran, Dengizlar bir ho'plam uning qoshida* (Uyg'un). 2. *Oldimda yer sharin suvrati turar, salmog'i Quvaning anoricha bor* (A.Oripov). 3. *Agar muhabbat shunday kezlarda to'kiladigan ko'z yoshi bilan o'lchansa, yuzta Shirin-u, yuzta Laylining muhabbati bunikiga urvoq ham bo'lmas edi* (A.Qahhor).

Ramz. Tildagi ayrim so'zlar o'z ifodalananmishidan boshqa bir narsa yoki hodisani atash uchun ixtisoslashib qoladi. Masalan, *tong, bahor*

so‘zлari yoshlik, quvnoqlik, baxt ramzi, *tun*, *qish* – baxtsizlik, o‘lim, azob, *kabutar* tinchlik ramzi kabi.

Sarkazm. *Sarkazm* grekcha so‘z bo‘lib, achchiq kulgi, istehzoli ta’na, piching demakdir. *Sarkazm* ironiyaga yaqin turadi. U ko‘proq satirik asarlarda, satirik bayonlarda ishlataladi. *Sarkazm* orqali shaxsning quşurlari ustidan achchiq kulgu qilinadi.

Misollar:

1. **Navoiy.** *Xafa bo‘lma, Gulim, zamon yanglishlar bilan to‘la. Itning boshi mis taboqda, azizlarning boshi esa yerda depsiladi. Va’dalar unutiladi. Ariqlar buziladi, gulistonlar cho‘l bo‘ladi.*

Husayn (boshi quyi solingan). Nechun avvalroq bilmadim. Yanglishdim.

Navoiy. *Rahnamo iblis bo‘lgach, yanglishish tabiiydir. Tushgan yo‘lingiz g‘oyat mudhish yo‘l. Bu yo‘ldan boruvchining qonlardan kechib, kallalarnidepsib o‘tmay iloji yo‘q.*

Husayn (og‘ir). Yetar, Alisher... Men sizdan bunchalar ta’nalarni kutmagan edim.

Navoiy. *Men sizni, meni Balxga yuborib, bunchalik marhamatlar qilasiz, deb o‘ylamagan edim.* (I.Sulton, Uyg‘un)

Perifraza (tasviri ifoda). Tasviri ifoda – predmet, voqeа va hodisani o‘z nomi bilan emas, balki muhim xususiyatini tasvirlash orqali ifodalovchi birikma: *oq oltin* – paxta, *oq oltin ijodkori* – paxtakor, *kumush tola* – pilla, *zangori kema kapitani* – mexanizator va hokazo.

Tasviri ifoda uslubiy vosita sifatida nutqqa ko‘tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqib, lug‘at tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida takror va qaytariqdан qochish imkonini beradi, notiqni so‘zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, tasviri ifoda faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olg‘a qadam qo‘yishiga to‘sinqlik qilayotgan illatni fosh qilish, undan kulish va unga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham ishlataladi. Binobarin, tasviri ifoda predmet, voqeа-hodisaning o‘z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatini tasvirlab, bo‘rttirib, izohlab va to‘ldirib ko‘rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

So‘z ma’nosining kengayishi va ko‘chgan holda qo‘llanishi tilning, ayniqsa, lug‘at tarkibining boyligini oshiruvchi omildan biridir. So‘zni ko‘chma ma’noda qo‘llash – lug‘at boyligini ko‘rsatuvchi, uslub

ravonligi, ifoda mazmundorligini ta'minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vosita.

Tasviriy ifoda ko'proq ot va sifat turkumiga mansub bo'ladi. Ba'zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (*aql gimnastikasi* – matematika, shaxmat) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo'llanishi (*zangori ekran, oynayi jahon* – televizor) mumkin.

Jonlantirish. Jonsiz narsalarga jonlining xususiyatlarini berish jonlantirish deyiladi. Cho'lpon "Go'zal" she'rida buning yorqin badiiy namunasini beradi.

*Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug'yulduzdan seni so'raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: "Men uni tushda ko'ramen.
Tushimda ko'ramen, shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!.."*

*Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqqa,
Boshlayman oydan-da seni so'rmoqqa,
Ul-da aytadirki: "Qizil yonoqqa
Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa.
Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal,
Mandan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!.."*

*Erta tong shamoli sochlari yozib,
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.
Aytadir: "Bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog'u toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni - shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!.."*

*Ul ketgach, kun chiqar yorug'liq sochib,
Undan-da so'rayman sening to'g'ringda.
Ul-da uyatidan berkinib, qochib,
Aytadir: "Bir ko'rdim, tushdamas o'ngda.
Men o'ngda ko'rganda shunchlar go'zal,
Oydan-da go'zaldir... mendan-da go'zal!.."*

Men yo 'qsil na bo 'lub uni suyibmen?!
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyubmen.
Boshimni zo 'r ishga berib qo 'yubmen,
Men suyub... men suyub... kimni suyubmen?
Men suygan "suyukli" shunchalar go 'zal,
Oydan-da go 'zaldir, kundan-da go 'zal!!!"

Jonlantirish behad katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, nutqning badiiy barkamolligini ta'minlaydi.

Uslubiy figuralar. Uslubiy figuralar deganda, tinglovchi hissiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi va ta'sirni oshiruvchi maxsus sintaktik qurilmalar nazarda tutiladi. Uslubiy figura va trop bir-birini to'ldiradigan, biri ikkinchisiga aniqliklar kiritadigan tasviriy vositalardir. Takror, sukut, ritorik so'roq, antiteza, gradatsiya, ko'p bog'lovchilik va bog'lovchisizlik, inversiya, ellipsis kabilar uslubiy figuraning asosiy turlari. Quyida ulardan ayrimlarini tavsiflaymiz.

Antiteza. Bu grekcha so'z bo'lib, "qarshilantirish", "zidlash" ma'nosini bildiradi. Ifodalilikni oshirish uchun o'zaro zid tushuncha, fikr, obraz, narsa xususiyati va shaxs xarakterini qiyoslab zidlash asosida antiteza hosil qilinadi. Antitezada ikki qarama-qarshi qo'yilgan belgi yoki xususiyatdan biri ikkinchisini inkor qiladi. Misollar: 1. *Ul oyning husni ko'ptin-ko'p, vafosi ozdin-oz ermish* (Navoiy). 2. *Maishatman kayfu safo bir yoqda, Mehnat bilan jabru jafo bir yoqda* (Ergash Jumanbulbul). 3. *Bir yoqdan tuganmas baxt berdi jahon, Bir yoqdan tuganmas o'kinch-u qadar* (A.Oripov). 4. *Tajjub. Yangicha aza, yangicha bazm. Ko'zlarida yosh, lablarida kulgu. Egnilarida qora libos, qo'llarida qizil sharob tushkunlikning mujassam timsoli!* (I.Sulton, Uyg'un)

Gradatsiya. Bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, "zinapoya", "o'sib borish" ma'nosini bildiradi. Nutqda bir narsa yoki hodisa haqidagi fikrlarni kuchaytirib borish usuli gradatsiya deyiladi.

Yuvib,
tarab,
sevib,
o'pib,
quchib,
opichlab
Ey, baxtlarni balog'atga

yetkazgan ona (H.Olimjon).

Ritorik so'roq. Ritorik so'roq uslubiy vosita sifatida o'quvchi (tinglovchi)ning diqqatini ma'lum bir fikrni tasdiqlatish uchun ishlataladi.

Ritorik so'roq gap javob talab qilmaydi, javobi o'zida yashiringan va barcha uchun ma'lum bo'ladi. Misol: *Men uning to'satdan kelib qolishini qaydan bilay?*

Ritorik so'roq gap quyidagi ma'nolarni ifodalashi mumkin:

- "tasdiq": *Bu Vatanda nimalar yo'q!*
- "inkor": *O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da 'voga!*
- "taajjub": *Bu nimasiz!?*
- "tashvish": *Meni tashlab ketmaysanmi!?*
- "g'azab": *Maqsad nima, maqsad!?*
- "gumon": *Paxta ham yaxshi ochilmagandir?*
- "kuchli hayajon": *Tokaygacha ezilamiz, ota!?*

Ko'p bog'lovchilik va bog'lovchisizlik. Nutqqa keskinlik, tezkorlik tusini berish uchun bog'lovchisiz uyushiq bo'laklarni ishlatib, ohang kuchini oshiradi. Misol: ...*o'z elini, o'z tuprog'ini, o'z tilini, o'z madaniyatini jon dilida ko'rmagan odam o'zga xalqlarni, o'zga o'lkalarni, o'zga til va o'zga madaniyatni ko'klarga ko'tara olmaydi, hurmat qila bilmaydi, yo'q aslo!* (S.Azimov). Bog'lovchisizlik she'riy nutqda vazn talabi bilan ham yuz beradi. Misol:

*Mallalar, sallalar,
Urfonsiz kallalar,
Shaytonlar, iblislar,
Burhonsiz dallalar.
Do 'zaxlar, jannatlar,
Toatlar, yallalar,
G'azablar, allalar,
Makrlar, hiylalar,
Illolar, billolar,
bus-butun quyundek quvildi.
Shodiyona urildi,
Bayroqlar qurildi* (Hamza).

Ko'p bog'lovchilik ham nutq ta'sirchanligini oshiradi. Misol: *Mening xalqimni ro'yobga chiqargan, shod va baxtiyor qilgan, non va osh, kiyim va ust-bosh, e'tibor va obro' bergan narsa – bag'rikenglikdir.*

Ellipsis. *Ellipsis* grekcha “tushirib qoldirish” ma’nosini beradi. Gapning biror bo’lagi fikr va hissiyotga ta’sir qilish keskinligini oshirish uchun tushirib qoldiriladi. *Dunyoga tinchlik* (kerak)! *Barcha shodlik bolalarga* (berilsin)! *Eh sen* (nimalar qilib qo‘yding)!

Takror. Matn yoki nutqda fikrni kuchaytirish uchun takrorning ko’plab turlaridan foydalaniladi. Misollar:

Ko’m-ko’k,

Ko’m-ko’k...

Ko’klam quyoshidan

Ko’kargan qirlar

Po’lat yag’rinlarni

Ko’targan yerlar ko’m-ko’k (Hamid Olimjon).

Bir yonda lojuvard Bahri Muhit bor,

Bir yonda za’faron Sahroyi Kabir.

Bir yonda oq sochli tog’lar purvigor,

Sening toleingga o’qiydi takbir (A.Oripov)

Trop va uslubiy figuralarning yana ko’plab tur va xillari bor. Ularning har birini o’z o’mida nutq sharoitiga mos ravishda o’rinli va to’g’ri qo’llash nutq ta’sirchanligi va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tilning tasviriy vositalari deganda nimalar tushuniladi?
2. Trop deb nimaga aytildi?
3. Tropga misol aytib, uni dalillang.
3. Uslubiy figura nima va u tropdan qanday farq qiladi?
4. Uslubiy figuraga misol keltirib, uni dalillang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: “Navro‘z”, 1997.
2. Kaykovus. Qobusnoma. To’ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O’qituvchi”, 2006.
3. Mahmudov N. O’qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

4. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodি”, 2010.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

7. A’lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1989.
8. Qilichev E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
9. Jumaxo‘ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: “Sharq”, 1998.
10. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: “Akademiya”, 2007. – B. 224.
11. Tojiyev Y., Mallaboyev M. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2006.
12. O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
13. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: “Universitet”, 2002. – B. 53.
14. Inomxo‘jayev S. O‘tmish sharq notiqligi. – Toshkent: “Bilim”, 1972.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

NUTQ MADANIYATI, NOTIQLIK, NUTQ SHAKLLARI VA TURLARI BO'YICHA KOLLOKVİUM

Reja:

1. Madaniyat tushunchasi haqida.
2. Nutq madaniyati tushunchasi.
3. Nutq odobi va muloqot madaniyati.
4. Nutq turlari.

Mashg'ulot annotatsiyasi

Madaniyatning bir bo'lagi sifatida nutq madaniyati ham bir ziylanining ziylilik darajasini belgilaydigan mezon. Ayniqsa, san'at ahli hamisha el nazarida. San'atkor nafaqat kuy-qo'shiq ijrosi, balki sermazmun, ta'sirchan, jozibador nutqi bilan ham tinglovchi va suhabatdoshni sehrlab qo'ya olishi lozim. Aslida nutqning sehri kuy, qo'shiq sehrdan qolishmaydi. Xullas, san'atkor oddiy, to'pori nutqda gaplashmasligi joiz.

Madaniyatli kishi nutq madaniyatining sir-astoridan voqif bo'lishi lozim. Buning uchun, avvalo, o'zbek tilining nufuzi, o'rni, tavsifi, ahamiyatini bilish zarur.

Nutq – madaniyat shakli va ifodalovchisi. Nutq madaniyati muloqot madaniyatining tarkibiy qismi.

Nutq vositasi, maqsadi, usuli, xoslanishi kabilar bilan turlarga bo'linadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: "Navro'z", 1997.
2. Kaykovus. Qobusnomalar. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi", 2006.
3. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

4. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlod”, 2010.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.

6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.

Qo‘sishimcha adabiyotlar:

7. A’lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1989.

8. Qilichev E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.

9. Jumaxo‘ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: “Sharq”, 1998.

10. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: “Akademiya”, 2007. – B. 224.

11. Tojiyev Y., Mallaboyev M. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2006.

12. O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.

13. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: “Universitet”, 2002. – B. 53.

14. Inomxo‘jayev S. O‘tmish sharq notiqligi. – Toshkent: “Bilim”, 1972.

15. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

MADANIY NUTQNING TALAFFUZ VA IMLO ME'YORLARI BO'YICHA MASHQ

Reja:

1. Madaniy nutqning talaffuz me'yorlari.
2. Madaniy nutqning imlo me'yorlari.
3. O'zbek lotin alifbosidagi yangi imlo me'yorlari.

Mashg'ulot annotatsiyasi

Orfoepik, ya'ni talaffuz me'yorini til birliklarining og'zaki nutq jarayonida adabiy til me'yoriga muvofiq kelishi masalasi bilan shug'ullanadi. Talaffuz me'yorini ishlab chiqilgan, orfoepik lug'atlar tuzilganligiga qaramay, nutqda til birliklarining talaffuzida xatoliklar uchraydi. O'zlashma so'zlar talaffuzidagi xatoliklar, so'zni yozilgandek talaffuz etish, qabul qilingan so'zni o'zbekcha urg'u va talaffuz bilan aytish etish kabilar.

Imloviy me'yor yozma nutqning madaniylik darajasini belgilovchi muhim omil. Bu me'yor til birliklarini to'g'ri yozish qonun-qoidalariga asoslanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ikki yozuv turiga asoslangan imlo qoidalari bilan ish ko'rilmogda. Bular: 1. Kirillcha-o'zbekcha yozuvga asoslangan imlo qoidasi. Bu qoida 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan bo'lib, 72 paragrafdan iborat qonun-qoidalarni qamrab oladi. 2. Lotincha-o'zbekcha yozuvga asoslangan imlo qoidasi. Bu qoida 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan, unda 82 ta imlo qoidasi berilgan. Har ikki imlo qoidalari ham hozirgi kunda amalda, imloviy me'yorni tartibga keltirishga, uni mukammallashtirishga xizmat qilmoqda. Har bir imlo me'yorini o'z o'rnida maqbul.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: "Navro'z", 1997.
2. Kaykovus. Qobusnomalar. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi", 2006.

3. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

4. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – Toshkent: "Yangi asr avlod'i", 2010.

5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.

6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: "O'qituvchi", 1989.

8. Qilichev E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.

9. Jumaxo'ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: "Sharq", 1998.

10. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.

11. Tojiyev Y., Mallaboyev M. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.

12. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.

13. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: "Universitet", 2002. – B. 53.

14. Inomxo'jayev S. O'tmish sharq notiqligi. – Toshkent: "Bilim", 1972.

15. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net

2. www.thinsan.com

3. www.uforum.uz

4. www.literature.uz

MADANIY NUTQNING GRAMMATIK VA USLUBIY ME'YORLARI BO'YICHA MASHQ

Reja:

1. Madaniy nutqning grammatik me'yorlari bo'yicha mashq.
2. Madaniy nutqning uslubiy me'yorlari bo'yicha mashq.

Mashg'ulot annotatsiyasi

Grammatik me'yor morfologik va sintaktik me'yordan iborat. Bu me'yor so'z shakl, qo'shimcha, so'z birikmasi va gap tuzish jarayonini tartibga soladi. O'zbek tilida morfologik me'yor asosida qo'shimchalarining tegishli shakllari qabul qilingan. Biroq nutqda qo'shimcha bilan bog'liq nome'yoriy holatlar uchraydi. Ko'p hollarda -ning va -ni, -ga va -da kelishik qo'shimchalarini qo'llashda yoki -li va -lik qo'shimchalarini farqlashda, -kaz va -qaz va boshqa nisbat qo'shimchalari qo'llanishida xatolikka yo'l qo'yiladi. Bunday holat ba'zan sintaktik sath birliklarining qo'llanishida ham kuzatiladi. Masalan: *Otadek farzandiga kim kuyar axir, O naqadar og'ir farzandning dog'i* (Shukrullo). Berilgan gapda so'zlar tartibiga rioya qilinmagan, ya'ni *otadek* va *farzandiga* so'zlarining noto'g'ri o'rinalashuvি sintaktik me'yor buzilishiga dalil. Adabiy tilning uslubiy me'yori nutq vaziyati, so'zlovchining kommunikativ maqsadi asosida til birliklaridan eng ma'qulini qo'llashni tartibga soladi. Uslubiy me'yor asoslari: a) til birligi hamma uchun yagona va mushtarak bo'lishi; b) uzoq vaqt keng qo'llab kelingan bo'lishi.

Uslubiy me'yor nutq ko'rinishini belgilashda zarur. Nutqning vazifaviy uslublari o'ziga xos til birligini qo'llashni talab qiladi. Til birligining so'zning noo'rin qo'llanishi yoki noaniq ishlatalishi uslubiy xatolik sanaladi. Misol: *Otning jilovini siltab, tezlashni qistadi* (M.Hakim. "Uchrashuv"). Buning o'miga *Otni jadallatdi* jumlasining qo'llanishi ma'qul.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: "Navro'z", 1997.

2. Kaykovus. Qobusnomalar. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.
 3. Mahmudov N. O‘qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
 4. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlod”, 2010.
 5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009.
 6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
- Qo‘sishimcha adabiyotlar:**
7. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
 8. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.
 9. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: “Adolat”, 2004.
 10. A’lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1989.
 11. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1989.
 12. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
 13. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: “Cho‘lpon”, 2012.
 14. Jumaxo‘ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: “Sharq”, 1998.
 15. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: “Akademiya”, 2007. – B. 224.
 16. Tojiev Y., Mallaboyev M. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2006.
 17. O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalar. – Toshkent, 1956.
 18. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: “Universitet”, 2002. – B. 53.
 19. Nazarov K. O‘zbek tili punktuatsiyasi. – Toshkent: “Universitet”, 1996, 39-b.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

FIKRNI NUTQ USLUBLARIGA MOS IFODALASH BO'YICHA TRENING

Reja:

1. Nutq uslublari bo'yicha savol-javob.
2. Fikrni badiiy uslubga mos ifodalash.
3. Fikrni ilmiy uslubga mos ifodalash.
4. Fikrni rasmiy uslubga mos ifodalash.

Mashg'ulot annotatsiyasi

Uslubiyat tilshunoslik fani bo'limi, u nutq jarayonida til hodisasidan maqsad, sharoit va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatini o'rganadi va o'rgatadi. O'zbek adabiy tilida 5 ta asosiy nutq uslubi bor: so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub. Ayrim darslikda so'zlashuv uslubidan boshqa barcha uslub kitobiy uslub degan umumiyl nom ostida beriladi. Barcha uslubda cheklanmagan tarzda ishlatalidigan so'z va qo'shimcha uslubiy betaraf deyiladi: *suv, tog', bola, xat*. Keng qo'llanadigan uslubdan biri – so'zlashuv uslubi. Bunda, odatda, adabiy til me'yoriga rioya qilinmaydi va nutq chetdan rasman nazorat etilmaydi. So'zlashuv uslubidagi gap asosan dialogik shaklda bo'ladi.

Fan-texnikanining turli tarmog'iga doir ilmiy asar, darslik ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma'lumot asosida chiqarilgan ilmiy xulosa (qoida, ta'rif)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslubdan farq qiladi: *Yomg'ir – suyuq tomchi holidagi atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo'ladi.*

Davlat idorasi tomonidan chiqariladigan qaror, qonun, nizom, xalqaro hujjat rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnama, chaqiruv qog'izi, taklifnama, shartnama, tarjimayi hol, e'lon, tavsifnama, dalolatnama, hisobot kabilar rasmiy uslubda

bitiladi. Bunday uslubdagi hujjat qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli bo‘lishi lozim.

Tashviqot-targ‘ibot ishini olib borishda qo‘llanadigan uslub publisistik uslub deyiladi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so‘zlar ko‘p qo‘llanadi, obrazli so‘z va birikmalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan keng foydalilaniladi. Darak, his-hayajon va ritorik so‘roq gap, yoyiq undalma, takroriy so‘z va birikma unumli qo‘llanadi.

Badiiy asarlar badiiy uslubda yoziladi. Badiiy asar kishiga ma’lumot berish bilan birga, timsol (obraz)lar vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi. Badiiy asar uslubi aralash uslub hisoblanadi. Unda so‘zlashuv uslubiga, kitobiy uslubga xos o‘rin ham uchraydi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: “Navro‘z”, 1997.
2. Kaykovus. Qobusnomalar. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.
3. Mahmudov N. O‘qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlod”, 2010.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
7. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
8. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.
9. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: “Adolat”, 2004.
10. A‘lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1989.
11. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1989.

12. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
13. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: "Cho'lpon", 2012.
14. Jumaxo'ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: "Sharq", 1998.
15. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.
16. Tojiev Y., Mallaboyev M. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.
17. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
18. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosи va imlosи. – Toshkent: "Universitet", 2002. – B. 53.
19. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. – Toshkent: "Universitet", 1996, 39-b.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

YOZMA MADANIY NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI

nutqning to'g'riliqi, aniqligi, mantiqiyligi, jo'yaliligi voqelanishi tahlili

Reja:

1. Yozma matnning to'g'rilik sifati.
2. Yozma matnning aniqlik sifati.
3. Yozma matnning mantiqiylik sifati.
4. Yozma matnning o'rinnilik sifati.

Mashg'ulot annotatsiyasi

Nutq – so'zlovchi/yozuvchi tomonidan tinglovchi/o'quvchiga qaratilgan matn ko'rinishi. Nutq madaniy bo'lishi uchun ma'lum talablarga javob berishi lozim. Bu talablar – nutqning to'g'riliqi,

aniqligi, mantiqiyligi, ta'sirchanligi, tozaligi, o'rinnligi va maqsadga muvofiqligi kabilar.

Nutqning to'g'riliqi – adabiy nutq me'yorlari (talaffuz, so'z yasalishi, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy)ga qat'iy mosligidir. Har qanday to'g'ri nutq madaniy bo'lishi uchun boshqa kommunikativ sifatlarga ham ega bo'lishi kerak.

Nutqning aniqligi til birliklarining o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liq. Grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq, muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik mantiqning buzilishiga olib keladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: "Navro'z", 1997.

2. Kaykovus. Qobusnomalar. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi", 2006.

3. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

4. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – Toshkent: "Yangi asr avlod", 2010.

5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009.

6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.

8. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2003.

9. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: "Adolat", 2004.

10. A'lamova M. Nutqda aks yetar bir olam boylik. – Toshkent: "O'qituvchi", 1989.

11. Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent: "Yosh gvardiya", 1989.

12. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
13. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: "Cho'lpon", 2012.
14. Jumaxo'ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: "Sharq", 1998.
15. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.
16. Tojiev Y., Mallaboyev M. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.
17. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 1956.
18. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: "Universitet", 2002. – B. 53.
19. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. – Toshkent: "Universitet", 1996, 39-b.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

OG'ZAKI MADANIY NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI

nutqning sofligi, boyligi, ifodaliligi voqelanishi tahlili

Reja:

1. Og'zaki nutqning sofligi.
2. Og'zaki nutqning boyligi.
3. Og'zaki nutqning ifodaliligi.

Mashg'ulot annotatsiyasi

Nutqning sofligi nutqqa o'rinsiz kiritilgan yot unsur (sheva, eskirgan, arxaik, vulgar, varvar so'z va iboralar)lardan xolilikni ifodalaydi.

Nutqda tilning rang-barang ifoda vositalari qanchalik ko'p aks etgan bo'lsa, bunday nutq boy nutq sanaladi. Nutqda tilning ifoda vositalari me'yordan ortiq qo'llansa ham, nutq bachkanalashadi.

Ta'sirchan nutq tinglovchi va o'quvchi e'tibori va qiziqishini qozonadigan xususiyatlarga ega bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligiga erishishda trop va uslubiy figuralardan foydalaniladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: "Navro'z", 1997.
2. Kaykovus. Qobusnomalar. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi", 2006.
3. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – Toshkent: "Yangi asr avlod", 2010.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009.
6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2003.
10. A'lamova M. Nutqda aks etar bir olam boylik. – Toshkent: "O'qituvchi", 1989.
11. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
12. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.
13. Tojiyev Y., Mallaboyev M.. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.
14. Inomxo'jayev S. O'tmish sharq notiqligi. – Toshkent: "Bilim", 1972.

15. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

NUTQNING QISQALIGI BO'YICHA TRENING

Reja:

1. Nutqning qisqaligi va mantiqiyligi.
2. Nutqning qisqaligi va to'g'riligi.
3. Nutqning qisqaligi va va boyligi.

Mashg'ulot annotatsiyasi

Nutqda so'z va iboralarga ortiqcha ruju qo'yish e'tiborsizlik, fikriy tanballik, ruhiy-lisoniy loqaytdilik sifatida baholanadi.

Ixcham jum'lalarda mantiq buzilishi, uslubiy g'alizliklar kam kuzatiladi. Biroq ixchamlik noaniqlikka olib kelmasligi kerak.

Ayrim uslublarda ixchamlik birlamchi talab bo'lmaydi. Masalan, qonun matnlarida aniqlik birinchi o'rinda bo'lib, zaruratga qarab gap va matnlar kengayib ketaverishi mumkin. Ammo ortiqcha kengayish ham, haddan tashqari qisqalik ham nutqning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini esda tutish lozim.

Nutqning qisqaligi sifatini oshirishda yozuvchi Abdulla Qahhorning o'gitlaridan, tajribalaridan ibrat olish kerak kerak.

Axborot asrida nutqning qisqaligi katta ahamiyat kasb etmoqda. Hatto qisqartirib yozishlar ham odat tusini olmoqda. Qisqartma so'zlar nutq qisqaligiga erishish usullaridan biridir.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: "Navro'z", 1997.
2. Kaykovus. Qobusnoma. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi", 2006.

3. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

4. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – Toshkent: "Yangi asr avlod", 2010.

5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009.

6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.

9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2003.

10. A'lamova M. Nutqda aks etar bir olam boylik. – Toshkent: "O'qituvchi", 1989.

11. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.

12. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.

13. Tojiyev Y., Mallaboyev M.. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.

14. Inomxo'jayev S. O'tmish sharq notiqligi. – Toshkent: "Bilim", 1972.

15. Badiiy uslub va tilning ifoda vositalari. – Samarqand, 1994.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net

2. www.thinsan.com

3. www.uforum.uz

4. www.literature.uz

FIKRNI TURLI NUTQIY SHAROIT VA VAZIYATGA MOS IFODALASH MASHQLARI

Reja:

1. Nutqning nutqiy sharoitga mosligi.
2. Nutqning tinglovchiga mosligi.

Mashg‘ulot annotatsiyasi

Pragmatik kompetensiya til imkoniyatlaridan nutq sharoiti, vaziyatiga mos ravishda foydalanishini bildiradi. Nutqiy faoliyatda nutq uslublari, nutq maqsadi, uning turlari (oshkora yoki yashirin), shakllari (xabar, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va’da berish, salomlashish, so‘rashish, xayrlashuv, uzr, tabrik, shikoyat kabilar), nutq strategiyasi, taktikasi kabilar bevosita real nutqiy vaziyat bilan bog‘liq ravishda reallashadi. Ona tilining keng imkoniyatlaridan aniq nutqiy vaziyatda, nutq uslubida oqilona, samarali foydalana olish malakasiga ega bo‘lishga erishish pragmatik salohiyatning negizini tashkil etadi.

Har bir kishi muayyan muloqot vaziyatida o‘z maqsadiga muvofiq ravishda ko‘plab variantdosh til hodisalaridan ayni shu vaziyat uchun mosini tanlab qo‘llash malakasiga ma’lum darajada ega. Masalan, bir kishi ikkinchi bir kishini o‘z oldiga kelishga undamoqda. Bu “Bu yoqqa kel!”, “Bir kelgin!”, “Bir kelib ket!” “Kelasanmi!”, “Kelaqol!”, “Keling-da!”, “Hoy, bu yerga!”, “Ey, bu yoqqa!”, “Menga qara(ng)!”, “Bir daqiqa!” “Mumkinmi?” “Falonchi (jon/xon/aka/opa)!” kabi yuzlab ifodalar, har xil imo-ishoralar yordamida voqelanish imkoniga ega. Lekin ular qanday nutqiy vaziyatda, kimga nisbatan ishlatalishi, qanday samara berishi jihatidan keskin farqlanadi. Bunda so‘zlovchining ushbu sharoit, vaziyat uchun kamroq quvvat sarflab, qo‘proq samaraga erishishini ta‘minlaydigan til birligini tanlash kompetensiyasi ishga tushadi. Boshqacha aytganda, kishida tilning “Bu yoqqa kel!” xazinasidan nutq vaziyati, sharoitiga muvofiq foydalanish layoqatining rivojlanganlik darjasini muloqot natijasi va samarasiga jiddiy ta’sir qiladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: “Navro‘z”, 1997.

2. Kaykovus. Qobusnomा. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.
3. Mahmudov N. O‘qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodи”, 2010.
5. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

 7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
 8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.
 9. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.
 10. A’lamova M. Nutqda aks etar bir olam boylik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1989.
 11. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
 12. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: “Akademiya”, 2007. – B. 224.
 13. Tojiyev Y., Mallaboyev M.. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2006.
 14. Inomxo‘jayev S. O‘tmish sharq notiqligi. – Toshkent: “Bilim”, 1972.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH

Reja:

1. Tashkiliy hujjatlar ustida ishlash.
2. Farmoyish hujjatlar ustida ishlash.
3. Ma’lumot -axborot hujjatlari ustida ishlashi.
4. Xizmat yozishmalari ustida ishlash.

Mashg‘ulot annotatsiyasi

Hujjatshunoslikdagi an’ anaga ko‘ra, ish yuritishdagi hujjatlar, eng avvalo, yaratilish o‘rniga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

- a) ichki hujjat (bir muassasaning o‘zida tuziladigan va foydalilanildigan hujjat);
- b) tashqi hujjat (muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladigan hujjat).

Hujjatlar mazmuniga ko‘ra ikki turli bo‘ladi:

a) sodda hujjatlar birgina masalani o‘z ichiga oladi.

b) murakkab hujjatlar ikki yoki undan ortiq masalani o‘z ichiga oladi.

Hujjatarning tayyorlanish xususiyati va darajasi ham benihoya muhimdir. Bu jihatiga ko‘ra hujjatlar quyidagicha tasniflanadi:

- Qoralama;
- Asl nusxa;
- Nusxa;
- Ikkinchı nusxa (dublikat);
- Ko‘chirma.

Deyarli hamma hujjatlar dastlab qoralama nusxada tayyorlanadi, bu hujjat muallifi, ya’ni tayyorlovchining qo‘lyozma dastlabgi nusxasidir.

Bu nusxa tuzatilib, qayta ko‘chirilishi mumkin. Aytish kerakki, qoralama hujjat huquqiy kuchga ega emas. Hozirgi kunda hujjatlar quyidagicha tasniflangan:

- Tashkiliy hujjatlar;
- Farmoyish hujjatlar;
- Ma’lumot-axborot hujjatlari;
- Xizmat yozishmalari.

Hujjatlar tegishlilik jihatiga ko'ra, xizmat yoki rasmiy hujjatlar va shaxsiy hujjatlarga ajratiladi. Xizmat hujjatlari tayyorlanishiga ko'ra, muassasa yoki mansabdar shaxslarga tegishli bo'lsa, shaxsiy hujjatlar yakka shaxslar tomonidan yozilib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarni bajarish bilan bog'liq masalalarga tegishli bo'ladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. – Toshkent: "Navro'z", 1997.
2. Kaykovus. Qobusnomalar. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi", 2006.
3. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009.
5. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

6. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: "Adolat", 2004.
7. Qilichev E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
8. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: "Cho'lpon", 2012.
9. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B. 224.
10. Tojiev Y., Mallaboyev M. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2006.
11. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi, – Toshkent: "Universitet", 1996, 39- b.

Internet saytlari:

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

NAZORAT ISHLARI UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

1. "Nutq madaniyati" fani qaysi fanlar bilan ko'proq aloqador?

- A) Ona tili, adabiyot, biologiya, falsafa
- B) Tarix, jamiyatshunoslik, adabiyot, ona tili
- D) Tilshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya
- E) Adabiyot, tarix, til tarixi, falsafa

2. O'qituvchi nutqi madaniyati fanining vazifasi nimadan iborat?

- A) Adabiy me'yorlarni ishlab chiqish
- B) Tildagi eskirgan unsurlarni yangilash
- D) O'zbek milliy adabiy til faoliyati rivojlanishini kuzatib borish, obyektiv qonunlarni kashf etish
- E) Barcha javoblar to'g'ri

3. Nutq madaniyati tushunchasi tilshunoslikda nimani anglatadi?

- A) Madaniy nutq, ya'ni nutqiy faoliyat
- B) Madaniy nutq bilan bog'liq ilmiy muammo
- D) Tilshunoslik fanining sohasi
- E) Barcha javoblar to'g'ri

4. Qaysi uslub uchun frazeologik birliklarning ishlatalishi xos emas?

- A) Ilmiy va badiiy
- B) Badiiy va rasmiy
- D) Ilmiy va rasmiy
- E) So'zlashuv va ilmiy

5. Nutqning birinchi sifati –

- A) Nutqning sofligi
- B) Nutqning izchilligi
- D) Nutqning ravonligi
- E) Nutqning to'g'riliği

6. Til madaniyatining asosiy tekshirish obyekti nima?

- A) Adabiy til me'yorlari
- B) Lug'at boyligi
- D) Uslubiyat
- E) Imlo

7. Nutqning tozaligiga salbiy ta'sir etadigan unsurlarni ko'rsating?

- A) Varvarizmlar va vulgarizmlar
- B) Arxaizm va dialektizmlar
- C) Neologizm va okkazionalizmlar
- D) A, B javoblar

8. Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalarning o'rtasida o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboraiarni ko'chma ma'noda ishlatalish –

- A) Metonomiya
- B) Metafora
- C) Sinekdoxa
- D) Epitet

9. Epitet so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A) Jim qolish
- B) Takrorlash
- C) Izohlash
- D) O'xshatish

10. Rasmiy uslubda ko'pincha qanday gaplardan foydalilanildi?

- A) Darak va undov gaplardan
- B) Ritorik so'roq gaplardan
- C) Faqat darak gaplardan
- D) Darak va buyruq gaplardan

11. Kanselyarizm –

- A) Xabar, aloqa vositalari

B) Ish qog'ozlari uchun zarar bo'lgan, ma'lum bir shaklda saqlanadigan so'z birikmalari

- C) Parazit
- D) Dag'al so'z

12. Aksentologik me'yор nima?

- A) Urg'uni to'g'ri qo'llash me'yori
- B) Yozuv me'yori
- C) Imloviy me'yor
- D) Talaffuz me'yori

13. So'zning o'zi ifodalayotgan predmet bilan qat'iy mosligi nima deyiladi?

- A) Nutqning to'g'riliği

B) Nutqning mantiqiyligi

D) Nutqning tozaligi

E) Nutqning aniqligi

14. Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun asosan nimalarga asoslanadi?

A) Urg‘u va grammatic me‘yorga

B) So‘zlashuv me‘yorlariga

D) Tarixiy me‘yorlarga

E) Morfologik me‘yorga

15. Notiq –

A) Nutqning madaniyatini yaxshi bilgan odam

B) Fikrni to‘g‘ri yetkazgan odam

D) Mustaqil fikrli, o‘tkir zehnli, o‘z obro‘ va mansabiga ega odam

E) Fikrni mantiq doirasida tuzgan odam

16. Insonning nutq faoliyati 3 ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Bular:

A) Og‘zaki, yozma, badiiy

B) So‘zlashish, mutolaa, tinglash

D) Ta‘lim olish, maslahat berish, gapirish

E) Isonparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik

17."Qobusnomा" asari 44 bobdan iborat bo‘lib, shundan 40 bobi hayotiy voqealarga, qolgan 4 bobi nimaga bag‘ishlangan?

A) Diniy mavzuga

B) Urf-odatlarga

D) Notiqlik san‘atiga

E) Olimlar haqida

18. Aristotel eramizdan avvalgi 335-yilda notiqlik san‘ati nazariyasiga bag‘ishlab qanday asar yozgan?

A) "Ritorika"

B) "Poetika"

D) "Qobusnomा"

E) "Notiqlik san‘ati"

19. Tog‘lardagi qip-qizil lola, Bo‘lib go‘yo yoqut piyola, Buloqlardan uzatadi suv, El ko‘zidan qochadi uyqu. She’riy parchada tilning tasviriy vositalaridan qay biri qo‘llangan?

A) O‘xshatish

B) Qiyo slash

D) Sinekdoxa

E) Metonomiya

20. Alisher Navoiyning qaysi asarida "Nasihat ahli voizlar zikrida" degan fasli bor?

- A) "Mahbub ul-qulub"
- B) "Majolis un-nafois"
- D) "Nasoyim ul-muhabbat"
- E) "Sabhati abhur"

21. "Ma'dani inson guhari so'z durur, gulshani odam samari so'z durar", "Ko'p demak so'zga mag'rurlik va yemak nafsga mag'rurlik". Yuqoridagi fikrlarning muallifini toping?

- A) Bobur
- B) Navoiy
- D) Zamaxshariy
- E) Koshg'ariy

22. Qaysi uslubda qo'shma gaplar faol qo'llanadi?

- A) Ilmiy uslubda
- B) Rasmiy uslubda
- D) Ommabop uslubda
- E) Badiiy uslubda

23. Qaysi uslubda atamalar kamroq qo'llanadi?

- A) Ommabop uslubda
- B) Ilmiy-ommabop uslubda
- D) Badiiy uslubda
- E) Rasmiy uslubda

24. Dialektizm qanday so'z?

- A) Ma'lum ijtimoiy guruh vakillari nutqi
- B) Noo'rin qo'llangan chet so'z
- D) Dag'al, qo'pol, harakat so'z
- E) A, B javoblar to'g'ri

25. Nutqning tozaligi deganda nimani tushunasiz?

- A) Adabiy til me'yorlariga yot bo'lgan birliklarning qo'llanmasligi
- B) Dialektizmlarning qo'llanmasligi
- D) Nutq mantiqiyligiga rioya qilish
- E) Nutq ifodaviyiligini oshirish

26. Milliy o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi nutq qanday nomlanadi?

- A) Og'zaki
- B) Rasmiy
- D) Individual

E) Jargonik

27. Adabiy me'yorning qanday ko'rinishlari mavjud?

A) Og'zaki va yozma

B) Imloviy

D) Uslubiy

E) Fonetik

28. "Kitobxonga bir fikrni yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq ravon va sodda til kerak" Yuqoridagi so'zlar muallifi kim?

A) Oybek

B) A.Qahhor

D) A.Qodiriy

E) A.Oripov

29. "Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bil, ularga rivoja qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir" so'zлari kimga tegishli?

A) Avloniy

B) Navoiy

D) Kaykovus

E) Fitrat

30. Ukush so'zlama so'z biro so'zla oz, Tuman so'z tugunin bu bir so'zla yech. (So'zni ko'p so'zlama, kamroq so'zla, tuman (o'n ming) so'z tugunin shu bir so'z bilan yech) misralarining muallifi kim?

A) Bobur

B) Koshg'ariy

D) Yusuf Xos Hojib

E) Navoiy

31. Voiz –

A) Olim

B) Kofir

D) Johil

E) Notiq

32. "Kitobxonga bir fikr yoki narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak". Yuqoridagi so'zlar muallifi kim?

A) Said Ahmad

B) Oybek

D) A.Qahhor

E) A.Qodiriy

33. “O‘qituvchi nutqi madaniyati”asari muallifi –

A) N.Mahmudov

B) F.Dostoyevskiy

D) Dinarx

E) A.G‘ulomov

34. Vulgar so‘z –

A) Xabar, aloqa

B) Parazit

D) So‘kish, haqorat so‘zi

E) Ish qog‘ozlari uchun zarur bo‘lgan, ma’lum bir shaklda saqlanadigan so‘z birikmalari

35. Nahv –

A) Proza

B) She’riy asar

D) Sintaktsis, grammatika

E) She’r o‘lchovi

36. “Fozil odamlar shahri” asarining muallifi –

A) Beruniy

B) Farobiy

D) Ibn Sino

E) Koshg‘ariy

37. M.Koshg‘ariyning to‘liq ismini aniqlang?

A) Ibn Husayn Koshg‘ariy

B) Mahmud ibn Muhammad al-Koshg‘ariy

D) Mahmud ibn ul-Husayn ibn Muhammad al-Koshg‘ariy

E) Koshg‘ariy ibn ul-Husayn o‘g‘li Mahmud

38. Nutq madaniyati kursining maqsadi?

A) Talabalarni o‘qituvchilikka tayyorlash

B) Madaniy nutq haqida to‘liq tasavvur hosil qilish adabiy nutq malakalarini rivojlantirish

D) Tilshunoslikni o‘rgatish

E) Adabiy norma haqida ma’lumot berish

39. Til –

A) Fikr bildirish vositasi

B) So‘zlashish vositasi

D) Ma’naviyat belgisi

E) Barcha javoblar to‘g‘ri

40. Qaysi adib tarbiyani to‘rt turga bo‘ladi?

A) Koshg‘ariy

B) Beruniy

D) A.Avloniy

E) Yusuf Xos Hojib

41. Nutq madaniyati adabiy til me’yorlarini puxta egallahash va ulardan nutqda to‘liq foydalanish nutqning kommunikativ sifatlaridan qaysi biriga tegishli?

A) Nutqning maqsadga muvofiqligi

B) Nutqning mantiqiyligi

D) Nutq tozaligi

E) Nutqning ta’sirchanligi

42. Nutqning tozaligiga putur yetkazuvchi vositalar –

A) Dialektalizmlar

B) Jargonlar

D) Varvarizmlar

E) Barcha javoblar to‘g‘ri

43. Orfoepik me’yor nima?

A) Urg‘uni to‘g‘ri qo’llash me’yori

B) Yozuv me’yori

D) Imloviy me’yor

E) Talaffuz me’yori

44. Quyidagilardan qaysilari notiqlikka mansub asarlar?

A) Sitseron, “Notiqlik”

B) Kvintinmaya, “Notiq bilimi haqida”

D) Jomiy, “Bahoriston”

E) A va B javoblar

45. Nutqning kommunikativ sifatlariga nimalar kiradi?

A) To‘g‘riliqi

B) Aniqligi

D) Mantiqiyligi

E) Barcha javoblar

46. “Hifzi lison” nima?

A) Qadriyatlarni o‘rganish

B) Har millat o‘z ona tili va adabiyotini saqlash

D) Adabiyotni rivojlantirish

E) Hofiz tilini o‘stirish

47. Voizlar kim?

- A) Notiqlik bilan shug‘ullanuvchilar
- B) Taniqli faylasuflar
- D) Nutq matnlarni tuzuvchi yoki yozib beruvchilar
- E) To‘g‘ri javob yo‘q

48. Rimda nechta notiqlik turi ma’lum?

- A) 2 ta: Siyosiy notiqlik va sud notiqligi
- B) 1 ta: Sud notiqligi
- D) 4 ta: Sud, siyosiy, maqtov, huquqiy notiqlik
- E) 3 ta: Sud, siyosiy va va maqtov notiqligi

49. Til madaniyati nima?

- A) Til birliklarining ishlanganligi
- B) Har qanday xabarni tinglovchiga to‘g‘ri yetkazish
- D) Nutqning kommunikativ sifatlari
- E) Yozma nutqni ta’sirli qilib yetkazish

50. Qaysi uslubda qo‘shma gaplar faol qo’llanadi?

- A) So‘zlashuv uslubida
- B) Ilmiy uslubda
- D) Rasmiy uslubda
- E) Publitsistik uslubda

51. Rim notiqlik mакtabining asoschisi kim?

- A) Sitseron
- B) Mark Antoniy
- D) Tiberiy
- E) Kvintillian

52. O‘qituvchi nutqi madaniyati kursining maqsadi –

- A) Madaniy nutq haqida to‘liq tasavvur hosil qilish.
- B) Adabiy nutq malakasini rivojlantirish
- D) A va B javoblar to‘g‘ri
- E) O‘quvchilar ongiga estetik ta’sir etish

53. “Geodeziya” asari kimning qalamiga mansub?

- A) Farobiy
- B) Beruniy
- D) Ibn Sino
- E) Kaykovus

54. Nutq madaniyati haqidagi ta’limot qayerda paydo bo‘lgan?

- A) Rim va Afinada
- B) Ossuriya, Vavilon va Hindistonda

- D) Rim va Ossuriyada
- E) Vavilon va Hindistonda

55. Mark Fabiy Kvintilianning notiqlikka oid qanday asari mavjud?

- A) "Notiq bilimi haqida"
- B) "Ritorika"
- D) "Notiq va Brut"
- E) "Notiqlik haqida"

56. "Ritorika" asari necha qismidan iborat?

- A) 5 ta
- B) 4 ta
- D) 2 ta
- E) 7 ta

57. Notiqlik necha turga bo'linadi?

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- D) 4 ta
- E) 5 ta

58. Til nima?

- A) Aloqa quroli
- B) Hayot ko'zgusi
- D) Ma'naviyat vositasi
- E) Bilimlar to'plami

59. "Notiqlik haqida" asari muallifi kim?

- A) Aristotel
- B) Demosfen
- D) Kvintilian
- E) Sitseron

60. "Qobusnomा" necha bobdan iborat?

- A) 33 bob
- B) 44 bob
- D) 45 bob
- E) 50 bob

61. "Qobusnomা"ning qaysi boblari so'z odobi haqidа?

- A) 6-7 boblari
- B) 7-8 boblari
- D) 8-9 boblari
- E) 9-10 boblari

62. Me'yor nima?

- A) Tilning yashash shakli
- B) Adabiy san'at
- D) So'zlashish uslubi.
- E) Nutqning bir shakli

63. So'zning o'zi ifodalayotgan predmetga qat'iy mosligi nima deyiladi?

- A) Nutqning mantiqiyligi
- B) Nutqning to'g'riliqi
- D) Nutqning aniqligi
- E) Nutqning ifodaliligi

64. Tilning vazifalariga ko'ra necha nutq uslubi farqlanadi?

- A) 4
- B) 5
- D) 6
- E) 7

65. Qaysi uslubda terminlar kamroq qo'llanadi?

- A) Publitsistik uslub
- B) So'zlashuv uslubi
- D) Rasmiy uslub
- E) Ilmiy-ommabop uslub

66. Logograflarning vazifasi –

- A) Nutq matnlarini yozib berish
- B) Nutq so'zlash
- D) Diniy e'tiqodga da'vat qilish
- E) Himoya qilish

67. Ilmiy adabiyotlarda o'zbek adabiy tili me'yorlari:

- A) dialektal, argotik
- B) og'zaki va yozma
- D) eskirgan va neologik
- E) so'zlashuv va badiiy

68. So'zlashuv uslubi nechaga bo'linadi va qaysilar?

- A) 2 ga, og'zaki va adabiy so'zlashuv uslubi
- B) 2 ga, rasmiy va ilmiy uslub
- D) 2 ga, og'zaki va ilmiy uslub
- E) 2 ga, adabiy va rasmiy uslub

69. Dialektlizm –

- A) Ma'lum ijtimoiy guruh vakillari nutqi

B) Shevaga xos so‘zlar

D) Noo‘rin qo‘llangan chet so‘zlar

E) Dag‘al, qo‘pol, haqorat so‘zlari

70. Tildan aloqa va ta’sir qilish maqsadida bemalol va o‘ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta’minlaydigan ko‘nikmalar jami va sistemasi nima?

A) Nutq madaniyati

B) Nutq odobi

D) Til madaniyati

E) Nutqning to‘g‘riliqi

71. Sitseronning nechta nutqi yetib kelgan?

A) 30 ta

B) 43 ta

D) 58 ta

E) 60 ta

72. Nutqning tozaligiga putur yetkazuvchi unsur –

A) piching

B) antiteza

D) matal

E) vulgarizmlar

73. Nutq madaniyati tushunchasini ta’riflashda qanday qarashlar mavjud?

A) Nutq madaniyati –adabiy til rivojining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri

B) Nutq madaniyatining adabiy til rivojiga ongli aralashuvi

C) Nutq madaniyati til vositalaridan o‘rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so‘zlash va yoza olish san‘ati

D) Nutq madaniyati avvalo fikrlash madaniyati

E) Barcha javoblar to‘g‘ri

74. Quyidagilardan qaysi biri Sitseron qalamiga mansub?

A) Notiq

B) Notiqlik bilimi haqida

D) Ritorika

E) Villiada

75. “Nutq madaniyati” fani nimani o‘rganadi?

A) Chiroqli nutq tuzish yo‘llarini

B) To‘g‘ri nutq tuzish yo‘llarini

D) O‘zini tutishni o‘gatadi

E) A, B javoblar to‘g‘ri

76. “Nutq madaniyati” fanining tekshirish predmeti nima?

A) Adabiy me’yor

B) Til

D) O‘qituvchi nutqi madaniyati

E) Nutq sifati, adabiy til me’yorlari

77. Adabiy me’yorning qanday ko‘rinishlari mavjud?

A) Og‘zaki va yozma

B) Ilmiy va rasmiy

D) Jargonik

E) Badiiy va publitsistik

78. Nutq faoliyati qanday ko‘rinishda namoyon bo‘lmaydi?

A) Tinglash

B) Mutolaa

D) Yozish

E) Fikrlash

79. Uzus nima?

A) Bir ijtimoiy guruhning o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan nutqi

B) Biror til tizimi mavjud imkoniyatlarining foydalanib kelinayotgan qismi

D) Adabiy tilning muomaladan tashqaridagi qismi

E) So‘zning ma’no anglatuvchi qismi

80. Sud notiqligiga oid bo‘lgan qatorni toping.

A) Xutba notiqligi

B) Ilmiy notiqlik

D) O‘z-o‘zini himoya qilish

E) Va’z nutqi

81. Pragmatika nima?

A) Vaziyat

B) Nutq

D) Lison

E) Nutqiy faoliyat

82. Logograf –

A) Sheva vakili

B) Tantanali nutq so‘zlovchi

D) Nutq matnlarini tuzuvchi kishi

E) Siyosiy notiq

83. "So'zlarini aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravshan, raxon aytsin" jumlesi kimga tegishli?

- A) Navoiy
- B) Kaykovus
- D) Demosfen
- E) Farobi

84. Varvarizm –

- A) Ish qog'ozlari uchun zarur bo'lgan so'z birikmasi
- B) Parazit so'z
- D) So'kish so'zi
- E) Ajnabiy so'z

85. "Qobusnomasi" kimga atab yozilgan?

- A) Kaykovusning o'g'liga
- B) podshoga
- D) notiqlarga
- E) talabalarga.

86. Alisher Navoiy fikricha voiz qanday bo'lishi kerak?

- A) So'zlarini ta'sirchan
- B) Bilimli
- D) So'zi va ishi bir
- E) Aqli

87. O'rta Osiyoda notiqlik ilmiga asos solgan olim –

- A) Husayin Voiz Koshifiy
- B) Riyoziy
- D) Mehnagiy
- E) Demosfen

88. Nutq tozaligi nima?

- A) Adabiy til normalariga yod bo'lgan birliklarning qo'llanmasligi
- B) Dialektizmlarning qo'llanmasligi
- D) Nutq mantiqiyligiga rioya qilish
- E) Nutq ifodaviyligini oshirish

89. Antiteza nima?

- A) Nutqni buzadigan qo'pol so'zlarni qo'llash
- B) Ishlatilmaydigan so'zlarni qo'llash
- D) Zidlantirish
- E) Shevaga xos so'zlarni berish

90. Nutq to'g'riligi nima?

- A) So'zning o'zi ifodalayotgan narsaning predmet bilan mosligi

B) Tinglovchining shaxsiga tegmaydigan qilib nutq so‘zlash
D) Jumlalarning aniq, lo‘ndaligi
E) Tilning ma’lum bir paytda qabul qilingan normalariga qat’iy
mos kelishi

91. Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun, asosan, nimalarga asoslanadi?

- A) Urg‘u va grammatic me’yorga
- B) So‘zlashuv me’yoriga
- D) Uslubiy me’yoriga
- E) Tarixiy me’yoriga

**92. “Agar nutq noaniq bo‘lsa, u maqsadga erishmaydi” fikrlari
kimga tegishli?**

- A) Kaykovus
- B) Sitseron
- D) Aristotel
- E) Navoiy

93. Navoiy tan olgan voiz kim?

- A) Xoja Ahror Valiy
- B) Xoja Muayyad Mehnagiy
- D) Muayyad ibn Mehnagiy
- E) Mehnagiy ibn Voliy

**94. Sitseronning notiqlik san’ati nazariyasiga va tarixiga oid
asar?**

- A) “Notiqlik haqida”
- B) “Notiq va nutq”
- D) “Notiq bilimi haqida”
- E) “Nutq”

**95. Alisher Navoiy qaysi asarida bir qancha voizlar haqida fikr
bildirgan?**

- A) “Mahbub ul-qulub”;
- B) “Majolis un-nafois”;
- D) “Nasoyim ul-muhabbat”;
- E) “Sab’at abhur”.

**96. Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tillarga bag‘ishlangan
asarlarini ko‘rsating.**

- A) “Devonu lug‘otit turk” va “Javohirun nahv fil lug‘otit turk”
- B) “Hindiston” va “Geodeziya”
- D) “Poetika” va “Ritorika”
- E) “Sarf”

97. Metafora berilgan qatorni toping.

- A) Bog‘ aro qo‘ysam qadam...
- B) Tolibi sodiq topilmas...
- D) Tog‘ etagi yashil libosda...
- E) Boqqa kirsam, gullar sharmanda...

98. Sinekdoxa nima?

- A) O‘xshatish asosli ko‘chim
- B) Vazifa o‘xhashligi
- D) Butun orqali qismni ifodalash
- E) Bog‘liqlik asosidagi ko‘chim

99. Vazifadoshlik nima?

- A) Shakl o‘xhashligi asosidagi ko‘chim
- B) Vazifa o‘xhashligi asosidagi ko‘chim
- D) Butun orqali qismni ifodalash asosidagi ko‘chim
- E) Bog‘liqlik asosidagi ko‘chim

100. Metonimiya nima?

- A) Shakl o‘xhashligi asosidagi ko‘chim
- B) Vazifa o‘xhashligi asosidagi ko‘chim
- D) Butun orqali qismni ifodalash asosidagi ko‘chim
- E) Bog‘liqlik asosidagi ko‘chim

MUSTAQIL O'ZLASHTIRISH UCHUN TARQATMA MATERIALLAR.

NUTQIY HOLAT VA NUTQIY VAZIYAT

Muloqotning tashqi omillaridan biri **nutqiy holat** va **nutqiy vaziyat**dir.

Nutqiy holat, o'z navbatida:

- a) jinsiy tafovut;
- b) saviya;
- v) ijtimoiy mavqe (kelib chiqish);
- g) yosh;
- d) ma'lumot;
- y) mutaxassislik;
- j) ijtimoiy qiymat.

kabi ichki paradigmalarga bo'linadi.

Nutqda muloqot qiluvchining holati yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Quyidagi ikki misolni kuzatish asosida bunga amin bo'lamiz:

1. Yengiltabiat, shallaqi o'zbek ayolinining (og'zaki) nutqi:

- *Mumkinmi? Salom!*

Ruxsatingiz bilan o'zimni tanishtirsam... Men, k sojaleniyu, sizning sochineniylaringizni o'qigan emasman. Xotya eshitganman. V asnavnom, mamashkalar to'g'risida yozarkansiz..

Mening ham to'rtta bolam bor... Nima? "Unaqaga o'xshamaydi-ku", deysizmi? Rahmat, kompliment uchun! Hamma shunaqa deydi. Men mamamga o'xshayman. Mamam oltmish yoshidayam appetitniy edi. Kak kukolka!

Kechirasiz, olovingiz bormi?.. Yo'q-yo'q, men «More» chekaman... Senkyu! Zajigalkangizga gap yo'q!

Itak, to'rtta bolam bor. Maratik – Nukusda. Internatda. Yoshi... minutochku... Yoshi poemu... o'n to'rtda. Shu yil o'n to'rtga kiradi. Papasiga o'xshagan krasavchik, Maratik! Smugliyligi, ko'zlarining razrezi... Papasi bilan birinchi vstrechamiz praktikaga borganimda bo'lgan. Zam ministr edi. Shunaqa abayatelniy, shunaqa intelligentniy!.. Ikki yilcha turdik.. Sivilizovanniy ajrashdik. To'g'risini aytdi. "Jannochnka dedi, jonim dedi, dorogusha dedi, buyog'i prokol bo'ladiganga o'xshaydi, xotinim jaloba yozibdi, dvoejonstva uchun partiyan dan o'chirishlari mumkin", dedi. Bilasiz, u paytda bunaqa

masalalar strogiy edi. "Maratik uchun volnavatsa qilma, o'zim opekaniga olaman, sen Toshkentga ketaver, tez-tez borib turaman" dedi. "O-key" dedim...

...Nigorochka – Samarqandda. Tois, Nigorochka emas, Nargizochka! Nigorochka – Qo'qonda...

Gde-to ikki yil oldin Samarqandga bordim. Nargizochkaning detdomiga kirdim. Detdom – tak sebe, ammo direktori nishtyak ekan! Dyllda! Bo'yi pachti ikki metr! "Bratan, dedim, Nargizochkadan xabar olishim qiyin, ishim ko'p", dedim. "Xotirjam bo'ling, Nargizochkaga o'zim otalik qilaman", dedi. Uch kun mehmon bo'ldim. Kr-r-rutoy erkak ekan! Molodets!

Kstati... Dubayda bo'lganmisiz? Obyazatelno boring! Texnika – pachti darom! Tilla – navalom! Arablar temperamentniy bo'... nu mayli, bunisi nevajno...

2. Iffatlari o'zbek ayolining (yozma)nutqi:

Yusuf savdosida beqaror Zulayxo ismidan, Majnun ishqida yig'lagan Layli otidan – sizga boshimdag'i sochlarimning tuklarigacha behad salom. Menden – haddu-hisobsiz gunoh, sizdan kechirish. O'tgan ishga salovat. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kurlarni esga olish mening uchun o'sha kurlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari. Ul kurlarni siz unuting, unutmang, ammo men unutdim. Shuning uchun so'zimni o'zimning oxirgi ham chin baxt islari hidlagan tariximdan boshlayman.

Siz – qochqoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozgandek bo'lib qochgansiz, ikki yil bo'yi Marg'ilon kelib yurishlaringizni men - o'zimcha yechdim, lekin topib yechdim: sizning barcha mashaqqatlarining – dushmanlaringizdan o'ch olish uchun bo'lganini angladim. Yo'qsa, meni ko'rар edingiz, ko'rgingiz kelmaganda ham, boshqalar sizni ko'rар edilar, tuyar edilar... Men kabi baxtsiz, men kabi g'ovg'asi ko'p sizni zir keltirib, jondan to'ydirgan bo'lsa, ajab emaski, qocha boshlagansiz... Qochsangiz, qochib ko'ringiz, ammo men bu kundan boshlab, birovlarini quvishga bel bog'ladim. Otam bilan onam rafoqatlarida xizmatingizga – cho'rilingizingizga erta-indin yuraman, sevganiningiz kundoshim oldida qadru qiymatimning nima bo'lishini ham bilaman... Siz olijanobsiz: eski qadrdonlar hurmatiga, ko'ngil uchun kulib boqarsiz... Loaqlal shugina bilan ham baxtsizni mas'ud qilarsiz! Ammo... sevganiningiz – kenjangizning jerkishlaridan, qarg'ishlaridan behad qo'rqaman, o'zimda yo'q qo'rqaman. Shu yaqin

oradagi uning bilan bo'ladigan mas'ud daqiqalaringizda xudo yo'liga va'da olingiz – meni og'ritmasin, raqibam keldi deb o'yamasin. Nihoyati maqsadim – ikki do'stga bir cho'rilik va shu munosabat bilan birovlarini ko'rib yurish...

Muloqotda tinglovchining xususiyatini inobatga olish, uning kayfitini buzmaydigan, og'ir botmaydigan qilib so'zlash, kibrga berilmaslik muhim bo'lib, muloqot sifati va uning natijasini belgilaydi.

Quyidagi misol asosida bunga amin bo'lamiz:

O'tmishda tobora kambag'allashib borayotgan bir dehqon yo'l chetida o'ylanib o'tirsa, faqirgina yo'lovchi o'tib qolibdi.

Shunda dehqon:

– *Ey donishmand, nima eksam, men boyib ketaman? – deb murojaat qilibdi. Yo'lovchi unga piyoz ekishni maslahat beribdi. Notanish yo'lovchining gapiga kirgan dehqon o'sha yili chindan ham boyib ketibdi. Shodligidan bosar-tusarini bilmay qolgan dehqonga yana o'sha odmigina yo'lovchi uchrab qolibdi. Dehqon yana so'rabdi:*

– *Ey gado, nima eksam, men yana boyib ketaman? – deb ikkinchi marotaba murojaat qilibdi.*

Shunda u yana bir ekinning nomini aytib, yo'lida davom etibdi. Keyingi yili dehqonning omadi chopmabdi, kambag'allashib ketibdi. Bundan g'azablangan dehqon haligi yo'lovchini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, u tanish yo'lovchini uchratibdi va:

– *Ey nodon yo'lovchi, nega meni aldading? Sening gapingga kirib, yanada boyish o'rniga butkul kambag'allashib ketdim-ku! – deb g'azab qilibdi.*

– *O'zingni bos, – debdi yo'lovchi. – Birinchi yili sen menga "donishmand" deb murojaat qilding. Men senga donishmand javobini berdim. Natijada sen boyib ketding. Keyingi safar menga "gado" deb murojaat qilding va men gadoning javobini berdim, – degan ekan.*

Nutqiy vaziyat paradigmasi quyidagi a'zolardan iborat:

- ko'chada;
- telefonda;
- uyda;
- transportda;
- yozma nutqda;
- auditoriya (zal)da;

N.I.Formanovskaya tasnifiga ko'ra, ko'chada, transportda, kinoteatrda, do'konda yuzma-yuz suhbat masofasiz – bevosita muloqot

turiga kiritilsa, telefon, radio, televideniye, xat, gazeta orqali muloqot kabilar bilvosita masofaviy muloqot turiga mansub. S.Mo'minov har ikkala turning o'ziga xos qulay va noqulay jihatlarga ega ekanligi xususida to'xtalib, og'zaki va yozma vaziyat (holat) bilan bog'liq holda har birining muloqot ishtirokchilariga har xil ta'sir etishini uqtiradi.

Tasniflash haqida babs borganda, hamisha yuqorida ta'kidlab o'tilgan metodologik tamoyilni – istalgan turdag'i tadqiq manbai serqirra hodisa ekanligini, uni har tomonidan tasnif etish mumkinligini, tadqiqotchilar manbaning turlicha tasnif va bo'linishlarini berishar ekan, uning turli qirralariga tayanib ish ko'rishlarini ta'kidlash va bunday tasnif va guruhashlar, bir-birini inkor etgan holda, biri ikkinchisini to'ldirib kelishini unutmaslik kerak. U yoki bu tadqiqotchi tasnif asosi sifatida tanlagan tomonlar tasnif etilayotgan manbaning tabiatini qanchalik aniq va nisbatan to'liq aks ettira oladi, degan muammo – tamoman boshqa masala. Lekin dialektik yondashishda narsa zotida mujassamlangan istalgan belgi-xususiyat faqat ma'lum bir munosabatdagina voqelanishi va ahamiyat kasb etishi, boshqa vaziyat va sharoitda mutlaqo ahamiyatsiz bo'la olishini hisobga olsak, manbada bor belgi-xususiyat mutlaqo ahamiyatsiz bo'la olmasligi, o'rni bilan istalgan tomon ma'lum bir vaziyat uchun eng ahamiyatlari bo'la olishini tan olishga majburmiz. Ma'lumki, og'zaki (fonatsion, tovush) va yozma nutq imkoniyatlari, bevosita kontakt va bilvosita distant muloqot vosita va xususiyatlari bir-biridan ancha farq qiladi. Masalan, bevosita kontakt muloqotda behad katta ahamiyatga ega bo'lgan ovoz tembri va yuz holati bilvosita kontakt muloqotda mutlaqo ahamiyatsiz; distant vositali muloqotda esa har ikkilasi ham ahamiyat kasb etmaydi. Shuning uchun muloqotni turli tomonidan tasnif etgan mazkur olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash bilan kifoyalanamizki, muayyan vaziyatda bu tomonidan har biri o'ziga xos mavqe va ahamiyatga ega bo'ladi. Mana shu dialektik omilga tayangan holda muloqotni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Hayotda har qadamda va muttasil ado etib turilishi zarur bo'lgan axloq, odob, xulq-atvor, burch, yurish-turishimizga xos mayda-chuyda, eng oddiy qoidalarga kishi birdaniga, osongina, darsliklarni o'qish bilangina emas, balki turmushning turli vaziyatlarida sodir bo'lib turadigan juz'iy me'yor yoki prinsiplarni bajarish orqali erisha boradi. Masalan, darvozadan ko'chaga chiqish bilan boshqacha vaziyat sodir bo'ladi, odamlar davrasiga kirib boramiz, ular bilan turli munosabatda

bo‘lamiz. Kim bo‘lishimizdan qat’i nazar, har xil vaziyatda xususiyatimizni shunga muvofiq o‘zgartirib turamiz. Aytaylik, piyoda yoki transportda yuradigan bo‘lsak – yo‘lovchi, do‘konga kirsak – xaridor, oshxonada – xo‘randa, kinoteatrda – tomoshabin, ishga borsak – ishchi/xizmatchi/o‘qituvchi/ijrochi bo‘lib qolamiz. Shuni hisobga olish kerakki, ulardan har birining muloqoti o‘ziga xos qonun-qoidalarga – me’yorlarga ega va bir holatdan ikkinchi holatga o‘tar ekanmiz, onglimi-ongsizmi, shu holat uchun me’yor bo‘lgan muloqot normalariga bo‘ysunamiz, har safar yangi bo‘lgan holatimizga o‘zimizni moslashtiramiz, o‘zgarib turamiz. Nutqiy vaziyatga moslashamiz.

Nutqiy vaziyat. NM tashqi omilining tarkibiy qismi sifatida *nutqiy vaziyat* alohida mohiyat kasb etadi. Ko‘cha-ko‘yda ketayotganda, bu nechog‘li oddiy bir narsadek tuyulmasin, uning qoidalari juda ko‘p va ana shularni ado etish orqali kishi o‘z turmush madaniyatini namoyish qila bilishi mumkin. Ko‘cha-ko‘yda tanish-bilishlarni ko‘rganda samimiyl salomlashish, ko‘nglini xushnud qiladigan ikki og‘iz so‘zni ayamaslik, uzoqdan birovni ko‘rib qolganda baqirib yoki hushtak chalib chaqirmaslik odobdan hisoblanadi. Ko‘chada faqat tanishlarga emas, notanish kishilarga ham salom berish yaxshi odat. Masalan, odam siyrak, onda-sonda uchraydigan joylarda ro‘paradan chiqib yuzma-yuz kelayotgan keksa kishiga, u hatto tanish bo‘lmasa ham, bosh egib salom berish – madaniyatilik belgisi.

Nutqiy vaziyat uchun zamon va makon muhim ekanligi xususida Van Deyk shunday deydi: “Gavjum ko‘chada men notanish kishi bilan salomlashmagan bo‘lar edim, lekin kimsasiz tog‘da yoki orolda, yolg‘izoyoq so‘qmoqda notanish kimsani uchratib qolsam, salem-alik qilishim turgan gap”.

Odatda, yurib ketayotgan odam o‘tirgan kishiga birinchi bo‘lib salom beradi. Ilgari otliq odam piyoda ketayotgan kishiga dastlab salom bergen. Shu o‘rinda bir rivoyatni eslash foydadan xoli emas. *Bir kuni Abdurahmon Jomiy bir guruh a‘yonlar bilan kelayotib, yo‘l o‘rtasida o‘ynab o‘tirgan bir kichik bolaga duch kelibdilar. Mavlono Jomiy otdan tushib, bolaga ta‘zim bilan “Assalom-u alaykum” debdilar. Hamrohlari hayratda qolib so‘rashibdi:*

- *Mavlono, siz ulug‘ orif bo‘lsangiz-u, nechuk bu go‘dakka ta‘zim ila salom berursiz? Jomiy shunday javob qilgan ekan:*

- *Ey, yaxshilar, bilingki, bu bola mening muallimim farzandi erur.*

Masofali muloqotda makon va zamonga ko'ra kommunikantlar o'rtaida ma'lum bir masofa bo'ladi. Muloqotning bu turiga telefon orqali gaplashishni kiritish mumkin. Odatda telefon qilgan kishi kim bo'lishidan qat'i nazar, birinchi bo'lib salom berishi, so'ngra o'zini tanitishi, maqsadini lo'nda va aniq bayon qilishi kerak. Videotelefonda gaplashganda esa yoshi va mavqeい kichikroq odam birinchi bo'lib salom beradi. Uzundan-uzoq salomlashish, apparatni uzoq vaqt band qilish odobdan emas.

Salom berish vaziyat bilan bevosita bog'liq ekan, salomlashish mumkin bo'limgan joylar xususida o'tmish allomalarimizdan biri Muhammad Sodiq Koshg'ariyning "Odob as-salohin" ("Yaxshi kishilar odobi") kitobida shunday deyiladi: "... o'n bir joyda salom bermangki, makruhdur va javob lozim emas. Avval hojatdagি kishiga. Ikkinci, xotunig'a mubosharat qilg'on kishiga. Uchinchi, kishi uxlog'on vaqtida. To'rtinchi, hammomda junub (yuvinmagan)ga. Beshinchidan, taom yeb turg'on kishiga, agar taom og'zida bo'lmasa, salom joiz va lozimdur. Oltinchi, xatib (imom)g'a xutba o'qug'on vaqtida. yettinchi, muazzinga azon va iqomat aytib turg'on vaqtida. Sakkizinchi, namoz o'qub turg'on kishiga. To'qqizinchi, Qur'on o'qib turg'on kishiga. O'ninchi, duo o'qib turg'on kishiga. O'n birinchi, muhrum (hajga ehrom kiyuvchi) talmih etib turg'on holda.

Yuzma-yuz muloqot so'zlovchidan ham ko'ra tinglovchiga ko'proq naf keltiradi. Bu boradagi taddiqot natijalariga qaraganda, kishi fikrini sim (telefon) orqali bayon etganda suhbatdoshi u aytmoqchi bo'lgan fikrning nari borsa 55 % ini, yuzma-yuz suhbatlashganlarida esa 80 %, hatto 95 % ini o'zlashtirar ekan. Buning asosiy sababi shundaki, har bir insonning o'z biologik maydoni mavjud bo'lib, shu maydon ichida uning fikrini uqish ancha oson kechadi.

Shu boisdan bo'lsa kerak, odamlar hamisha o'zlar yoqtirgan, didlariga ma'qul keladigan kishilar bilan diydorlashishga, yuzma-yuz muloqot qilishga intiladilar. Jumladan, odamlar el nazariga tushgan shoir va yozuvchilar, hofiz va xonandalarni radio orqali eshitgan, hatto siymolarini oynayi jahon orqali bir necha marta ko'rgan bo'lishlariga qaramay, o'zlarida "tirik shoir", "tirik hofiz"ni ko'rish istagini his etib yashaydilar. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, diydor jarayonida – vaziyatida odamlar bu iste'dod egalari bilan hamnafaslik (bir biologik maydon ichida bo'lish), o'zlarini ko'rish orqali ular haqidagi tasavvurlarini kengaytirish imkoniga ega bo'ladilar.

Kishi nutqiy muloqotga kirishar ekan, bu muloqot qaysi jamiyatda voqelanishini bilishi zarur. Zero, har bir jamiyatning nutq shtamplari, muloqot doirasi va mavzusi, leksikasi o'ziga xos. Bunda nutq vaziyati *nutq sharoiti* bilan kesishadi va nafaqat jamiyat, balki ayni bir jamiyatning turli tarixiy davrlaridagi ijtimoiy, milliy, etik, estetik me'yor va qoidalari ham ahamiyatli. Shu nuqtayi nazardan "O'tgan kunlar" asarida barchaning suyukli qahramoni bo'lgan Otabekning ikki o'ta ziddiyatli holatida hozirgi kitobxon uchun unchalik tushunarli bo'lмаган nutqi xususiyatlari tahlili ustida to'xtalamiz. Birinchisi, Otabekning Homid bilan hayot-mamot kurashi (pichoqlashishi) holatida:

Homid qo'lini bo'shatishka urinar ekan, Otabek salmoqqina qilib dedi:

- *Ortiqcha oshiqmangiz, Homidboy, men sizning xanjarlik qo'lingizni bo'shataman hozir, ammo shungacha siz bilan ikki og'iz so'zim bor!*

Homid hanuz qo'lini bo'shatishga kuchanar edi.

- *Kuchanmangiz, Homidboy!*

- *Mard yigit bo'lsang, qo'limni qo'y!*

- *Oshiqma, qo'yaman! – dedi Otabek.*

Xanjarli qo'li bilan tuynukka ishorat qilib, Otabek so'z boshladi.

- *Siz mendan ham yaxshiroq bilasizki, shu uyda sizni allaqancha mashaqqatlarga solgan, cheksiz jonivorliqlar ishlatskan va hisobsiz tillalar to'kdirgan, nihoyat shu daqiqaga keltirib to'xtatgan birov uxbaydir. Agarda sizning mening tilimdan yozib bergen taloq xatingiz durust hisoblanmasa, bu uxlug'uvchi mening halol rafiqam bo'lib, ikki yildan beri men ham uning ko'yida sargardonman. Demak, siz bilan mening oramizda shu birov uchun kurash boradir. Lekin siz shu choqqacha mening ustidan muvaffaqiyat qozonib keldingiz: qora chophonchi, deb dor ostlarigacha olib bordingiz, Musulmonqul qo'liga topshirdingiz, bu ishlaringiz foydasiz chiqqach, ismimdan taloqnomaga yozib, ikki yillab rafiqamdan ayirib turishga muvaffaq bo'ldingiz... Endi menga javob beringiz-chi: bu yomonliklaringizda siz haqlimi edingiz?*

- *Haqli edim! – dedi Homid va siltab xanjarli qo'lini bo'shatib chalqancha yiqildi...*

Izzat-hurmatli, madaniyatli, tarbiyali, kitobxonga har tomonlama ibrat bo'la oladigan xonadon farzandi bo'lmish Otabek ijtimoiy tabaqa

(beklik) jihatidan o'zidan o'nlab pog'ona pastda bo'lmish Homidni sizlaydi. Homid unga juda qo'pol munosabatda bo'lsa hamki, u keyingi murojaat shaklida ham Homidni sizlashni kanda qilmaydi. Nega?.... Javob juda sodda. Otabek – izzat-hurmatli, tarbiyali xonadon farzandi bo'lish bilan birga, o'z qadr-qimmatini biladigan, g'ururini himoya qila oladigan, har qanday sharoitda ham g'ururining poymol bo'lishiga yo'qo'ymaydigan, yuksak madaniyatli inson. Birovni sensirash uning zotiy tabiatiga xilof. Shuning uchun u o'z ashaddiy dushmaniga ham sizlab murojaat qiladi.

Ikkinchi holat: Kumush o'layotgan paytda uning Zaynabga aytgan so'zlarini esga olaylik. Yuqorida ko'rsatganimizdek, muloqotda oliv madaniyat sohibi bo'lgan Otabekning nutqiy xulqida hozirgi kitobxonni hayratlantiruvchi bir lavha mavjud. Bu ham bo'lsa Kumushbibi halokat jarayonida bo'lganida Zaynabga nisbatan "taloq" so'zidan boshqa yana bir qo'pol haqorat ifodasini ishlatalishidadir. Otabek Zaynabni buzuqlikka, xiyonatga, sotqinlikka ishora qiluvchi haqorat so'z bilan ataydi. Lekin romanning butun bayonida Zaynabning xiyonati yoki buzuqlikka mayli bo'lganligiga ishora qiluvchi bir og'iz ham so'z yoki shama yo'q. Nega Otabek shu haqorat so'zni qo'lladi va **otasi, onasi, Kumushbibi, Oybodoq** (to'rt guvoh) huzurida bu so'zni baland ovozda qahr-u g'azab va "taloq" so'zi bilan birgalikda ishlatgani hozirgi kitobxon uchun mutlaqo tushunarsiz. Zero, yaralangan, ikki dushmanini o'ldirgan, ashaddiy dushmani bo'lmish Homidboyning xanjarli qo'lini qisib turgan Otabekning dushmanini sizlab gapirishi, lekin ko'pchilik qarindoshlari huzurida halol xotinini haromi, buzuq deb so'kishi – u odam o'lirgan bo'lsa-da – hech o'zaro mos kelmaydigan holatlardir.

Bu lavhaning siri muhit – Otabek yashab turgan davrning mutlaq Qonuni – o'sha davr Konstitutsiyasi bo'lmish shariat ahkomlari bilan bog'liq. Hozirgi kitobxon bu ahkomlardan yiroq bo'lganligi uchun ham Otabekning haqorat so'zni ishlatgani sabablari unga uncha ayon emas. Gap shundaki, shariat amriga ko'ra, er xotinni guvohlar huzurida buzuq deb atasa, uning so'zi isbotsiz qabul qilinadi. Bu haqda Qur'oni Karimning "Nur" surasi 6-oyati karimasida arning guvohlarsiz yakka holda o'z xotinini oshkor ravishda, ya'ni boshqalar huzurida buzuq deb atashi xotin buzuqligini ko'rgan to'rt guvohning shohidligiga teng ekanligiga ishora mavjuddir.

Shariat ahkomlari bo‘yicha ma’lumki, er xotinni taloq qilsa, yana qayta nikoh qilib olishi, hatto uch taloq qilganda ham, “halola” qilib (ya’ni xotinini boshqa birovga nikoh qildirib), qaytadan uylanishi va nikoh qilishi mumkin. Lekin xotin er tomonidan buzuqlikda ayblansa, bu er shu xotiniga boshqa uylana olmaydi, ya’ni o‘zi buzuq degan xotin bilan qaytadan er-xotinlik munosabatlarida bo‘la olmaydi. Agar u xotinini buzuqlikka oshkora ayblasva yana u bilan yashab ketsa, o‘sha davr jamoasi uni **mardud** sanaydi hamda jamoadan chetlashtiradi, u bilan aloqalarni botil qiladi. Mana shuning uchun Otabek o‘layotgan **Kumushbibini tinchlantrish, Zaynabni hamda ota-onasini uning Zaynab bilan yashay olmasligiga ishontirish maqsadida** Zaynabga qilmishiga yarasha qat’iy va o‘zgarmas jazo berish uchun mana shu haqorat so‘zni qo‘llagan. Mana shu ijtimoiy-etik fondan ajratilgan holda Otabek nutqidagi bunday ziddiyatli xususiyatni tushunib bo‘lmaydi. Mana shuning uchun Kumushning o‘limidan keyin Zaynab jinni bo‘ladi; uning Otabek bilan birga yashashga mutlaqo umidi yo‘q edi; Otabek o‘zi buzuq degan xotin bilan qaytadan yashaydigan pastkash mardud nomini olmas edi.

SALOM BERISH MADANIYATIGA DOIR

Salom berish – kundalik hayotimizda eng ko‘p qo‘llaniladigan urf. Har bir so‘zlovchi so‘zini salomdan boshlaydi. Qadimdan nafaqat har ikki mo‘min-musulmon, balki har qanday dindagi kishi uchrashib qolsa, bir-biriga do‘sit yoki dushman bo‘lishidan qat’i nazar, salomlashish shart hisoblangan. Bu haqda Qur’oni Karimda “...bu dunyoning narsasini istab sizlarga salom bergen kishiga “Sen mo‘min emassan!” demanglar...” , ya’ni salomga doimo alik olish shart deyilgan. Shuning uchun salom berish sunnat (ya’ni qilish yaxshi, maqbul, lekin majburiy, zaruriy emas), lekin alik olish, salomga muvofiq va munosib javob berish farz sanaladi. Bu yerda ikki qadimiy rivoyatni eslab o‘tish foydadan xoli emas. XVI asr yozma yodgorligi bo‘lgan “Gulzor”da va Koshifiyning “Futuvvat”ida shunday rivoyat keltiriladi: Mahmud G‘aznaviy bir jangda juda oz sonli qo‘shin bilan g‘animining juda ko‘p sonli lashkarini yengadi va g‘alabadan keyin shukrona aytish uchun otini chekkaga surib, ko‘zini yumadi. Allohga hamdlar o‘qish bilan band bo‘lganida, kimdir otining tizginini ushlab, “sen kimsanki, men sunnatni bajarsam, farzni ado etmaysan?”” degan

xitobidan ko'zini ochadi va kechirim so'raydi. Bunda kinoya usuli bilan "Men salom berdim, sen nega javob bermaysan?" degan ma'no yashiringan. Boshqa bir rivoyatda Payg'ambarimiz (s.a.v.) bilan bo'lgan bir voqeа bayon qilinadi. Payg'ambarimiz hujrada hazrat Umar bilan o'tirganlarida bir g'ayridin kirib, "somalaykum" deydi. Rasuli akram "vaalaykum" deb javob beradilar. G'ayridin chiqib ketgach, hazrat Umar "axir, u sizga o'lim tiladi, Siz unga alik oldingiz!" deganlarida, Rasuli akram "men va alaykum dedim, xolos", deb xotirjam javob beradilar.

Shuning uchun xalqimiz salomlashish odobiga katta ahamiyat berib, "so'z boshi salom" deydi. Salomga javob qaytarmaslik esa eng katta beodoblik, hatto mo'min emaslik belgisi sanaladi.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, har bir elat uchun qabul qilingan salomlashish usullarining davrlar bo'yicha o'zgarib turganligini ko'ramiz. Bu nuqtayi nazardan ruslarda salomlashish odobi, uning etik-estetik va lisoniy omillari chuqur o'r ganilgan, qator ishlarda maxsus tadqiq va muhokama manbai bo'lgan. Masalan, qadimda Rossiyada salomlashish paytida nafaqat suhbatdoshning nasabi, qarindoshlik aloqalari, yoshi va jinsi, balki kunning qaysi vaqt, kasbi va suhbat paytida so'zlashayotganlar nima bilan mashg'ul ekanligi ham inobatga olingan. Jumladan, hosilni o'rib olayotganlarga "*S dvumya polyami sjatymi, s tretim zaseyannym!*" (Ikkitasi o'rilgan va uchinchisi ekilgan maydonlaring bilan!) deyilgan; g'alla yanchuvchilar bilan salomlashishda "*Po sto na den, po tisyache na nedelyu!*" (Kuniga yuzlab, haftasiga minglab!) deyilgan; ariqdan suv olayotgan qizga "*Svejenko tebe!*" (Tozalik senga!) deyilgan, mehmonlarni esa "*Xleb da sol*" (Non va tuz!), "*Chay da saxar!*" (Choy va shakar!), "*Chem bogaty, tem i radyl!*" (Borimiz sizniki!) deb; sigir sog'ayotgan ayolga "*More pod korovoy!*" (Sigiringiz suti daryodek bo'lsin!); baliq ovlovchiga "*Ulov na rybu!*" (Baliq ovingiz omadli bo'lsin!) degan tilaklar bildirilgan va h.k.

Xalqimizda so'zlovchi ish bilan mashg'ul kishi/jamoa bilan ko'rishish/salomlashishdan oldin qilib turgan ishiga bog'liq ravishda dastlab "*Hormang!*", "*Xirmonga baraka!*", "*Hosil bo'lsin!*", "*Ishga baraka!*", "*Sharbat bo'lsin!*" kabi ishga rivoj va samara tilab muloqotga kirishgan. Afsuski, o'zbek tili va madaniyati hali bu nuqtayi nazardan o'r ganilmagan, desak bo'ladi. O'z tariximizga nazar solar ekanmiz, o'zbek tili va madaniyati o'tmishda naqadar boy,

salomlashish usulari esa qanchalik xilma-xil va katta e'tiborga ega bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, ajdodlarimiz mehmonni "*Xush kelibsiz, kuningiz xayrli bo'lsin!*" deb, orziqib kutilgan mehmon bilan salomlashganda "*Ko'zingiz quyoshdek nurli bo'lsin*", shoh, xon va amaldorlar bilan salomlashganda "*Huzuringizga ta'zim bajo ayladim!*", "*Martabangiz yanada ulug' bo'lsin!*" kabi iboralarni qo'llashgan. Shuning uchun ta'kidlash joizki, salomlashish xalqimiz hayotining turli davrlari uchun urf bo'lgan me'yor va vositalar bayoni mufassal bir tadqiqot manbai bo'lmos'i lozim. Tabiiyki, salomlashish tarkibiy qismlarining xilma-xilligi tizim mohiyatiga – strukturasi va elementlari orasidagi barqaror munosabatlarga – deyarli ta'sir etmaydi – salomlashish tizim sifatida, sistema qonuniyatlariga ko'ra, barcha davrlar uchun umumiy mohiyatini saqlab qoladi – uni tashkil etuvchi elementlarning shakli va mazmuni o'zgarishi mumkin, xolos.

Salomlashish odobi haqida gap borganda, «Qaysi holatlarda salom berilmaydi?» deganda verbal, fonetik (tovush bilan) salom berish man qilingan holatlар sanab o'tildi. Lekin bu holat salomlashish pragmatik tizimining qolgan tarkibiy qismlariga aloqador emas. Masalan, Qur'on tilovat qilinayotgan/amri ma'ruf bo'layotgan/ma'ruza o'qilayotgan (ya'ni baland ovoz bilan salom berish maqbul ko'rilmagan sharoitdag'i) xonaga kechikib kelgan kishining baland ovoz bilan "*Assalom-u alaykum*" deyishi odobsizlik, lekin xonaga kirayotganda u estetik salomlashish o'zbekona odatining boshqa tarkibiy qismlarini odob yuzasidan amalga oshirishi shart va zarur – xonaga kirayotganda qo'lini ko'ksiga qo'yib, boshini egib, jamoaga yengil ta'zim bajo qilib, bo'sh joyga o'tirib tinglovchilarga qo'shilishi kerak.

Shuning uchun tizimi tarkibiy qismlaridan qay birining muayyan bir sharoitda ahamiyatligi ma'lum vaziyat bilan belgilanadi. Oddiy suhbat – gurung bo'layotgan xonaga verbal, fonetik "*Assalom-u alaykum*"siz kirish qanchalik xunuk va odobsizlik bo'lsa, jamoa diqqat bilan tinglayotgan xonaga verbal, fonetik salomlashish bilan kirish shunchalik xunuk va odobsizlikdir.

"*Salom*" so'zining o'zi bir necha mazmun kasb etishini E.Qilichev o'zining "Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari" kitobida quyidagicha bergen:

Salom! – "Keling"

Salom! – "Xo'sh, xizmat"

Salom?! – "Yana keldingmi?"

Sallo-o-o-m! – “Juda vaqtida kelding”

Salom!!! – “Gap tamom”

Salom! – “Ha, ishing tushdimi?”

Salom! – “Bir past kutib turing”

Salom! – “Vaqtim yo‘q, ketaver”

Sa-lom! – “Mana ishim bitdi, gapir endi”.

O‘zbek formal tilshunosligi yutuqlari asosida bu yerda zarurat – munosabatlarni o‘rganish uchun zamin, tayanch material sifatida – berilgan yuzaki bayondan ko‘rinib turibdiki, situativ-pragmatik vaziyat ([SPS])ning lisoniy mimik noverbal vositalari ham ulkan rang-baranglikka ega va verbal lisoniy birlklarga, odatda, hamroh bo‘lib, ularning ifodaviyligini kuchaytirib, ta’kidlab, “bezab” keladi. Lekin zarur o‘rnlarda – sharoit imkoniyati yoki taqozosiga ko‘ra, noverbal vositalar verbal vositalarni almashtirishi, adresat yoki kommunikatsiya ishtirokchilariga adresant yetkazishi zarur bo‘lgan axborotni noverbal usul bilan to‘laqonli, ta’sirchan uzatishi va u samarali bo‘lishi mumkin.

Nutqiylarning ichki omillari ham, tashqi omillari ham hatto nisbatan qisqa bir davr uchun mutlaq, o‘zgarmas emas – ular davr bilan o‘zgarib, me’yoriylik (ijobiy~salbiy sifatida baholash mezonlarini yangilab) turadi. Udunda “an’anaviylikka sadoqat” fetishistik omil istagan turdagiligi yangilikka salbiy munosabatda bo‘lganligi buning asosi bo‘lsa, insoniyatda azaliy va abadiy bo‘lgan “otalar va bolalar” muammosi – uning farzandi, mahsulidir. Masalan, bundan 100 yil avval tanish erkakning qon-qarindosh bo‘lmagan tanish ayol bilan qo‘l berib ko‘rishcha olishi o‘zbekning xayoliga ham kelmas edi. Hozir atigi “xunuk” ko‘ringan, qarindosh bo‘lmasa ham, yaqin (sinfdosh, kursdosh, kasbdosh) begona erkak va ayollarning o‘pishib ko‘rishi shamlari ham, yoki yoshlarning qomatlari va ko‘ksini oldinga chiqarib, qo‘llarini baland ko‘tarib salomlashishlari ham odat, yillar o‘tib “me’yor” tusini oldi. Axir, Ayniy “Doxunda” va “Esdaliklar” asarida guvohlik berishicha, Buxoroda 1915-20-yillarda yaktak emas, yevropacha kamzul kiyib, chilim emas, papirosh chetkanlar “jadid” sifatida rasman qatl qilingan edi.

Tarix uchun nisbatan qisqa bo‘lgan keyingi 80-yillarda o‘zbek milliy kiyimi kamida uch-to‘rt marta tubdan yangilandi. Bugungi kunda 20-yillar uchun me’yor bo‘lgan qiz-juvonlar va ayollar milliy kiyim-kechagini hozir faqat muzeylardagina ko‘rish mumkin. O‘tgan asrning 30-yillarida qiz-juvonlar uchun kostyum-yubka, erkaklar uchun

kostyum-shim milliy bo‘limgan, o‘ta rasmiy ovro‘poviy va, asosan, rasmiy-marosimiy yoki rasmiy ish kiyimi mavqeyida bo‘lsa, o‘sha asrning 60-yillariga kelib, bunday kiyinish odatiy, aytish mumkinki, milliy lashgan, o‘zlashgan o‘z kiyimiga aylandi. Bundan yigirma yilcha oldin milliy bo‘limgan, hatto vulgar ovro‘poviy kiyinish sanalgan qiz-juvonlar uchun shim bugun o‘zbek qiz-juvonlarining odatiy, aytish mumkinki, milliy lashgan ish kiyimiga aylandi. Bugungi kunda, hatto sof milliy mato – atlas, xonatlas va har xil zardo‘zi matolardan shunday zamонавиј milliy lashtirilgan bichim va rusumlarda tashqi kiyim-boshlar amalda qo‘llanilmoqdaki, ularni sof milliy ham, tub ovro‘poviy deb bo‘lmaydi.

Bunday tarixiy o‘zgarishlar nafaqat kiyim-kechakda, balki nolisoniy noverbal vositalar sirasida ham sodir bo‘lmoqda. Masalan, o‘tgan asr boshlarida o‘zbeklar uchun bir qo‘l bilan – o‘ng qo‘llar kaftlarini yopishtirib, qo‘lni qisib salomlashish odati mutlaqo yo‘q edi. O‘sha davrda o‘zbekona qo‘l berib ko‘rishish, asosan, teng saviyali va darajali kommunikantlar orasida, shunda ham rasmiyatchilik munosabatlari saqlangan holda odatiy salom-alikdan keyin mumkin edi. Shunda ham yuksakroq martabali kimsa qo‘llarini ko‘ksidan olib suhbatalashishga ikki qo‘li kaftini bir-biriga qaratib uzatsa, suhbatsosh egilib, uzatilgan qo‘llardan o‘ngini ikki kafti orqasiga ilib ziyoratsimon harakat qilar edi. Oddiygina o‘ng qo‘llar kaftlarini juftlab, qo‘lni qisib qo‘yish odati bizga o‘tgan asrning 30-yillaridan rus odati sifatida kirib keldi va bugungi kunda rasmiy ko‘rishish odatiga aylandi.

Xuddi shunday yig‘in va izdihomlarda savol berish yoki ilova qilish ramzi bo‘lgan mumtoziy yengilgina yo‘talib qo‘yish (tomoq qirish) bugun o‘ng qo‘lni ko‘tarish bilan almashtirildi.

MULOQOTDA TINGLASH VA SUKUT MADANIYATI

Nutqiy muloqotda so‘zlovchi va tinglovchining o‘rnı benihoya katta, har ikkala tomon ham o‘z-o‘zicha mustaqil maqsadga ega bo‘ladi. So‘zlovchi har qanday NMda nimanidir aytishni maqsad qiladi, bu maqsad tinglovchi tasavvurida nima uchun va nima niyat bilan so‘zlanilayotganini his etishdan iborat. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirra (so‘zlovchi va tinglovchi) ning qanchalik o‘zaro mosligi, bir-birini to‘ldirishiga bog‘liq. So‘zlovchi ma’lum bir axborotni tinglovchiga yetkazishda uni turli shakkarda berishni o‘z oldiga maqsad

qilib qo'yadi va bunda u quyidagi maqsadli usullardan foydalanishi mumkin:

- 1) axborot yetkazish;
- 2) iltifot ko'rsatish;
- 3) boshqaruv (regulyativ);
- 4) xitob (apelyativ);
- 5) ta'sir etish;
- 6) hayajon;
- 7) maslahat, undash;
- 8) tabriklash va h.k.

Tinglovchining maqsadi – tinglash. Mashhur amerikalik notiq psixolog Deyl Karnegi “Yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” deganda, aynan shu qobiliyatning insonda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Tinglash – muloqotning eng muhim komponenti. Tinglash san'atini puxta egallamagan kishi hech qachon sog'lom munosabat o'rnatma olmaydi. Tinglay bilmaslik og'ir ma'naviy va, hatto, sezilarli iqtisodiy zarar keltirishi ham mumkin. Afsuski, muloqot ishtirokchilari ko'p hollarda tinglash kuchli psixik vosita ekanligini unutib qo'yishadi. Suhbatdosh so'zlarini eshitamiz, ammo **eshitish** va **tinglash** bir xil narsa emas.

Tinglash – faol jarayon, u fikrning ma'nosini, so'zlovchining maqsadini anglashga intilish kabilarni o'z ichiga olgani bois tushunish bilan chegaradosh. Tinglashni ikki guruhga ajratish mumkin:

- a) refleksiv;
- b) norefleksiv.

Refleksiv tinglashda adresat so'zlovchi fikrini uqishga, o'ziga singdirishga, uning bayoniga, avvalo, har xil ifodaviy usullar (yuz, ko'z, va boshqa a'zolarning har xil holati) bilan munosabat bildirish (asosan, uqish, anglash, o'zlashtirish, hayrat, tushunmaslik kabilalar) ga qaratilgan bo'ladi. Refleksiv tinglashda adresat muloqotga so'zlovchi mavqeyida kirishganda uning fikri kommunikator (so'zlovchi) bayoni bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Norefleksiv tinglash so'zlovchi kuchli emotsiyal kechinma (musibat, alam yoki aksincha shod-xurramlik) larni boshdan kechirayotganda va tushunadigan tinglovchiga muhtoj bo'lganda qo'llanadi, ya'ni suhbatdosh o'z kechinmalari bilan o'rtoqlashmoqchi bo'lganda ishlataladi.

Norefleksiv tinglashda javoblar minimallashtiriladi. Ular neytral, suhbatdoshni o‘z fikrini davom ettirishga undaydigan bo‘lishi kerak. Ularning eng keng tarqalganlari “Shundaymi?”, “Davom eting, bu juda qiziq-ku”, “Ha, ha tushunyapman”, “Buni eshitishdan juda xursandman”, “Xo‘sish, xo‘sish, xo‘sish”, “Shunaqa gaplar deng” kabilar. Bunday javoblar suhbatdoshni ruhlantiradi.

Tinglashning ham xuddi so‘zlashdagi kabi texnikasi, usullari bor. Masalan, so‘zma-so‘z qaytarish yoki boshqacha talqin qilish. Birinchisi suhbatdoshni qo‘llab-quvvatlashni bildiradi. Ikkinci usul – so‘zlovchining so‘zlarini tinglab, undagi asosiy g‘oyani muxtasar, o‘zining talqinida ifoda etish. Bundan tashqari, tinglash jarayonida “Yo‘g‘-e?”, “Nahotki?”, “Yashang!”, “Qarang-a!”, “Qoyil!” kabi luqmalar bilan suhbatdosh so‘zlashga undab turiladi.

Mutaxassislarning aniqlashicha, ishlayotgan kishilar vaqtning 45% ini kimlarnidir tinglashga sarf qilar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo‘ladigan – savdo xodimlari, aloqachilar, rahbarlar, muxbirlar 35-45% oylik maoshlatini odamlarni tinglaganliklari uchun olar ekanlar. Bundan xulosa chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin tarkibiy qismidan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga so‘zlashga nisbatan ko‘proq foyda keltirar ekan.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” dostonida tinglashning foydasi, so‘zlash mas’uliyatining kattaligi xususida shunday fikr bildiradi:

*Bu Aytoldы ауды сөзиг билгәдин
Eshitgu biligsizкә аysa kedin*

*Ulug‘dун eshitgy kerəklig sөzyg
Kichigkә ayu bergy tutsa өzyg*

*Өkysh тыңlag‘u сөz birər сөzləgy
Menə mundag‘ aydy biliglig bəgj
Өkysh сөzləyy bilgə bomas kishi
Өkysh eshty bilgə tyz bashы*

*Ag‘ын bolsa yalқuq bilir ham bilig
Yanı bolsa tegməs biligkə əlig.*

Mazmuni:

*Oyto 'ldi aytdi: donodan tinglash,
So 'ng nodonga so 'zni kerakdir aytish.*

*Lozim so 'zni ulug'lardan eshitmoq,
Tutolsa o'zini, kichikka aytmoq.*

*Ko 'p tinglab, oz-ozdan kerak so 'zlamak,
Donodan menga bu ibratdir demak.*

*Ko 'p so 'zlagan kishi sanalmas dono,
Barchaga bosh bo 'lar tinglagan dono.*

*Kamgap bo 'lsa, kishi bilimli bo 'lar,
Ezmaning bilimga ne vaqt qolar.*

Tinglash so 'zlashdan ham ikki karra qiyinroq ekanligini quyidagi rivoyatda ko 'rish mumkin. "Bir kuni qadimgi yunon faylasufi Arastuning oldiga juda ham sergap yosh yigit kelib, unga notiqlik san'atini o'rgatishni iltimos qilibdi. U uzundan-uzoq gapirib bo 'lgandan so 'ng Arastudan o'qish uchun qancha haq to 'lash lozimligini so 'rabdi.

— Sizdan boshqalarga qaraganda ikki barobar ko 'proq haq olinadi, — qovog'ini solib javob beribdi faylasuf.

— Nima uchun? — hayron bo 'libdi yigit.

— Chunki siz bilan ikki barobar ishlashga to 'g'ri keladi: sizga so 'zlashni

o'rgatishdan avval jim turishni(tinglashni) o'rgatish lozim..." Shuning uchun S.Mo'minovning "So 'zlashish san'ati" risolasi, Azim Suyunning "Azizlarim..." bayti epigraf sifatida qo'yilgan asari "Avval tinglashni o'rgan" da'vati bilan boshlanadi.

Tinglash kommunikantlar maqsadida uyg'unlik mavjud bo 'lgan taqdirdagina amalga oshadi. Suhbatdoshlar orasida maqsad uyg'unligi bo 'lmasa, xalq iborasi bilan aytganda, suhbat qovushmaydi yoki uziladi, ya'ni muloqot jarayoni maqsadga erishmaydi. Tilshunos S.Mo'minov bu haqda fikr yuritib, choyxonada o'ta ta'sirchanlik va kuchli hissiyot bilan Yusufjon qiziq uchun mutlaqo maqbul bo 'lman mavzuda — qudalaridan shikoyat qilib "dardini to 'kayotgan" kishi suhbatiga chek qo'yish uchun o'rnidan turib itga salom bergenligi

lavhasi keltirgan. Shunga yaqin, lekin endi kishi tabiat bilan aloqador holatni Tohir Malikning "Shaytanat" asaridagi Jamshid ismli qahramon tasvirida ham ko'rish mumkin. Muallif tasvirlaganidek, "Jamshid gapdan ko'ra ishni ma'qul ko'radigan yigit edi. U bilan o'n kun turib, birga yurib, to'rttagina gap so'rasangiz, hushiga kelsa, ikkitasiga javob qaytarar, xohlamasa, shu ikkita gap ham yo'q edi. Jamshid hamisha dangal gaplashishga o'rgangan". Shunday kamgap odam suhabatini yozuvchi quyidagicha tasvirlaydi:

Elchin uni gapga solish uchun:

— Cheksam maylimi? — deb so'radi. Jamshid yo'lidan ko'z uzmagan holda "ha", deb qo'ydi.

— Bek akangiz salomatmilar, ko'rmaganimga ham o'n yil bo'ldi, — dedi Elchin.

Jamshid unga bir qarab oldi-yu, indamadi. Demak, ahvol chatoq, deb o'yadi Elchin.

Kommunikantlar maqsadida uyg'unlik bo'lmasa — ko'p hollarda adresant maqsadini adresat qabul qilmasa — yuqorida ko'rganimizdek, muloqot buziladi, maqsadiga erishmaydi va uziladi.

Kommunikantlarning madaniy saviyasi, ijtimoiy-ma'naviy dunyosi va yana juda ko'p omillarni hisobga olgan holda muloqot turli ko'rinishlarda uziladi. Masalan, S.Mo'minov tasvirlagan holatda adresat adresant maqsadidan tamoman boshqa mavzuga yoki faoliyatga o'tadi ("dard"ini to'kayotgan kishi iztiroblariga mutlaqo befarqligini namoyish qilish uchun tamoman boshqa ishga — suhbatdoshini qo'yib, o'rnidan turib itga salom beradi). "Shaytanat"dan keltirilgan lavhada esa adresat muloqotga aslo kirishmaydi. Muloqot ba'zan adresat tomonidan ancha keskinlik, hatto qo'pollik bilan to'xtatilishi mumkin. Masalan:

— Tanimaysiz. Bir yaxshi odamni duo qilavering. Shu odam sizga muruvvat qilmasa, qamoqda chirib ketardingiz.

— Yaxshi odam... Qilich Sulaymonovmi?

Yigit javob bermadi.

• Asadbekmi?

• Sergap odam ekansiz! — yigit shunday deb jerkib berdi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib ayta olamizki, NM tushunchasi mohiyatan so'zlovchining maqsadi bilan bog'liq ekan, so'zlovchi o'z faoliyatini tinglovchiga moslashtira bilishi, tinglovchi esa so'zlovchi saviyasini bilishi, tinglashga tayyor bo'lishi kerak; so'zlovchi va

tinglovchining har biri o‘ziga xos bo‘lishiga qaramay, maqsadlarida uyg‘unlik bo‘lmasa, muloqot samara bermaydi.

Muloqot jarayonida *fonatsion noverbal vositalar* sirasiga sukut (jim turish, gapirmaslik) ham kiradi va tinglashga aloqadorligi (aynan emasligini) ni ham ta‘kidlash lozim. Muloqot jarayonida sukut situativ, sotsial va psixologik omillar bilan bog‘liq holda kommunikativ mazmun ifodalaydi. Ammo muloqot jarayonidan tashqari hollarda (masalan, uyqu, yolg‘izlik kabi) kommunikativ mazmun ifodalamasligi tabiiy.

Darhaqiqat, sukutning muloqot jarayonida naqadar ahamiyatli ekanligini Sa‘diy Sherziy o‘z misralarida shunday bitgan:

*Oqillar nazdida gar o‘ltirish odobdir,
Maslahat tashlaganda so‘zga ko‘rsatish himmat.
Ikki narsa aqlga sig‘maydi agar bilsang,
So‘zlash paytida sukut-u keraksiz joyda suhbat.*

Sukut saqlash ham o‘ziga xos ijtimoiy qiymat kasb etadi. Masalan, o‘z dil roziligini aytishda, o‘tganlarning ruhini shod etib, Qur‘on tilovat qilib, duolar o‘qib, ularni esga olib sukut saqlashda, xafa bo‘lish, indamaslik, arazlashganda, mensimaslik holatida, kesatiq va kinoya kabilardir.

Sharq mutafakkiri Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy yaxshi kishilar odobi haqida bitilgan kitobida bu haqda shunday deydi: “ ... (yaxshi kishi) o‘zini beadobona so‘zdin va fe‘ldin yamon harakatdin va noxamvor (noo‘rin) sukunatdin saqlag‘ay.”

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan olingan quyidagi parchada sukut tahqirlash mazmunini anglatadi:

“... Otabek bu cho‘ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini anglab, ma‘nosiz bu savollarga javob berib o‘lturishdan sukutni xayrlik topdi. Go‘yo o‘zining bu sukuti bilan Musulmonqulga ma‘nolik bir javob qilar edi. Musulmonqul bu sukutdan tahqirlandi, tutuni ko‘kka ko‘tarilar ekan baqirdi:

– Nega javob bermaysiz?!”

Sukut, tabiiyki, asosan, tinglovchiga, aniqrog‘i, tinglovchining so‘zlovchiga o‘tishi jarayoniga xos xislat. Shuning uchun, o‘zbek nutq odobiga ko‘ra, o‘rinsiz yoki bema‘ni savolga sukut bilan javob berish, uni eshitmaganga olish, suhbatni buzmaslik yuksak odob – hatto Mirza Kenjabekov talqinida ibodat sanaladi:

*Ibodatdir biror zolim-jafokorga desang haq so 'z,
Va nodonga sukul saqlash, sukunat ham ibodatdir.*

Turkman va kavkaz xalqlari odatiga ko'ra, kelinlar ma'lum muddat (asosan, farzand ko'rgunlaricha) qaynona va qaynotalariga gapirmaslik odatlari hurmat ma'nosini ifodalashi sukul ifodalaydigan kommunikativ mazmunlardan biri – tahqirlashning butunlay aksidir.

TAQDIRIMIZ YO'LIMIZDA

Omad va omadsizlik ko'pchilikni o'yantirib keladi. "Omad insonga bog'liqmi?", "Omad zaruriyatmi yoki tasodif?", "Omadsizlikni bartaraf etish mumkinmi?", "Omadsizlikni aylanib o'tsa bo'ladimi?" qabilidagi savollar ko'pincha o'zini omadsiz sanovchi kishilarni qiy Naydi. Shu boisdan, omad, muvaffaqiyatga erishish yo'llari haqida saboq beruvchi son-sanoqsiz kitoblar chop etiladi, maslahatlar beriladi, yo'l-yo'rqliar ko'rsatiladi.

Mening nazarimda, omadli bo'lish uchun barchamiz faoliyatimiz davomida biz bilan muvaffaqiyatimiz orasiga "xitoy devori" bo'lib suqiladigan, harakatlanishimizga qo'ymaydigan – "ozyolalarimizga chirmashib olgan" uch cheklovni yengib o'tishimiz kerak. Kim bo'lishimizdan qat'i nazar, shu uch cheklovni mag'lub qilishimiz lozim.

Birinchi cheklov bu – **SUSTKASHLIK**. Sustkashlikka berilganimiz sari yumushlar qalashib boraveradi. Biror vazifaning nechog'lik jiddiy ekanligi xususida o'ylamay, qo'l uchida ishga kirishish oqibati ko'ngildagidek natijaga olib kelmaydi. Bu holga bir bora qo'l siltab, bee'tibor bo'lamiz. Shu xatoni takrorlayverib esa omadsiz kunlarni yana va yana boshdan kechiraveramiz.

Ikkinchi cheklov bu – **AYBLOV**. Qachon oxirgi marta o'z xatolaringizga boshqa birovni sababchi va aybdor qilib ko'rsatmadningiz? Barchamizning eng ayanchli mag'lubiyatimiz – o'z xatolarimizga tashqaridan sabab izlashimizdir: "Shunday bo'lib qoldi... Falonchining aybi bilan... Falonchi aralashmaganida edi..." kabi. Bu vaziyatdan qutulish emas, balki o'z-o'zini aldashdir. Omadli bo'lish uchun o'zingizni aldashni, aybdor qidirishni, vajlar ko'rsatishni bas qiling.

Uchinchi cheklov – **O‘Z-O‘ZINI OQLASH** – ayblovning mantiqiy davomi. Bir xatoga minglab oqlovlar o‘ylab topish mumkin. O‘ylab topish – xo‘s, nega aynan shunday? Javob oddiy: biz o‘z kamchilik va xatolarimizni oqlash uchun keltiradigan bahonalarimiz aslida mayjud emas. Ularni o‘zimiz uchun himoya qobig‘i sifatida o‘ylab topamiz, xolos.

Endi chuqur mulohaza qilaylik – balki o‘zgarishni bugunoq boshlarmiz? Yoki sustkashlikda, o‘zgalarni aybdor qilishda, o‘zimizni oqlashda davom etaveramizmi?

Taqdirimiz – bizga hadya etilgan muqobil yo‘llar. Boshqa yo‘l yo‘q. Undan qochib qutulolmaymiz. Ha, taqdirdan. Yo‘llar esa aniq – ezzulik va yovuzlik, parvoz va tanazzul, tubanlik va yuksalish yo‘llari. Bizga bu ikki yo‘ldan birini tanlash ixtiyori berilgan.

TAJRIBA – NUQSON – MUVAFFAQIYAT

O‘z xatolarini bartaraf etishni xohlovchilar, umuman olganda, o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘ladigan kishilar oramizda juda ko‘p. Ilon po‘st tashlagani kabi, nuqsonlaridan peshma-pesh xalos bo‘lib borishni maqsad qilib, bunga qat’iyat bilan, rejali tartibda intiladigan yoshlari esa kelajakda buyuk insonlar bo‘lishga qodir kishilar. Men kishilarni o‘z nuqsonlariga munosabati nuqtayi nazaridan quyidagi toifalarga ajratgan bo‘lar edim:

- O‘z nuqsonlarini tan olmaydiganlar.
- O‘z nuqsonlarini bartaraf etishni istamaydiganlar.
- O‘z nuqsonlarini bartaraf etishni istaydiganlar.
- O‘z nuqsonlarini bartaraf etishni maqsad qilganlar.
- O‘z nuqsonlarini bartaraf etishga harakat qiladiganlar.

Har bir o‘rin, bir vaqtning o‘zida, o‘sha kishilarga men tomonidan qo‘yilgan bahoni ham anglatadi. Masalan, o‘z nuqsonlarini bartaraf etishni maqsad qilganlarning bahosi – “4”, nuqsonlarini bartaraf etish yo‘lida harakat qiladiganning bahosi esa – “5”.

Men quyida tengdoshlarimga biror maqsadga erishish uchun harakat qilish davomida qanday saboqlar olish mumkinligi haqida to‘xtalmoqchiman.

Biror ishni bexato bajarishni o‘rganishning eng yaxshi usuli, ya’ni muvaffaqiyatning birinchi garovi, avvalambor, o‘sha ishni noto‘g‘ri bo‘lsa-da, bajarib ko‘rishdir. Zero, eng ulkan saboq – mag‘lubiyatdan

chiqarilgan zarur xulosa, mag'libiyatni his etish tajribasidir. Bunda o'zimizni shaxs sifatida chuqurroq anglab yetamiz. Qolaversa, kelgusi muvaffaqiyatlarga zamin hozirlaymiz.

Ikkinci saboq – muvaffaqiyatga erishgan, har tomonlama yetuk insonlarning hayotini kuzatib borish. Ularning so‘zlarini va amallarini o‘zimizga namuna qilib olaylik. Zero, atrofimizdagi har qanday inson biz uchun bebaaho USTOZ bo‘lishi mumkin. Masalan, birovdan qanday bo‘lish va nima qilish kerakligini o‘rgansang, boshqa birovdan qanday bo‘imaslik va nima qilmaslik kerakligi bo‘yicha saboq olasan. Faqat ulardan nimani o‘rganish, nimasidan saboq olishni aniqlab olish kerak.

Hayotning har kuni bir dars, har lahza bir saboq va, ta’kidlash joizki, faqat hech kim mukammal emas, boshqalar esa mukammal bo‘la oladi. Axir, biz HECH KIM emasmiz-ku! Bizni kamolotga shunchaki tajribalar emas, balki mukammal tajribalar yetkazadi. Mukammal tajriba esa chuqur anglangan, tahlil qilingan tajribadir. Masalan, qo‘lingizga tikan kirdi va og‘riq sezdingiz. Bu – oddiy tajriba. Lekin bu hodisaning sabablarini aniqlab, oqibati nima bo‘lishini sezsa olsangiz, tajribangiz mukammalik kasb etadi.

Kundalik hayotimiz tajribalarga to‘lib-toshgan. Modomiki, biz ularni anglamas va tahlil qilmas ekanmiz, ular oddiyligicha qolib ketaveradi.

ILM

Yer sharini ulkan bir qurilish maydoni deya tasavvur qilaylik. Unda har birimizning o‘z vazifamiz bor. Masalan, g‘isht bilan bog‘liq jarayonni olaylik. Birov g‘isht quyadi. Boshqa bir kishi esa shu g‘ishtdan ajoyib binolar quradi. Uchinchi toifa odamlar esa na yaratadi, na quradi. Ular faqat kuzatuvchilar va tahlilchilardir. Odamlarning ilmga munosabati ham xuddi shunday. Shu asosda olimlarni uch toifaga bo‘lish mumkin:

1. Ilmni yaratuvchilar (g‘isht quyuvchilar kabi).
2. Ilmni tatbiq etuvchilar (g‘ishtdan bino quruvchilar kabi).
3. Ilmni kuzatuvchilar (g‘ishtni kuzatuvchilar kabi).

Birinchi toifa olimlar tafakkur va tasavvur mahsulini ma’lum bir shaklga soladi. Ilmni yaratadi.

Ikkinci toifa olimlar esa ilmni tatbiq etuvchilar bo‘lib, mavjud ilmlar asosida yangi qarashlarni shakllantiradilar. Egallagan har bir ilmini amalda qo‘llab ko‘rishadi. Ular uchun amaliyat eng dolzarb

ahamiyatga ega. Tajriba natijasida kashfiyotlar yaratadilar, o‘z qobiliyatlarining yangi ufqlarini ochishadi. Shu bilan birga, bu toifa kishilar har qanday sohada mustaqil fikrlaydigan, mavjud narsadan yangidan-yangi narsalar yasay oladigan, o‘zlarida buyuk yaratuvchilik qobiliyatini tarbiyalab boradigan kishilardir. Ilmda bu toifa katta rol o‘ynaydi.

Uchinchli toifa olimlar kimlardir tomonidan yaratilgan ilmlarni tinmay kuzatadi va tahlil qiladi. Obrazli qilib aytganda, oftobda quriyotgan g‘ishtlarni kuzatadi, aytarli hech ish qilmasa-da, g‘ishtlarga termulib, unga mo‘ltirab, belgi-xususiyatlarini tavsiflab o‘tiraveradi. Ko‘p bo‘lsa, ahyon-ahyonda o‘sha g‘ishtlarni u yerdan bu yerga olib taxlaydi, xolos. Ammo g‘isht quya bilmasligi va undan biror narsa qura olmasligiga qaramasdan, u haqda ko‘p narsani biladi. Demak, bunday kishilar yangi ilm ham yaratmaydi, uni amaliyotga tatbiq ham qila olmaydi, balki tegishli ilm haqidagi “ilm”ga ega bo‘ladilar, xolos.

Biz ilm hosil qilar va egallar ekanmiz, o‘zimizga quyidagi savollar bilan murojaat qilishimiz lozim. Yaratgan va egallagan ilmimiz menga va jamiyatga qanday naf beradi? Egallangan ilmdan qanday yangi ilm yaratish mumkin? Ilmni amaliyot bilan qanday bog‘lash mumkin? Bu savollar ilm egallah jarayonining asosiy yo‘ldoshi bo‘lishi lozim. Shu tariqa barchamiz ilmi yo‘lida foydali va maqsadli harakat qila boshlaymiz. Natijada ilmda jamiyat uchun hech qanday foydasiz, befarq kuzatuvchiga aylanib qolishdan xalos bo‘lamiz.

“SO‘Z SIRI”

Bilasizmi?

So‘zlar ham odamlarga o‘xshaydi. Tug‘iladi, shakli va ma’nosini o‘zgarib, rivojlanadi, ya’ni o‘sib-ulg‘ayadi... Qolaversa, qarib, umrini yakunlaydi – jonli nutqda qo‘llanmay qo‘yadi, faqat lug‘atlardagina saqlanib qoladi.

Bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga odamlar kirib kelganligi kabi bir tilga boshqa tillardan ham so‘zlar kirib keladi. Biz uni o‘zlashma so‘zlar deb ataymiz. Shuningdek, boshqa tillarga ham so‘zlarimiz kirib boradi. Axir, bugungi kunda ona tilimizga mansub *kurash*, *chala*, *yonbosh*, *g‘irrom*, *halol* kabi so‘zlarimiz jahongashta so‘zlarga aylanib ketmadimi!

Davrlar o'tishi bilan so'zlarning ma'nosi ham goh kengayib, goh torayib boradi. Ba'zilarining asosiy ma'nosi unutilib, ikkinchi darajali ma'nosi faollashadi. Quyida ulardan biriga to'xtalamiz.

QURALAY. Bu so'zni eshitishingiz bilan gap ko'z haqida ketyapti, deb o'ylaysiz. Albatta, to'g'ri: chiroyli, go'zal ko'zlar haqida. Chunki xalqimizda quralay ko'z, ko'zlar quralayday degan ifodalar bor. Yoki mashhur:

*Quralay ko'z, quralay,
Derazangdan mo'r alay*

degan xalq qo'shig'ini eshitgandirsiz.

Quralay ko'z deganda, qizlarning chiroyli, katta-katta, ikki cheti biroz qiyilgandek ko'zları tushuniladi. Masalan, *Mehribon ko'zları jigarga moyil, quralay* («*Yoshlik» jurnali). *Quralay ko'z, bodomqovoq, sarvgomat* (S.Siyoyev, "Avaz").*

Ammo aytib o'tish lozimki, bu ma'no so'zning bosh ma'nosi emas. Bunga amin bo'lish uchun so'zning "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi izohiga e'tibor qaratamiz:

"**QURALAY 1.** Kiyik yoki ohulatning yosh bolasi." (5-tom)

Lug'atda bosh ma'no arab raqami 1 bilan beriladi. Yuqoridagi 1 soni – shunga ishora.

Endi hozirgina tug'ilib, chopqillab yurgan kiyik bolasini ko'z oldingizga keltiring. Uni siz kitoblarda, televizorda yoki hayvonot bog'ida uchratgansiz, albatta. Agar siz uning ko'zlariga e'tibor bermagan bo'lsangiz, keyingi safar, albatta, diqqat qiling. Beg'ubor va hayotga hayrat va tashnalik bilan boquvchi chanqoq bu ko'zlar tasavvuringizda bir umr muhrlanib qoladi.

Qizlarning chiroyli ko'zları ana shu murg'ak ohuning ko'zlariga o'xshatiladi.

Ko'rdingizmi, inson o'xshatish asosida ham go'zallikni baholaydi. Chunki biz borliqni tasavvurlarimiz asosida ko'ramiz.

Demak, *quralay* so'zining bosh ma'nosi ma'lum darajada kuchsizlanib, bugungi kunda ko'chma ma'nosi faollashgan, xalq ongida asosiy ma'noga aylangan.

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI	3
KIRISH	10
NUTQ, UNING SHAKLLARI, TURLARI VA USLUBLARI	17
NUTQ MADANIYATI, RITORIKA VA VOIZLIK	25
ANTIK DAVRDA NOTIQLIK VA NUTQ MADANIYATI	29
SHARQ NOTIQLIGI TARIXI. MARKAZIY OSIYODA NOTIQLIK VA NUTQ MADANIYATI	33
MADANIY NUTQ ME'YORLARI VA QOIDALARI	39
MADANIY NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI ..	57
NUTQ MADANIYATI VA TILNING TASVIRIY VOSITALARI ..	68
AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR	80
NUTQ MADANIYATI, NOTIQLIK, NUTQ SHAKLLARI VA TURLARI BO'YICHA KOLLOKVIUM	80
MADANIY NUTQNING TALAFFUZ VA IMLO ME'YORLARI BO'YICHA MASHQ	82
MADANIY NUTQNING GRAMMATIK VA USLUBIY ME'YORLARI BO'YICHA MASHQ	84
FIKRNI NUTQ USLUBLARIGA MOS IFODALASH BO'YICHA TRENING	86
YOZMA MADANIY NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI	88
OG'ZAKI MADANIY NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI	90
NUTQNING QISQALIGI BO'YICHA TRENING	92
FIKRNI TURLI NUTQIY SHAROIT VA VAZIYATGA MOS IFODALASH MASHQLARI	94
ISH QOG'OZLARI USTIDA ISHLASH	96
NAZORAT ISHLARI UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI	98
MUSTAQIL O'ZLASHTIRISH UCHUN TARQATMA MATERIALLAR	113

Raupova Laylo

**Nutq madaniyati
Darslik**

Toshkent - “INNOVATSIYA-ZIYO” - 2019

Muharrir Xolsaidov F.B.
Texnik muharrir: Sh.Abdisalomova

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 14.10.2019 da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.
“Times New Roman” garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog’i 9. Nashr bosma tabog’i 8,62.
Adadi 100 nusxa.

